


YgE 2
55
vt-25

B. SHUKURIDDINOV
O. QO'SHNURODOV

UMUMIY GEOLOGIYA



Toshkent - 2011

ҚҰШМУРОДОВ ОЧИЛ –
Ўзбекистон Миллий Университети
профессоры. Геокимё, минералогия
ва петрография кафедрасы мудири.
Ўзбекистонда хизмат күрсатған
халқ таълими ходими.

Фарбий Ўзбекистон гранитоидлари, маъданларнинг геокимёси
ва минералогияси бўйича етук мутахассис. 2 та монография, 2 та
дарслик, 20 та ўқув кўлланма ва 70
дан ортиқ илмий мақолалар
муаллифи.



ШУКУРИДДИНОВ БАХТИЁР-
Тошкент Давлат техника Университети катта ўқитувчиси. Фарбий
ва Шарқий Ўзбекистоннинг олтин конларини излаш ва разведка
қилишда фаол қатнашган. Геология соҳасида мутахассислар тайёрлашда
катта ҳисса қўшган. 3 та ўқув кўлланма, 10 дан ортиқ услубий кўлланмалар
муалифи.



Yozil
55
261-88


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

"MINERAL RESURSLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI"
DAVLAT KORXONASI

B.SHUKURIDDINOV, O.QO'SH MURODOV

UMUMIY GEOLOGIYA



TOSHKENT-2011

UDK: 551.1/4(075)

BVK: 26.3Я722

Ш91

B.Shukuriddinov, O.Qo'shmurodov. Umumiy geologiya (Kasb-hunar kollejlar o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) / O'zbekiston Respublikasi oly va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, "Mineral resurstar ilmiy-tadqiqot instituti" Davlat korxonasi. - T.: "MRITI" DK, 2011. - 177 bet, 56 rasm, 19 bibl.

Kasb-hunar kollejlarining "Foydal qazilmalar geologiyasi va qidiruv ishlari" ta'lif yo'naliishi bo'yicha geologiya qidiruv ishlari, geofizika ishlari va geologiya qidiruv quduqlarini burg'ilash mutaxassisliklari uchun yozilgan va o'quv dasturlariga mos keladi. Mazkur o'quv qo'llanma geologiya qidiruv ishlari yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarining o'quv reja dasturi asosida yaratilgan. Qo'llanma olti qismidan iborat. Birinchi qismde Olam va Yer haqida, ikkinchi qismda yer po'sti, uchinchi qismda geologik jarayonlar haqida ma'lumotlar beriladi. To'tinchi qism tektonik harakatlarga bag'ishlangan. Beshinchi qismda yer po'stining rivojanish tarixi qisqacha bayon qilingan. Oltinchi qismda texnogen jarayonlar va atrof-muhit muhofazasi masalalari yoritilgan. Qo'llanmadan geologiya qidiruv ishlari hamda foydal qazilma kontarni qazib olish sohasi yosh mutaxassislar ham foydalanishi mumkin.

Bosh muxarrir:

Geologiya va mineralogiya fanlari doktori, akademik **H.A. Akbarov**

Taqribchilar:

Abu Rayhon Beruniy nomidan TDTU geologiya, mineralogiya va petrografiya kafedrasи mudiri, dotsent **B.T.Toshmuhammedov**

S.Rahimov Politexnika kasb-hunar kolleji katta o'qituvchisi **J. Tulanov**

ISBN 978-9943-364-12-7

© B.Shukuriddinov, O.Qo'shmurodov, 2011
© "Mineral resurstar ilmiy-tadqiqot instituti"
Davlat korxonasi, 2011

SO'Z BOSHI

Geologiya-qidiruv ishlari O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. Chunki mineral xom ashyo iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirish va rivojlanirishni hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni belgilab beradi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday davlatning sotsial-iqtisodiy rivojlanish darajasi mineral xom ashyo iste'molini oshirish bilan bog'liq.

O'zbekistonning mineral xom ashyo bazasini yaratishda kasb-xunar kollejlarida geologiya-qidiruv sohasi uchun tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarining o'mni alohida. Chunki ular dala geologiya-qidiruv ekspeditsiyalarida olib boriladigan xujatiash, namunalash, burg'ilash, lahim kavlash, geofizik tekshirish, laboratoriya taxibili kabi ishlarning faoliyotlari hisoblanadi. Ularni o'zbek tilida yaratilgan geologik darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash bugungi kunning dolzorb masalasi hisoblanadi. Holbuki o'zbek tilida bu sohaga oid adabiyotlar hali juda ham kam.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oly va o'rta maxsus ta'lif vazirtigining o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish rejasida ta'lif yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturiga mos holda yaratildi.

Qo'llanma yaratishda mualliflar o'zlarining ko'p yillik ilmiy, pedagogik va ishlab chiqarish tajribalariga asoslanib, kollej o'quvchilarining yoshiga mos keluvchi qiziqishlarni hisobga olishga harakat qildilar.

Mualliflar takrorlash uchun beriladigan savollar, barcha mavzularni qamrab olgan test savollari va ularga javoblar to'plamini yaratdilar. Bu holat o'quvchilarga o'zlarining olgan bilimlarini bir tizimda solishga va o'qituvchi-murabbiylar uchun esa o'quvchilar tomonidan bilimlarini o'zlashtirish darajasini bilish imkonini beradi.

Qo'llanmada bayon qilingan geologik jarayonlar va hodisalarini o'quvchilar tomonidan eslab qolishni engillatish maqsadida har bir mavzu uchun etarli misolda rasm, jadval va chizmalar berildi. Rasmlarning asosiy qismi Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududiga taalluqli bo'lib, kam hollarda chet el rasmlariga murojaat qilingan.

Mualliflar qo'llanmani yaratishda har tomonlama yordam bergan O'zMU "Mineralogiya va geokimyo" kafedrasining katta mutaxassis F.M.Sa'dullaevaga o'z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

KIRISH

Umumiy geologiya sayyoramiz Yer haqidagi bilimlar dunyosiga olib kiruvchi birinchi geologik predmet hisoblanadi. Shuning uchun u Yerning paydo bo'lishidan boshlab, uning ichki va tashqi qismida kechadigan barcha geologik jarayonlar haqida umumiy ma'lumot beradi.

Geologiya atamasi grekcha "geo"-yer va "logos"-bilim, ta'llimot so'zlaridan kelib chiqqan.

Geologiya fan sifatida XVIII asr oxirlarida shakllangan bo'lib, Yerning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tuzilishi haqidagi fandir.

Yerning chuqur ichki qismiga krib borish va o'rganish qiyin bo'lgani uchun hozirgi zamон geologiya fani asosan sayyoramizning 10-15 km chuqurlikdagi yuza qismini ko'proq o'rganadi. Yerni geologiya fanidan tashqari astronomiya, geografiya, geodeziya kabi fanlar ham o'rganadi va ular o'zaro bir-biri bilan bog'langan.

Hozirgi vaqtida geologiya bir qator o'zi mustaqil yo'nalishga ega bo'lgan sohalarga-fanlarga bo'linadi.

Mineralogiya (lotincha "minera"-ma'dan, javohir) tabiiy sharoitda elementlarning birikmasidan hosil bo'lgan minerallarni o'rganuvchi fan.

Petrografiya (grekcha "petro"-qoya, tosh "grafo"-chizaman) yer po'stini tashkil etuvchi tog' jinslarini o'rganadi.

Tektonika (grekcha "tektonos"-yaratuvchi) er po'stining tuzilishi va uni tashkil etuvchi strukturalar haqidagi fan.

Paleontologiya (grekcha "paleos"-qadimgi, "ontos"-organizm) qadimgi organizmlar haqidagi, paleogeografiya esa o'tgan geologik vaqlarda yer yuzasida kechgan tabiiy va geografik sharoitlarni aniqlovchi fanlardir.

Tarixiy geologiya yerning paydo bo'lishidan hozirgi davrgacha bo'lgan geologik tarixini tiklaydi.

Gidrogeologiya - yer osti suvlari haqidagi fandir; **regional geologiya** esa alohida olingan hududlarning tuzilishi va geologik tarixini o'rganadi.

Geologiyaning kimyo, fizika fanlari bilan aloqasi natijasida **geokimyo, geofizika** fanlari vujudga kelgan.

I BOB

Geologiya fani tarixidan lavhalar

Insonning tabiat bilan aloqasi uning yer yuzida paydo bo'lgan vaqtidan boshlangan deyish mumkin. Chunki, inson har turli ta'sir va xavfdan o'zini himoya qilishda hamda ovqat izlashda beixtiyor xilma-xil toshlarni ishlatishga zarurat sezgan.

Tosh asrining o'zidayoq inson mehnat va ov quroli sifatida qattiq toshlardan foydalangan. Bronza asrida mis va qo'r'oshin, temir asrida esa temirni eritib olishni bilgan. Qadimgi tog' lahimlari insonning o'sha davrdayoq ma'danlarning joylashishi va tarqalishi haqida tushunchaga ega ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi paytda bu lahimlar foydali qazilmalarni topishda izlash belgilari sifatida ishlataladi.

Geologik hodisa va jarayonlarni kuzatish, ularni to'plash va tahlil qilish haqidagi eng birinchi ma'lumotlar eramizdan avvalgi XX va XIX asrlarga borib taqaladi.

Bu davrda Xitoyda "San Xey Din", ya'ni "Tog' va dengizlar haqidagi qadimgi rivoyatlar" degan to'plam tuzilgan. Dastlab uning ayrim qismlari suyak, yog'och va mineral taxtachalarga yozilgan. Unda oltin, kumush, qalay, mis, temir, magnetit, yashma, nefrit kabi jami 17 ta mineral haqida ma'lumot keltiriladi.

Misorda 6000 yil avval piramidalar qurilishida burg'ilash ishlari qo'llaniqani haqida ma'lumotlar bor.

Qadimgi rimliklar zarbli burg'ilashni bilganlar. Xitoyda 2000 yil avval burg'ilash quduqlari yordamida tuzlarga boy er osti suvlari olingan.

Qadimgi Gretsiyada dunyoning tuzilishi va tabiat hodisalari haqida to'g'ri va asosli fikrlarni bildirgan bir qator olimlar etishib chiqdi. Ular Fales (er. av.VII-VI asr), Geraklit (er. av.VI asr), Demokrit (er. av.V-VI asr), Pifagor (er. av.V-asr), Empedokol (er. av.V-asr), Gerodot (er. av.V- asr) bo'lib, ular tabiatdagi hamma hodisa va voqealarni o'ziga xos qonuniyatlarga bog'lab tushuntirganlar.

Grek olimi Arastu (Aristotel) (er. av.III-asr) Yerning shar shaklida ekanligiga Oy tutilganda unga tushgan yerning dumaloq soyasini kuzatib, birinchi isbot keltingan olim hisoblanadi.

Xitoyda esa eramizdan avvalgi III-asrda kompas yaratilgan.



Александр Евгеньевич Ферсман
(1863—1945 г. д.)

O'zbekiston eng qadimgi odamzod o'ziga makon qilgan va tog' sanoati yuqori darajada rivojlangan joylardan biri hisoblanadi. Amudaryoning quyi oqimi qismida eramizdan oldingi III-IV ming yilliklarda tarqalgan madaniyat izlari aniqlangan. Qizilqumda (Bo'kantov, Beltov) mis eritilgan joylar, shlak to'plamlari topilgan. Bronza davrida esa Qarnoq konida (Nurota tog'lari) qalay va chirchiq daryosidan oltin olish yo'lga qo'yilgan.

Eramizdan avvalgi I ming yillik o'talarida Farg'ona va Qurama tog'larida temir eritib olingan. Eramizning I asrda esa Qurama tog'larida kumush, Farg'onada tuz qazib olingan.

O'zbekiston hududida tog'-kon sanoati IX-X asrda kuchli rivojlandi (X asrda Movarounnahrda). XI-XII asrda mo'g'ul bosqinchiligi davrida tog'-kon sanoati rivoji to'xtaydi.

Amir Temur davrida, ya'ni XIY asr oxiri-XY asr boshlarida tog'-kon, irrigatsiya va dehqonchilik ishlari birmuncha yaxshilanadi. Bu davrda qimmatbaho va bezak toshlar, turli qurilish materiallari, ayniqsa marmar, temir, oltingugurt va tuz qazib olish kuchayadi.

XVI-XVII-XVIII-asrlarda konchilik bir xil darajada saqlanib turdi. XIX asr boshlarida Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojanishi tog'-kon sanoatining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.



Хабиб Мухамедович Абулгасев
(1912—1962 г. д.)

Eramizning I-ming yilligida O'zbekistonda Sharqning buyuk alloma-olimlari Muso al-Xorazmiy (780-847y.), Ahmad Farg'oniy (IX asr), Abu Rayhon Beruniy (973-1048y.), Abu Ali Ibn Sino (980-1037y.), Mirzo Ulug'bek (1394-1409y.) yashab o'tdilar.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, maorif va madaniyat bo'limi-YUNESKO tasdiqlagan eng qadimgi kitob hisoblan mish "Avesto"da yer dumaloq shaklda, uni 3 ummon o'rab turadi, deb ta'kidlangan. Bu kitobda yana koinotning dastlabki 4 unsuri-yer, suv, havo va olov ta'riflanadi. "Avesto" kitobini Xorazmda tug'ilib o'sgan Zardusht bir tizimga solgan bo'lib, o'zi ilohiyotchi, shoir va tabiatshunos olim bo'lgan. U hozirgi To'rtko'l shahridan 22 km shimoliy-sharq tomonda joylashgan Xodarkat qishlog'ida tug'ilgan. Uning tug'ilib yashagan davrini rossiyalik olim YA.Zdanovich o'zining "Tayni velikix prorokov" kitobining (2001y.) 83-betida qadimgi mashhur yunon tarixchilari Gerodot (er. av.490-425y.), Platon (er. av.428-347y.), Evdoks (er. av.408-355y.), Pliniy (er. av.23-79y.) payg'ambar Zardusht "miloddan avvalgi 6400-yillarda yashagan" deb yozib ketganlar degan ma'lumotni keltiradi.

Yer to'g'risida keltirilgan dastlabki bunday ma'lumotlar eramizdan avvalgi olti-minginchchi yillarda vatandoshlarimizning tafakkuri naqadar yuksak bo'lganidan darak beradi.

Avestoning ilk qo'lyozmasi 8 mln. 300 ming so'zdan iborat bo'lgan 21 kitobni tashkil qilgan. Ulardan 7 ta kitobda xudolar, koinotning paydo bo'lishi va insoniyat tarixiga oid masalalar; keyingi 7 tasida ibodat, din, xalqlarning yashash tarzi aks ettirilgan. Qolgan 7 tasida tibbiyot, astronomiya, astrologiya, falsafaga doir ma'lumotlar o'r'in olgan.

Abu Rayhon Al-Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida "Avesto" haqida quyidagilarni yozadi: podshoh Doro ibn Doro xazinasida "Avesto" ning 12 ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar (Iskandar Zulqarnayn, eramizdan avvalgi 330 y.) otashxonalarini vayron qilib ularda hizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtida uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtidan beri "Avestonning 5/3 qismi yo'qolib ketdi. Avesto 32 nask (bo'lak, qism) edi."

Bu kitob hozirda ajodolarimiz madaniyati va ma'naviy qadriyatlaridan darak beruvchi, jahon tsivilizatsiyasiga muhim xissa qo'shgan, olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan ona yurtimizning eng qadimgi, eng mo'tabar, eng nodir madaniy va tarixiy yodgorligi sifatida o'rganilmogda.

Qadimgi faylasuf olimlarning e'tiborini yer sharida kechayotgan tabiiy jarayonlar ham o'ziga qaratgan va bu jarayonlar haqida ularning fantastik fikrlari qatorida mantiqiy to'g'ri mulohazalari ham bor edi.

O'rta asrlarda, ayniqsa, Yevropada cherkovning cheksiz hukmronligi davrida faqat Sharq olimlaridagina tabiiy voqealarga bo'lgan to'g'ri dunyoviy qarashlarni uchratamiz. Jahon ilmiy adabiyotlari Sharqning bu davrdagi kashfiyotlarini dunyoning boshqa hududlaridan 500-600 yil avval amalga oshirilganligini xolisona tan oladi.

O'rta asrlarda Sharqda mineralogiya faniga Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar asos solishgan. Ayniqsa, Beruniyning "Kitob al-javohir fi ma'rifat al-javohir" nomli qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plamida Beruniy 300 dan ortiq minerallar va ular turlarining xususiyatlari, qo'llanishi, hosil bo'lishi sharoitlari, rangi, qattiqligi va solishtirma og'irligi to'g'risida ma'lumot beradi.

XVII asrning birinchi yarmida yozilgan "Bahr ul-Asror" ("Sirlar dengizi") asarining muallifi Mahmud ibn Vali ham mineralogiyaning taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi. Bu asarda qimmatbaho metalli va mineralarning sifatini tekshirish usullari haqida ko'p ma'lumotlar keltiriladi.

Eramizning 997 yilida Gurganch (hozirgi Xiva)da Xorazm shohi xalifa Ali ibn Ma'mun tomonidan tashkil etilgan Ma'mun akademiyasida (o'sha davrda "Dorul hikma" deb nomlangan) faoliyat olib borgan Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy kabi buyuk allomalar matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, geodeziya, topografiya, tarix kabi fanlar bilan shug'ullanib, bu fanlarning kelajakda jahon miqiyosida rivojlanishiga zamin yaratdi.

O'rta asrlarda hukm surgan dinning kuchli ta'siri ostida Yevropada ilm-fan uncha rivojlanmadı. O'zining ilmiy dunyoqarashlari bilan chiqqan olimlar ta'qib qilindi. Italiyalik Jordano Bruno 1600 yilda "dunyo cheksiz" degani uchun gulxanda yondirildi.

X asrda Movarounnahr iqtisodiyotida konchilik katta o'rinn tutgan edi. Ohangaron vodiysi kumush-qo'rg'oshin ishlab chiqarish markazi bo'lgan. Farg'ona vodiysida Nurota va Tojikiston tog'larida, O'rakepa va Samarqand atroflarida temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, feruza, Tog'li Badaxshonda yoqut qazib olingan. Farg'onada ko'mir va neft qazib chiqarilgan.

Bu davrdva Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Al-Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy kabi buyuk olimlar ijod qildilar.

Muso al-Xorazmiy (780-850yillar)-sharqning buyuk matematigi, algebra fanining asoschisi. Uning "Falak jadvallari", "Quyosh soatlari haqida risola", geografiya (geografik xaritalar tuzish), tarix va boshqa fanlarga oid ishlari lotin tiliga tarjima qilinib, Sharq va G'arb mamlakatlarida o'rta asr ilmiy tafakkurining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'ssatdi.

Falakshunos (astronom) Ahmad Farg'oniy IX asrda yashagan. Olimning eng mashhur asarlari "Osmon harakatlari haqida kitob" va "Yulduzlar haqidagi fan majmui" beqiyos ahamiyatga egadir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar) fan tarixida qomuschi olim sifatida ma'lum va mashhur. U o'sha zamон fanining deyarli barcha sohalariga bag'ishlangan 150 dan ortiq ilmiy asar yozdi. "Ilmi nujum", "Hindiston",

"Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi asarlari rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan. Beruniy matematika, geografiya, falakiyot, fizika, mineralogiya, tarix bilan shug'ullangan. U o'z zamonasidan bir necha asrga o'zib ketgan edi. Sharqda birinchi bo'lib, yer kurrasining qo'l bola nusxasini-globus



Абу Райхон Беруний
(979—1048 й. ё.)

yaratdi, Kopernikdan 500 yil oldin yerning quyosh atrofida aylanishini zukkolik bilan bashorat qilgan.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yillar) Sharqning ilk o'rta asr buyuk olimi. Birinchi asarini 17 yoshida yozadi. O'z zamona sidagi barcha fanlarga beqiyos hissa qo'shdi. U yulduzlar harakati, turli moddalarning tarkibi va tuzilishini o'rgandi. XI asrdayoq "mikroblar yuqumli kasallik tarqatish xususiyatiga ega" degan g'oyani ilgari surdi. "Tib qonunlari" kitobi Sharq va G'arb tabiblari uchun 6 asr davomida asosiy bilimlar manbai bo'lib keldi.



Абу Али ибн Сино
(980—1037 й. ё.)

Muhammad Tarag'ay-Ulug'bek (1394-1449 yillar). Amir Temurning o'g'li Shohruhning katta o'g'li. Buyuk falakshunos. Samarqandda rasadxona qurdiradi. U uch qavatlari bo'lib, diametri 46 m bo'lgan Quyosh, Oy va yulduzlarni kuzatish uchun ulkan asboblar o'matiladi. Mashhur "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini yozdi.



Rossiyadan **M.V.Lomonosov** (1711-1765 yillar) geologiya va mineraloziya sohasida katta ishlari qildi. U o'sha vaqtgacha geologiya va mineraloziya sohasida to'plangan ma'lumotlarni yig'ib, nazariy jihatdan asosladi va ilmiy darajaga ko'tardi.

Daniyada Nikolaus Steno, Germaniyada A.Ver-ner, Angliyada U.Smitt, Frantsiyada J.Buffen, J.Kyuve, A.Brunyar va boshqalarning katta ishlari tufayli geologiya mustaqil fan sifatida shakllandi.



М. В. Ломоносов
(1711—1765 й. ё.)

1867 yilda Turkiston harbiy yershunoslik bo'limiga asos solindi va uning olimlari tomonidan O'rta Osiyoning birinchi bosh xaritasi tuzildi.

Г. Азрикова
(1491—1555 й. ё.)

XIX asrning ikkinchi yarmida P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy Tyan-Shan tog' tizmalari katta qismining tarkibi va tuzilishi haqida dastlabki qimmatli ma'lumotlarni chop etti.



Иван Васильевич Мушкетов
(1850—1902 й. ё.)

A.P.Fedchenko Farg'ona vodiysining o'simlik dunyosini tatbiq etishda ko'p ishlari qildi.

I.V.Mushketov G.D.Romanovskiy bilan birga 1884 yilda Turkiston o'lkasining birinchi geologik xaritasini tuzdi.

1930-yilning oxirida Rossiyaning Moskva va Leningrad shaharlarida o'zbek mahalliy millat vakillaridan H.M.Abdullaev boshchiligidagi bir guruh iqtidori yoshlar nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab qaytdilar va keyinchalik ular O'zbekistonning mil-

liy geolog kadrlari yadrosini tashkil etdi. Ulardan H.M.Abdullaev Davlat mukofoti laureati, O'zbekiston FA prezidenti lavozimida faoliyat ko'rsatib, milliy geolog kadrlar tayyorlashda, foydali qazilma konlar geologiyasini o'rganishda ulkan ishlari qildi. Uning ko'pgina asarlari, jumladan "Ma'danlarning intruziyalar bilan bog'liqligi", "Daykalar va ma'danlashish", "O'rta Osiyoda magmatizm va ma'danlashish" kabi asarlari yangi foydali qazilma konlarini izlab topishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi sohasida G.O.Mavlonov, N.K.Kenesarin, litologiya sohasida O.M.Akramxo'jaev, V.I.Povrov, petrografiya O.M.Borisov, M.O.Ahmadjonov kabi yirik olimlar O'zbekiston geologiyasining turli tarmoqlarida samarali ishlari qildilar.




Геннадий Данилович Романовский
(1830—1907 й. ё.)

II BOB

Olam va Yer haqida umumiylar 1-§. Olamning tuzilishi

"Olam" deganda atrofimizdagi hamma narsani - planetalarning, yuduqlarning, tumanliklarning, asteroidlarning, meteoritlarning va kometalarning to'plamini tushunamiz. "Olam" so'zining sinonimlari ko'p bo'lib, "koinot", "fazo", "samo", "kosmos" deb ham ataladi.

Yulduzlar - o'zidan qizigan nur taratuvchi issiq samoviy jismlardir. Ular Olamning asosiy jinslari hisoblanadi. Yulduzlardan taralayotgan yorug'lik nuri ularda kechadigan yadroviy reaksiya jarayonida vodorodning geliyga aylanishida hosil bo'ladi.



1-rasm. Galaktika turlari: a-spiralsimon; b-sharsimon; v-shaksiz
(A.M.Gorbachev bo'yicha).

Yulduzlar to'plamiga galaktika deyiladi (1-rasm). Har bir galaktikada yuz milliardlab yulduz bor. Cheksiz Olamda esa bunday galaktikalar soni yuzlab milliardlarni tashkil etadi va ular orasidagi masofa yorug'lik yili 9,5 trillion km ni tashkil etadi. Eng yakin yulduzlar orasidagi masofa 7-10 yorug'lik yiliga teng. Koinotni o'rganuvchi radioteleskoplar yordamida bizdan million, hatto milliard yorug'lik yiliga teng masofada joylashgan yulduzlar aniklangan. Bizning sayyoramiz - Yer boshqa planetalar qatori Quyosh deb ataluvchi yulduz atrofida aylanadi. Yorug'lik nuri Quyoshdan bizgacha 8 minutda etib keladi.

Bizga eng yaqin yulduzdan nur 4 yilda etib keladi. "Katta ayiq" turkumiga kiruvchi yulduzlarning bizga eng yaqinidan esa nur 70 yilda etib keladi.

Bizning Quyosh tizimimiz bosh xarf bilan yoziladigan Galaktika yulduzlar turkumiga kiradi. Galaktikalar orasidagi masofa shu qadar uzoqliki, uni yorug'lik nuri 1 million yilda bosib o'tadi.

2-§. Quyosh tizimi

Quyosh tizimiga Quyoshdan tashqari uning atrofida aylanuvchi to'qqizta sayyora va ularning yo'ldoshlari, asteroidlar, kometalar va meteroitlar kiradi. Uning o'tasida Quyosh turadi. Quyosh tizimining diametri 12 mlrd. km ni tashkil etidi.

Quyosh va umuman barcha yulduzlar-harorati bir necha ming darajaga boradigan gazsimon samoviy jismlardir.

Quyosh harorati uning yuzasida 6 ming daraja, yadrosida 20 mln.darajani tashkil qiladi. Zichligi $1,41\text{ g/sm}^3$; o'z o'qi atrofida 30 sutkada bir marta, Galaktika markazi atrofida 200 mln yilda bir marta 230 km/s tezlik bilan harakatlanadi. Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofa 149 mln.km.

Quyoshda har 11 yilda bir marta davriy ravishda kuchli portlashlar bo'lib turadi. Bu vaqtida atrofga plazma va gazlar otiladi. Bu "Quyosh faolligi" deb ataladi. Ushbu jarayon Yerda magnit bo'ronlari, radiatsiyaning oshishi bilan sezilib, geologik va biologik jarayonlarga ta'sir etadi.


"Quyoshning yoshi 6-6,5 mlrd. yil" deb hisoblanadi. Sayyoralar fizik xossasi, kimyoviy tarkibi va o'lchamlari bo'yicha ikki guruuhga ajraladi:

A. Yersimon sayyoralar (Merkuriy, Venera, Yer va Mars).

B. Gigant sayyoralar (Yupiter, Saturn, Uran, Neptun va Pluton).

Yersimon sayyoralar zichligi yuqori, kichik massa va o'ziga xos ixcham atmosferaga ega (2-rasm).

Gigant sayyoralar uchun esa kichik zichlik, katta massa va ulkan atmosfera xos (3-rasm).



2-rasm. Quyosh tizimidagi sayyoralarining joylashishi
(A.M.Gorbachev bo'yicha).

Asteroidlar Mars va Yupiter sayyoralarini oralig'ida joylashgan qattik samoviy jismlar bo'lib, ularning o'lchamlari bir necha km dan bir necha 100 km gacha, soni esa bir necha 10 ming km ni tashkil qiladi. Ulardan eng kattasi Tsereraning diametri 800 km. ularning aylanish orbitasi juda o'zgaruvchan bo'lib, goho sayyoralar orbitasi ichiga kirishi mumkin. Masalan, ikar asteroidi ba'zi yillari Yerga juda yaqin masofadan (7 mln km) o'tadi. Asteroidlar "kichik sayyoralar" deb ham ataladi.

3-rasm. Quyosh va sayyoralarini taqqoslash (A.M.Gorbachev bo'yicha).



Kometalar gazsimon samoviy jismlar bo'lib, "dumli yulduzlar" deb ham ataladi. Ba'zan dumining uzunligi bir necha 10 mln. km ga etadigan kometalar paydo bo'ladi. Ular Quyosh atrofida o'ta cho'zilgan ellips orbita bo'ylab aylanadi. Quyoshga yaqin kelganda o'zidan gazlarni chiqaradi va yorug' to'plamni hosil qiladi. Bu kometalar dumi hisoblanadi. Quyoshdan uzoqlashgan sari dumi kichrayib yo'q bo'lib ketadi.

Asteroidlar o'z orbitasi bo'ylab harakatlanganda bir-biri bilan to'qnashadi va mayda bo'laklarga bo'linib ketadi. Ularning bir qismi Yerning tortish kuchi doirasiga kirib uning yuzasiga tushadi. Ular "meteoritlar" deb ataladi. Bir qismi atmosferada (130-150 km balandlikda) qizib yonib ketadi. Ularning og'irligi grammdan yuzlab tonnagacha tashkil qiladi. Bir yilda yer yuziga minglab meteoritlar tushadi. Tarkibi bo'yicha meteoritlar temirli, toshli va temir-toshli bo'ladi. Meteoritlarning o'ziga xos belgisi - ularning yuzasi kuygan po'st bilan qoplangan bo'ladi.

3-§. Olamning paydo bo'lishi haqidagi gipotezalar

Quyosh tizimining paydo bo'lishi haqida turli davrlarda olimlar o'zlarining turli gipotezalarini (gipoteza- to'liq isbotlanmagan yoki tasdiklanmagan fikr, faraz) bayon qilganlar. Shunday gipotezalardan birini 1755 yilda nemis olimi I.Kant e'lon qildi. Uning fikricha, Quyosh va sayyoralar gaz va changdan iborat tumanlikdan iborat bo'lgan. Tortish kuchi ta'sirida zarrachalar o'zaro to'planib, avval Quyosh, so'ng uning atrofida sayyoralar hosil bo'lgan. Sayyoralarining birlamchi holati issiq bo'lgan. Kant gipotezasi Quyosh tizimi paydo bo'lishining ayrim konuniyatlarini tushuntirib bersa xam kamchiliklardan holi emas edi. Uning fikricha, tumanlik avval harakatsiz betartib holatda bo'lgan va zarralar orasidagi o'zaro tortishish kuchi hisobiga harakatga kelgan.


1796 yilda frantsuz matematigi Laplas gipotezasi e'lon qilinadi. Unga ko'ra Quyosh va sayyoralarida hosil bo'lgan tumanlik avval issik holatda bo'lgan. Sovigan sari siqilish ro'y berib, buning hisobiga aylanish tezligi ortgan. Vaqt o'tishi bilan tumanlik disk

shaklini oladi va undan sayyoralar soniga teng gazli halqlar ajraladi. Xalqalarning quyuqlashishi natijasida sayyoralar hosil bulgan. Quyosh esa tumanlikning markazi qismida shakllangan.

Kant va Laplas gipotezalari ko'p yillar davomida olimlar orasida e'tiborli bo'lib keldi va Yer to'g'risidagi bilimlarning asosi bo'lib xizmat qildi. Shunga qaramay, gipotezalarning kamchiligi yuk emas edi. Hozirgi zamon fizikasi gazli xalqalarning uzoq vaqt tabiatda turg'un holatda bo'lishini tasdiklamaydi, ya'ni gazlar tez tarqab ketadi.

1943 yilda rus olimi, akademik O. Yu. Shmidtning kosmogenik gipotezasi e'lon kilindi. Uning fikricha, Quyosh sayyoralar paydo bo'lishidan avval mavjud bo'lgan. U o'z harakat yo'lida gaz, changsimon tumanlikka duch kelib, uni o'z atrofida aylanishga majbur qilgan (4-rasm). Aylanib sikilish natijasida tumanlik disk ko'rinishiga keladi va ulardan sayyoralar va ularning yo'ldoshlari paydo bo'ladi. O.Yu. Shmidt gipotezasining asosiy kamchiligi - Quyoshning tumanlikni o'ziga tortib olishi va sayyoralarning paydo bo'lishini Quyoshdan alohida olib tushuntirishi edi.

1950 yilda rus olimi V.T. Fesenkov gipotezasi paydo bo'ldi. Fesenkov o'z gipotezasida yulduzlar bilan Quyosh tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishini bir-biri bilan bog'lab ko'rib chiqadi. U "Quyosh va sayyoralar o'zining hozirgi massasidan 8-10 marta ortik bo'lgan gaz-changli tumanlikdan paydo bo'lgan" deb hisoblaydi. Sayyoralar ma'lum tartibda: avval Pluton, keyin Neptun va h.k. gigant sayyoralar o'zining birlamchi gazsimon holatini hozirgacha saqlab qolgan. Bunga sabab: ularning ulkan va juda sovuq atmosferasi hisoblanadi. Yersimon sayyoralar esa Quyoshga yaqin bo'lgani uchun, o'z tarkibini o'zgartirib, kuchli o'zgargan deb tushuntiriladi.



4-rasm. Akademik O.Yu. Shmidtning gipotezasi bo'yicha Quyosh va sayyoralarning paydo bo'lishi bosqichlari (A.M. Gorbachev bo'yicha).

4-§. Yerning shakli, o'lchamlari va harakati

Qadimda odamlar o'zlarining yashash sharoitlaridan kelib chiqib Yer haqida har xil afsonalar to'qiganlar. Shimol xalklari "Yerni uchta kit ko'tarib turadi" deb xayol qilganlar. Hindlar esa "Yer uchta fil ustida, fillarni dengiz toshbaqasi ko'tarib turadi" deb o'ylaganlar. Markaziy Osiyoliklar afsonasida Yerni baliq ustida turgan ho'kiz shoxlarida ko'tarib turadi", deb o'ylaganlar.

Yerning shakli, o'lchamlari va harakati to'g'risida eng birinchi tasavvurda bo'lgan qadimgi grek faylasuflari (Pifagor, Arastu) "Yerning shakli shar ko'rinishida" deb taxmin qilganlar. Arastu (eramizdan avval 384-322 yillar) oy tutilganda unga Yerning doira shaklidagi soyasi tushganligini, qirg'oqqa yaqinlashib kelayotgan kemaning "avval machtasi, so'ng kemaning o'zi ko'ringanini kuzatib", Yer shar shakliga ega degan muhim xulosa chiqargan.

X asrda Markaziy Osiyolik buyuk olim Abu Rayhon Beruniy o'zining arab tilida yozgan asarlarida Yerning dumaloqligiga ishonish bilan birga, uning kattaligini ham birinchilar qatorida o'lchaydi, Yerning qo'l bola nusxasi bo'lmish globusni yaratadi. Avval Beruniy, so'ngra Mahmud Qoshg'ariy Yer yuzining chizma xaritasini yaratdilar.

XVI asrda Magellan Yer aylanasi bo'ylab sayohat qilib, uning shar shaklida ekanligini isbot qildi.

XVI-XVII asrlarda Yerning o'lchamlarini aniq o'lchash usullari (transgulyatsiya) yaratilgandan so'ng ekvatordag'i va qutblardagi radiuslar bir xil emasligi ma'lum bo'ldi va "Yerning shakli - ellipsoid shaklda" deb xulosa kilindi. 1924 yilda xalqaro bitim asosida sayyoramiz shakli ellipsoid shaklda deb e'tirof etildi.

Ammo fanning rivojlanishi Yerimizning shakli uch o'qli ellipsoiddan ham murakkabrok ekanligini ko'rsatdi. Yerning hozirgi paytdagi shakli o'ziga xos figura-geoid (geo-er, id-o'xhash, simon) shaklidadir. Geoidning yuzasi ellipsoidning yuzasiga yaqin bo'lib, undan u yoki bu tomoniga 100 m dan farq qiladi. Eng so'nggi hisoblar Yerning o'lchamlari quydagicha ekanligini ko'rsatdi: ekvatordag'i radiusi 6378,245 km; qutblardagi radiusi 6356,863 km; yuzasi 510 mln. km²; hajmi 10^9 km³; og'irligi 6×10^{21} t.

Yer Quyosh tizimidagi boshqa sayyoralar kabi murakkab xarakat qiladi. U o'z o'qi atrofida bir sutkada bir marta (aniqrog'i - 23 soat 56 min. 4 s) aylanadi. O'rtacha tezligi 29,76 km/s. Keyingi yillardagi kuzatishlar shuni ko'rsatadi, Yerning aylanishi har 100 yilda 0,001 sek.ga sekinlashmokda. Oxirgi 600 mln. yilda sutka 1,5 soatga uzaygan. Yer Quyosh atrofida 365 sutkada bir marta aylanib chiqadi. Yerning Quyosh atrofida aylanishi va orbitasining o'z o'qiga nisbatan 66,5° qiyaligi hisobiga fasllar almashadi va kun bilan tun uzunligi o'zgarib turadi.

5-§. Yerning fizik xossalari

Yerning fizik xossalariiga og'irlik kuchi, zichligi, bosimi, magnit, issiqlik, elektr kabi xususiyatlari kiradi.

Og'irlik kuchi. Sayyoramiz yuzasidagi barcha jism va jonzotlar Yerning tortish kuchini his etadi. Inson oyog'i yerdan uzilib ketmaydi. Yerning tortish kuchi hisobiga Oy Yer atrofida, Yer esa Quyosh atrofida aylanadi. Yerning tortish kuchi va markazdan qochirma kuchlar o'zaro ta'siri natijasida og'irlik kuchi paydo bo'ladi. Og'irlik kuchi yuqoriga va Yer ichkarisiga kirgan sayin kamayib boradi. Yer yuzasida og'irlik kuchi qutblarga tomon ortib boradi. Bunga sabab - markazdan qochirma kuchlar va Yerning radiusi bu yo'nalishda kamayib boradi. Yer po'stida moddalarning bir tekis tarqalmaganligi sababli og'irlik kuchining nazariy hisoblangan o'rtacha qiymati ham Yer yuzasida turlichadir va bu holat gravitatsion ("gravitas"- grekcha og'irlik) anomalija ("anomaliya"-oddiy holatdan chekinish) deb ataladi.

Yerning og'irlik kuchini o'rganish uning o'rtacha zichligini aniqlashga yordam beradi. U $5,5 \text{ g/sm}^3$ ga teng, Yer po'stining o'rtacha zichligi $2,7-2,8 \text{ g/sm}^3$. Bosim Yer markazida $3,5 \times 10^{11} \text{ Pa}$ ni tashkil etadi.

Magnit maydoni. Ayrim element va minerallar kabi sayyoramiz ham magnit xossasiga ega va uning "magnitosfera" deb ataluvchi qobig'ining chegarasi Quyoshga qaragan qismida uning radiusining o'n barobari miqdorida, qarama-qarshi tomonida esa o'ttiz va undan ortiq masofadan o'tadi. Quyosh aktivligi vaqtida undan kelayotgan nurlanish Yerda magnit bo'ronlarini hosil qiladi,

«Shimol yog'dusi» deb ataluvchi hodisani keltirib chiqaradi.

Har qanday magnit kabi Yer magnit qutblariga ega bo'lib, ular geografik qutblarga mos kelmaydi. Kompas ixtiro qilingandan so'ng (XII asr) Yerning magnit xususiyatlari keyinroq o'rganiladigan bo'ldi.

Magnitilik xossasi tarkibi-temir, titan, nikel, kobalt kabi elementlardan tashkil topgan gematit (Fe_2O_3), magnetit ($FeFe_3O_4$), ilmenit($FeTiO_3$) kabi minerallarga ham xosdir. Ularning er po'stidagi yirik to'plamlari magnit anomaliyalarini hosit qiladi. Temir konlarini iziashda bunday anomaliyalar magnitorazvedka usuli bilan o'rganiladi.

Yerning issiqligi. Yer Quyosh tizimidagi boshqa sayyoralar kabi sovuq samoviy jism hisoblanadi. Uning yuzasidagi harorat asosan tashqaridan kelayotgan issiqlikka bog'liq. Bu issiqliknинг 95% Quyoshdan keladi va qolgan 5% Yerning chuqur qa'ridan ko'tariladi. Yer yuzasining o'rtacha harorati $+15^{\circ}S$. Issiqlik ichkari tomon oshib boradi. O'rtacha har 33 metrda bir gradusga ortadi. Bu masofa "geotermik pog'ona" deb ataladi. "Yerning ichki issiqligining asosiy manbai radioaktiv elementlarning parchalanishi" deb taxmin qilinadi.

Sayyoramiz elektr xossasiga ham ega bo'lib, u Yerda kechadigan fizik-kimyoiy jarayonlar bilan, ayniqsa Yerning magnit maydoni bilan chambarchas bog'liq. Tog' jinslarining elektr o'tkazuvchanlik va elektr qarshiligini o'rganish orqali foydali qazilma konlarini izlab topish mumkin bo'ladi.

Yerning elektr xossalari geofizikaning elektrorazvedka sohasi o'rganadi.

6-§. Yerning ichki qobiqlari

Yer ichkarisida joylashgan tog' jinslaridan seysmik to'lqinlarning turli tezlikda o'tishiga qarab Yer asosan uch qobiqqa bo'linadi: er po'sti, mantiya va yadro. Bundan tashkari seysmik to'lqinlar qobiqlarning qatlamlari tuzilishini ham ko'rsatadi va A, V, S, D, E, F, G deb nomlanuvchi ettita qatlam ajratiladi: yadroda uchta (E-2900-4980 km; F-4980-5120-km; G-5120-6370 km), mantiyada uchta (V-33-Zkm; S-300-1000; D-1000-2900km). Eng yuqori qobiq (yer po'sti) mantiyadan "Moxorovichich chegarasi" deb ataluvchi yuza bilan ajralib turadi (qisqacha- "Moxo").

Yer po'sti. Yer po'sti to'g'risida barcha ma'lumotlar 8-§ da bayon etilgan.

Mantiya. Bu qobiq Moxo chegarasidan pastda joylashgan bo'lib, Yer yuzasidan 2900 km ga boradi. Yuqori mantiyada (V qatlam) 200-250 km intervalda seysmik to'lqinlar tezligi oshmay, kamayadi va bu zona "astenosfera" ("astenos" - yumshoq, «sferos»-qobiq) deb ataladi. Bu erda vulkanlarning boshlang'ich o'choqlari joylashgan va yer po'stida tektonik harakatlarni keltirib chiqaruvchi geologik jarayonlar sodir bo'ladi.

O'rta mantiya 300-1000 km chuqurlikda joylashgan bo'lib, bu yerda seysmik to'lqinlar tezligi oshadi.

Quyi mantiya 1000-2900km oraliqni egallaydi va seysmik to'lqinlar tezligi deyarli o'zgarmaydi.

Mantiyada kremniy, alyuminiiyning miqdori kamayadi va magniy, temir elementlari miqdori oshadi.

Yadro ikki qatlam (E va G) va orasidagi oraliq zona (F-4980-5120km) dan tashkil topgan. E qatlam – "tashqi yadro", G qatlam – "ichki yadro" deb ataladi. Tashqi yadroda seysmik to'lqin tezligi keskin kamayadi va bu esa moddaning suyuq holatda ekanligidan darak beradi; ichki yadroda esa to'lqin tezligi oshadi. Demak, modda qattiq holatda ekanligidan dalolat beradi. Ko'pchilik olimlar fikricha, yadro temir va nikeldan iborat va tarkibi bo'yicha meteoritlarga o'xshash deb hisoblanadi.

7-§. Yerning tashqi qobiqlari

Yerning tashqi qobiqlari atmosfera, gidrosfera va biosferadan iborat bo'lib, ular yer po'sti shakllanishida muhim o'rinni egallaydi. Bu qobiqlar bir-biri bilan doimo o'zaro bog'liqlikda bo'lib, Yerning qattiq qobig'i bilan materiya va energiya almashinuvida faol ishtirok etadi.

Atmosfera – Yerning gazsimon havo qatlamidir. Atmosfera massasining ko'pgina qismi (90%) 16 km li oraliqda joylashgan. Atmosfera uch qismdan: troposfera, stratosfera va ionosferadan tashkil topgan.

Troposfera – atmosferaning asosiy qismini (80%) tashkil etib,

qalinligi 8-12 km ga, ekvatori esa 17 km ga teng; havo harorati bir xilda emas.

Stratosfera – 50-55 km gacha bo'lib, harorati yuqori, uning tarkibida tirik organizmlar faoliyatida o'ta muhim o'rinni egallaydigan ozon qatlami (25-30 km) joylashgan.

Ionomosfera, termosfera, ekzosferalarga bo'linadi. Harorati juda yuqori (2000°S) bo'lib, unda havo ultrabinafsha nurlar ta'sirida ionlashgan holatdadir. Atmosferaning yuqori chegarasi 1300 km gacha boradi. Undan yuqori qismining tarkibi sayyorlarlarbo shqliq tarkibiga yaqindir.

Atmosferaning asosiy qismi azot, kislород, argon, karbonat angidrid gazlaridan tashkil topib, ular quruq havoning 99,9% ga teng.

Yer yuzasidagi jarayonlarga katta ta'sir etadigan atmosferaning tarkibiy qismini tashkil etuvchi komponenti namlik hisoblanadi.

Atmosferadagi havo massasi doimo harakatda bo'lib, Yer yuzasining turli qismlaridagi haroratning tekis taqsimlanmasligiga sababchi bo'ladi. Atmosferaning troposfera qobig'ida kechadigan ko'pgina fizik hodisalar ob-havo va iqlimni yuzaga keltiradi.

Ob-havo – atmosferaning fizik holati bo'lib, shamol, harorat, bosim va namlikning o'zgarishi bilan belgilanadi. Bu xususiyatlarning ma'lum tabiiy-geografik sharoitdagi ko'p yillik holati iqlimni tashkil etadi.

Iqlim yuqori namgarchilikka va haroratga ega bo'lgan gumid (tropiklar), yuqori haroratli, quruq arid (cho'l va sahrolar) va sovuq haroratli, nam rival (baland tog'liklar va qutb zonalari) mintaqalardan tashkil topgan.

Gidrosfera. Bu qobiqning yuqori chegarasi ochiq holatdagi suv xavzalarining sathi bilan belgilanadi. Gidrosfera tarkibida turli fizik xususiyatni namoyon qiluvchi tabiiy suvlarning uchta turi mavjud. Bular okean va dengiz suvlari, quruqlik suvlari hamda muzliklardir. Gidrosferaning umumiyl massasi 1644×10^{15} t, shundan okean suvlari 1370 mln. km^3 (86,5%), quruqlik suvlari $0,5$ mln. km^3 , quruqlikdagi muzlar 22 mln. km^3 , er osti suvlari esa 196 mln. km^3 ni tashkil etadi.

Atmosferaga nisbatan gidrosferadagi gorizontai tabaqalanish

aniq chegaraga ega, ya'ni quruqlik suvlari asosan chuchuk, okean va dengiz suvlari esa sho'r suvlari hisoblanadi. Okean suvlarning har litriga 35 g tuz to'g'ri keladi.

Quruqlik va dengiz suvlari kimyoiy tarkibiga ko'ra keskin farqlanadi: dengiz suvlarida $\text{Na}^+ > \text{Mg}^{2+} > \text{Ca}^{2+}$; $\text{Cl}^- > \text{SO}_4^{2-} > \text{HCO}_3^-$ quruqlik suvlarda $\text{Mg}^{2+} < \text{Na}^+ < \text{Ca}^{2+}$; $\text{Cl}^- < \text{SO}_4^{2-} < \text{HCO}_3^-$

Ko'riniib turibdiki, bu suvlarda asosiy ionlar miqdori teskari proportional holatdadir.

Yerning gidrosfera qobig'idagi suvlari Quyosh radiatsiyasi ta'sirida doimiy harakatda bo'lib, uzlusiz aylanma harakat qiladi.

Aylanma harakatdagi suvlarni quyidagi bo'limlarga ajratish mumkin: atmosferadagi, okeandagi, litosferadagi (qattiq qobiqdagi), biosfera (tirik organizm tarkibidagi) va maishiyl-xo'jalik suvlari.

Atmosfera kabi gidrosfera Yerdagi murakkab jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi.

Biosfera – Yerning organik hayot rivojlangan qismini birlashtiruvchi qobiqdir.

Biosfera gidrosferani to'liq, litosferaning yuqori qismini va atmosferaning quyi qismini qamrab oladi.

Yerdagi tirik moddaning massasi juda kam ($2,4 \times 10^{12}$ t) bo'lsada, atrof muhitga juda faol ta'sir ko'rsatadi.

Tirik organizmlarning (biosfera) yana bir asosiy xususiyati shundan iboratki, u har yili $3,65 \times 10^{11}$ t uglerodni va $1,5 \times 10^{11}$ t sunvi o'zlashtirib, 2266 mld. tonna erkin kislород ajratib chiqaradi. Bunda Dunyo okeanidagi biomassa atmosferadagi erkin kislорodning asosiy generatori hisoblanadi.

III BOB

Yer po'sti

8-§. Yer po'stining tuzilishi

Yer po'sti planetamizning eng yuqori qattiq qobig'ini tashkil etadi. Uning qalinligi okean ostida 5-10km, quruqlikda 20-75 km ni tashkil etadi.

Yer po'stini geofizik usullar bilan o'rganish natijalariga ko'ra uch qatlamga bo'lish qabul qilingan: cho'kindi, granit va bazalt. Quruqlik ostida uchala qatlamlar mavjud; okean ostida esa faqat cho'kindi va bazalt qatlamlar mavjud bo'lib, granit qatلامи yo'q, cho'kindi qatlam bo'shoq va tsementlashgan yotqiziqlardan tashkil topgan bo'lib, uning qalinligi bir necha metr dan 5-10 km gacha boradi. Ikkinci granit qatlam zich, kristall ko'rinishdagi (magmatik va metamorfik) jinslardan tuzilgan bo'lib, tarkibi va fizik xossalari bo'yicha granitlarga yaqin turadi. Shuning uchun shartli ravishda "granit" deb nomlangan. Bu qatlam okeanlar ostida yo'q. Qalinligi 20-40 km.

"Granit qatlamlardan pastda bazalt qatlam joylashgan" deb taxmin qilinadi. chunki tarkibi va fizik xususiyatlari bilan bazalt jinsiga yaqin turadi. Quruqlik ostida bu qatlamning qalinligi 15-20 km ga etadi. Granit va bazalt qatlamlar orasidagi chegara seysmik ma'lumotlar asosida aniqlangan bo'lib, u "Konrad Chegarasi" deb ataladi.

Yer po'sti yuqori qismining tarkibi va tuzilishi haqida burg'ilash quduqlari, tog' iahimlari va ochilmalardan olingan namunalar yordamida ma'lumot olish mumkin. Uning chuqur qismlari haqida faqat geofizik usullar, ayniqsa seysmorazvedka yordamida fikr yuritish mumkin.

Yer po'stining taxminan 13 km gacha bo'lgan qismida D.I.Mendeleev davriy jadvalining 89 elementi aniqlangan. Qolgan elementlar ma'lum emas.

1889 yilda amerikalik olim F.U.Klark eng ko'p tarqalgan kimyoviy elementlar uchun litosferaning o'ttacha kimyoviy tarkibini

hisoblab chiqdi. Rus olimi A.E. Fersman elementlarning yer po'stidagi yoki biror bir tizimdag'i (yer shari, quyosh atmosferasi va boshqa) foizlardagi o'ttacha miqdorini "kimyoviy elementining klarki" deb atashni taklif etgan. Klark o'chovi elementlarning geokimyoviy tomonlarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Quyida yer po'stida ko'p klarkka ega bo'lgan kimyoviy elementlar keltiriladi.

1-jadval

Kislород	47,00	Natriy	2,50
Kremniy	39,50	Kaliy	2,50
Alyuminiy	8,05	Magniy	1,87
Temir	4,65	Boshqa elementlar	0,93
Kaltsiy	2,96		

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kremniy va kislород yer po'stida eng ko'p tarqalgan elementlar hisoblanadi. Shuning uchun ham ular eng ko'p tarqalgan mineralarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

9-§. Minerallar

"Minerallar" deb bir yoki bir necha elementlarning tabiiy birikmasiga aytildi. Minerallar faqat bitta elementdan (oltingugurt, oltin, platina) yoki bir necha elementdan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Minerallarni mineralogiya fani o'rganadi.

Mineralogiya - «minera»-ma'dan, javohir va "logos"-bilim, ta'llimot so'zlaridan olingan bo'lib, minerallarning tabiiy sharoitda paydo bo'lishi, tarkibi, o'zgarishi va ularni aniqlash usullari to'g'risidagi fandir.

Minerallar tabiatda qattik (olmos, kvarts, yoqut, feruza va boshqalar), suyuq (suv, neft, sof simob) va gaz (metan, etan, propan va h.k) holda uchraydi va turli geologik jarayonlarda hosil bo'ladi. Bunday jarayonlarga "magma" deb ataluvchi, yerning chuqur qismidan (200-250 m) ko'tarilib, yer po'sti ichkarisida kristallanib va yer yuzasiga otilib chiqib sovib qotadigan, qizigan (1500° gacha) xamirsimon massanining faoliyati hamda undan ajralib

chiqqan, elementlarga boy eritmalar va gazlar bilan bog'liq jarayonlar kiradi.

Bundan tashqari minerallar dengiz va okean suvlaridagi elementlarning birikib cho'kmaga tushishi (osh tuzi-galit, gips va boshqalar) yoki o'simlik va hayvonlar faoliyati natijasida ham hosil bo'ladi (qahrabo, marvarid, neft va h.k.).

Har bir mineral o'z nomiga ega. Ularga nom minerallarni topib, uni o'rgangan olim tomonidan qo'yiladi. Mineral nomiga davlat, millat, viloyat, tuman, olim, kosmonavt (avitsennit, berunit, uzbekit, turanit, sho'rsuit, gagarinit va h.k.) nomi qo'yilishi mumkin.

Hozirgi vaqtida fanga 3000 dan ortiq mineral ma'lum bo'lib, ulardan 450 yaqini tabiatda keng tarqalgan, qolganlari kam uchraydi.

Mineral hosil qiluvchi elementlar ichida O (kisorod) birinchi o'rinda turadi. Undan tashqari mineral hosil qiluvchi elementlar quyidagilar hisoblanadi: N (vodorod), Si (kremniy), Al (alyuminiy), Fe (temir), Sa (kaltsiy), Mg (magniy), Na (natriy), K (kaliy), Ti (titaniy), S (uglerod), Mp (marganets), R (fosfor), S (oltingurgut), Su (mis), Rb (qo'rg'oshin). Qo'yidagilar oz miqdorda minerallarni xosil qiladi: Nb (niobiy), Ta (tantal), Ve (berilliyl), Ni (nikel), So (kobalt). Mineral hosil qilmaydigan, lekin minerallarning kristall panjarasida joylashgan elementlar ham bor. Ular Rb (rubidiy), Re (reniy) kabi elementlardir.

Minerallarning inson hayotidagi ahamiyati benihoyat ulkandir. Xalk xo'jaligining mineral yoki undan tayyorlangan buyum ishlatalmagan biror-bir sohasi yo'q. Masalan, magnetit va gematitdan cho'yan va po'lat olinadi, fosforit va apatitlar qishloq xo'jaligida o'g'it sifatida, olmos texnikada va zargarlikda, feruza, yoqut zargarlikda va h.k.da ishlataladi.

Minerallar morfologiysi («morfo»- qiyofa). Minerallarning tashqi qiyofasi va shakli turli-tuman bo'lib, ular alohida kristallar ("kristallyos"- muz), o'simtalar, donador, yersimon massa shaklda bo'lishi mumkin.

Kristallar oddiy sharoitda ko'p yoqli geometrik shaklga ega bo'lgan tabiiy qattiq hosiladir (5-rasm,b). Agar bir nechta minerallar

asosi bir bo'lib, turli tomonga qarab o'sgan bo'lsa "druza" deb ataladi (5-rasm,a).

Dendritlar («dendron»-grekcha buta, shoh) tog' jinslarining yupqa yoriqlariga singib ketgan mis, kumush, marganets kabi elementlarning eritmalarini hisobidan shakllanadi.

Konkretsiyalar - sharsimon yoki tuxumsimon shakllar bo'lib, ularning ko'ndalang kesimi radial nurli ko'rinishga ega bo'ladi (5-rasm,g).


Sekretsiyalar konkretsiyalarga o'xshash bo'lib, faqat kristallarning o'sishi markazi tomon yo'nalgan bo'ladi.

Oltinlar - mayda moshsimon donachalar to'plamidan iborat.

Stalaktit va stalagmitlar er osti g'orlari shipidan pastga (stalagtit) kolloid eritmalarining oqishidan va ularning g'or tubiga tushayotgan tomchilaridan (stalagmit) shakllanadi (5-rasm,v).



a) Kvarts druzalari



b) Osh tuzi kristallari



v) Stalaktitlar



g) Konkretsiya

5-rasm. Minerallar morfologiysi (Sh.Shorahmedov bo'yicha).

Minerallarning fizik xossalari. Minerallarni aniqlash va xalq xo'jaligida ishlatalishda ularning fizik xossalari muhim rol o'yaydi va ularga rangi, yaltiroqligi, shaffofligi, qattiqligi, solishtirma og'irligi, ularish yuzasi, chizig'ining rangi, magnitiligi, mazasi, xlorid kislotaga (10% li NS1) aloqasi kabi xossalari kiradi. Minerallarning fizik xossalari ularning ichki va tashqi tuzilishi bilan bog'likdir.

Minerallar tabiatda mavjud bo'lgan barcha ranglarda va ularning aralashrnasidan iborat ranglarda bo'lishi mumkin.

Yaltiroq metalsimon, shishasimon, shoyisimon, sadafsimon, olmossimon va xira bo'lishi mumkin.

"Minerallar qattiqligi" deb ularning tashqi mexanik ta'sirga qarshiligiga aytildi. Qattiqlik dala sharoitida Moos shkalasi bo'yicha aniqlanadi.

Mos shkalasiga qattiqligi turicha bo'lgan 10 ta etalon mineral kiritilgan bo'lib, undagi har bir mineral o'zidan oldingi mineralni tiryaydi. Dala sharoitida etalon minerallar o'rniga ayrim buyumlardan foydalanish mumkin. Masalan, tironq 2-2,5 gacha, mis tanga-3, mix-4, shisha-5, kvarts minerali-7 gacha tiryaydi.

"Ulanish yuzasi" yoki "qovushqoqlik" deb minerallarning ma'lum yo'nalishlari bo'yicha tekis yuzalar hosil qilib ajralishiga aytildi. Qovushqoqlik juda aniq, aniq, noaniq va yo'q bo'lismumkin.

Minerallni aniqlashda ishonchli hisoblanadigan xossasi uning diagnostik ("diagnosio"-aniqlash) belgisi deyladi. Masalan, simobning minerali kinovar uchun qizit rang, oltingugurt uchun sariq rang, muskovit va biotit uchun yupqa varaqsimon qovushqoqlik diagnostik belgi hisoblanadi.

Minerallarning tasnifi (klassifikatsiyasi). Minerallar asosan kimyoviy tarkibiga ko'ra tasniflanadi va unga asosan quyidagi sinflarga ajratiladi:

1. Sof elementlar: oltin, kumush, platina, mis, grafit, oltingugurt, olmos.

2. Sul'fidlar: xalkozin, galenit, sfalerit, kinovar, antimonit, pirrotin, realgar, auripigment, molibdenit, pirrotin, xalkopirit, bornit, pirit, arsenopirit.

3. Galoidlar: flyuorit, galit, silvin, karnalit, bishofit.

4. Oksidlar va gidrooksidlar: kuprit, korund, gematit, rutil, kassiterit, pirolyuzit, kvarts, magnetit, xromit, ilmenit, kolumbit, tantalit, boksit, limonit, uraninit.

5. Silikatlar: olivin, granatlar, tsirkon, sfen, topaz, disten, vezuvian, epidot, tsoizit, berill, turmalin, enstanit, diopsid, avgit, egirin, vollastonit, radonit, aktinolit, tremolit, shox aldamchisi, talk, xrizotil-asbest, muskovit, flogopit, biotit, kaolin, xrizokolla, plagioklazlar, kaliyli dala shpatlari, nefelin, lazurit.

6. Karbonatlar: kaltsit, magnezit, dolomit, siderit, aragonit, tserussit, malaxit, azurit.

7. Fosfatlar: apatit, fosforit, montsonit, feruza.

8. Sulfatlar: barit, tselestin, angidrit, gips, mirabilit, alunit, volframit.

10 §. Tog' jinslari

Mineral donalari yoki kristallarning tabiiy to'plami "tog' jinsi" deyliladi. Faqat bir mineraldan tashkil topgan tog' jinslari "monomineral tog' jinslari", ko'p mineralli jinslar esa "polimineral tog' jinslari" deyliladi. Masalan, marmar faqat kaltsit (CaSO_4) mineralidan, granit esa bir necha (kvarts, dala shpati, shox aldamchisi, biotit, muskovit) minerallardan tashkil topgan.

Tog' jinslari hosil bo'lismiga qarab uchta katta guruhga: magmatik, cho'kindi va metamorfik tog' jinslariga bo'linadi.

Magmatik tog' jinslari m a g m a ("magma"-grekcha, "xamir", "quyuq moy" ma'nosini bildiradi) deb ataluvchi xamirsimon qizigan (1500°C) massaning chuqr yer qa'ridan (200-250 km) ko'tarilib er po'sti ichkarisida kristallahib qotishishdan va er yuzasiga otlib chiqib sovib qotishidan hosil bo'ladi.

Cho'kindi tog' jinslari avval xosil bo'lgan tog' jinslarining turli geologik jarayonlarda nurab qayta to'planishidan hamda suv havzalarida kimyoviy elementlarning birikib cho'kmaga tushishi natijasida hosil bo'ladi.

"Metamorfik ("metamorfoo"- grekcha "o'zgartiraman" degan ma'noni bildiradi) tog' jinslari" deb magmatik va cho'kindi tog' jinslarining yuqori bosim va haroratda hamda issiq eritmalar ta'sirida o'zgargan tog' jinslariga aytildi.

Tog' jinslarining asosiy xossalariiga rangi, strukturasi va teksturasi, mineral tarkibi va yotish shakllari kiradi.

Magmatik va metamorfik tog' jinslarini petrologiya fani, cho'kindi tog' jinslarini esa litologiya fani o'rganadi.

Hozirgi vaqtida fanga 1000 yaqin tog' jinslari ma'lum. Tog' jinslarini hosil qiluvchi minerallar "jins hosil qiluvchi minerallar" deyiladi. Bunday minerallar 100 yaqin.

"Strukturna" deganda tog' jinsini tashkil etuvchi mineral donalarining shakli va o'lchamlari hamda o'zaro munosabati tushuniladi.

Tekstura tog' jinsini tashkil etuvchi minerallar agregatining o'zaro munosabatini bildiradi.

Tog' jinsi tanalari yer po'stida turli shakllarni hosil qilib yotadi. Bu shakllar "tog' jinslari yotish shakli" deb ataladi.

Yer po'stining asosiy qismini (95%) magmatik va metamorfik tog' jinslari, qolgan qismini (5%) cho'kindi jinslar tashkil etadi. Ammo yer yuzasining 75% ini cho'kindi jinslar egallagan, qolgan 25% magmatik va metamorfik jinslarga to'g'ri keladi.

Magmatik tog' jinslari. Magmaning yer po'stida qotish sharoitiga qarab magmatik jinslar ikki katta guruhga: intruziv ("intruzia"- grekcha "yorib chiqish") va effuziv ("effuzio"- grekcha "otlib chiqish") tog' jinslariga bo'linadi.

Intruziv jinslar magmaning yer po'stining chuqur qismida, gaz va bug'lar ishtirokida, asta-sekin kristallahib qotishidan hosil bo'ladi. Shuning uchun ular to'liq kristall tuzilishiga ega bo'ladi.

Effuziv jinslar yer yuzasiga otlib chiqqan magmaning sovib qotishidan hosil bo'ladi. Magma yer yuzasida juda tez qotadi, gaz va suv bug'lari esa tez ajralib ketadi. Natijada mineral birikmalar kristallahib ulgurmeydi. Shuning uchun effuziv tog' jinslari aniq kristall qiyofaga ega bo'lmaydi. Shishasimon yoki yashirin kristalli massa orasida mineralning alohida kristallari ajralib turadi. Bu minerallar magma ko'tarilayotganida kristallahgan xisoblanadi. Magmatik tog' jinslari magmaning qotish sharoiti va tarkibidagi SiO_2 ning miqdoriga qarab quyidagicha bo'linadi:

Guruh	Nordon	O'rta	Asosli	O'ta asosli	Ishqorli
-------	--------	-------	--------	-------------	----------

SiO_2 miqdori, %	>65	65-55	55-45	<45	55	
	intruziv	granit	sienit	diorit	gabbro	peridotit, dunit, piroksenit
effuziv	liparit	traxit	andezit	bazalt	kimberlit	fonolit

Dala shpati, kvarts, slyudalar, olivin, piroksenlar va amfibollar magmatik tog' jinslarini hosil qiluvchi eng asosiy minerallar hisoblanadi.

Nordon magmatik jinslar kremnezjomga (SiO_2) eng boy bo'lib, tarkibida dala shpatlari 65%, kvarts 25-30% bo'ladi. Shuning uchun ular och rangda bo'ladi. Qora rangli minerallar (biotit, shox aldamchisi) kam miqdorda bo'ladi.

O'rta magmatik jinslarda kvarts kamroq; qora rangli minerallar esa ko'pchilikni tashkil etadi.

Asosli magmatik jinslarda qora rangli mineralarning miqdori 50% ga etadi va kvarts bo'lmaydi. Shuning uchun jinslar rangi qora rangga yaqin bo'ladi.

O'ta asosli magmatik jinslar asosan qora rangli minerallardan tarkib topgani uchun ular ancha og'ir bo'ladi. Dala shpati va kvarts bo'lmaydi. Asosan olivin, piroksen kabi minerallardan iborat bo'ladi.

Ishqorli magmatik tog' jinslari asosan kaliyli dala shpati va nefelindan iborat bo'lib, oqish rangda bo'ladi.

Magmatik tog' jinslari yer po'sti umumiylaj hajmining yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi.


Cho'kindi tog' jinslari. Bunday jinslar turli tog' jinslarining nurashi va emirilishi mahsulotlarining qayta to'planishi, suvdan kimyoiy va mexanik cho'kma cho'kishi hamda organizmlar faoliyatini natijasida hosil bo'ladi.

Cho'kindi tog' jinslari, ayniqsa, qum, alevrolit va gil qatlamlari hosil bo'layotganda ularning qatlamlanish yuzalari tekis va silliq bo'lishi, yoki aksincha, turli notejisliklardan va tamg'alardan, ya'ni "belgi"lardan iborat bo'lishi mumkin. Bular - organizmlarning sudrashiz izlari, yomg'ir tomchilari izlari, chuvalchang va mollyuskalarining yorib kirgan izlari hamda to'lqin, oqim va shamolning harakati natijasida qum yoki gil yuzasida hosil bo'ladigan jo'yaklar, ya'ni ryab-

lar hisoblanadi (6-rasm). Ryablar odatda balandligi 1,5-2 sm keliadigan, bir-biriga parallel, to'g'ri chiziqli yoki egilgan ariqchalar va jo'yaklardan iborat bo'ladi (7-rasm).



6-rasm. Hisor tog'ining janubi-g'arbida bo'r davri yotqiziqlaridagi ryablarning ko'rinishi (A.A.Filippov bo'yicha).



7-rasm. Delta yotqiziqlaridagi qazilma ryablar (A.A.Filippov bo'yicha).




8-rasm. Oqsoqota daryosi yonbag'ridagi konglomerat qatlami (H.Chinikulov bo'yicha).

Cho'kindi tog' jinslari paydo bo'lishi sharoitiga qarab to'rtta katta guruhlarga: 1) bo'lakli, 2) xemogen, 3) organogen, 4) aralash tog' jinslariga bo'linadi.



9-rasm. Toshkent viloyatidagi Oqsoqota daryosi havzasidagi paleogen yotqiziqlaridagi fauna (H.Chinikulov bo'yicha).



10-rasm. Oqsoqota xavzasidagi oloy yarusi organogen ohaktoshlarining strukturasi (H.Chinikulov bo'yicha).

Bo'lakli cho'kindi tog' jinslari avval hosil bo'lgan tog' jinslarining turli geologik jarayonlarida yemirilib qayta to'planishidan hosil bo'ladi. Ular qirrali yoki silliqlangan alohida bo'laklardan tashkil topgan bo'lishi, bo'laklari tsementlashgan yoki bo'shoq holda bo'lishi mumkin.

Bo'lakli jinslar bo'laklarining o'lchamlariga karab qo'yidagicha bo'linadi:

Bo'laklar kattaligi, mm	Bo'shoq jinslar		Tsementlashgan jinslar
>100 100-10 10-1	Yirik bo'lak	Qirrali	Yumaloqlangan
		Xarsang tosh, mayda tosh, dresva	G'o'la tosh, shag'al, mayda shag'al
		Qum	Qumtosh
1-0,5 0,5-0,5	O'rta bo'lak	Yirik donali. O'rta donali. Mayda donali	

0,1-0,01	Mayda bo'lak (alevrit)	Alevrit (lyoes, git)	Alevrolit
<0,01	Pelit	Git, Chang	Argellit

Xemogen, organogen va aralash cho'kindi tog' jinslari tarkibiga ko'ra quyidagicha bo'linadi:

Xemogen	Organogen	Aralash
Galloidlar: galit, silvin, silvinit	Karbonatlar: marjontli, fuzulinali, shvagfinali, numulitli	
Sulfatlar: angidrit, gips	Karbonatlar: oltin, ohaktosh, ohakli tuf	
	Temirli birikmalar: limonit	Kremniyli jinslar: Radiofyaritlar, diatolitlar.
	Marganetsli birikmalar: fosfatlar	Kaustobilitlar: torf, ko'mir, yenuvchi slanetslar, neft, gaz, geyzfit, opoka.
	Kremniyli jinslar:	Mergel, trepel, opoka, yashma, bo'r, sapropel

Metamorfik tog' jinslari. Tog' jinslarining qiyofasi va mineral tarkibini o'rganishga olib keluvchi jarayon "metamorfizm" deyiladi. Metamorfizmning asosiy omillari: harorat, bosim, jinslar tarkibi, gazli va suvli issiq eritmalar hisoblanadi. Tog' jinslari ana shu omillar ta'sirida suvsizlanadi, qayta kristallanib, o'zining mineral va kimyoiy tarkibi hamda strukturasini o'zgartiradi.

Metamorfik tog' jinslarining asosiy mineralлари kvarts, slyudalar, epizot, xlorit, granatlar, dala shpati, piroksenlar hisoblanadi. Yer po'stida eng ko'p tarqalgan metamorfik jinslar skarnlar, slanetslar, kvartsitlar, marmar va gneyslar hisoblanadi.

IV BOB

Geologik jarayonlar

Yer po'stining paydo bo'lishi va doimiy o'zgarishiga sabab bo'ladigan yerning yuzasidagi va qa'ridagi jarayonlarga **geologik jarayonlar** deyiladi. Geologik jarayonlar ikki katta guruhga: ekzogen ("ekzo"-tashqi, "genezis"-paydo bo'lish) va endogen ("endo"- ichki) jarayonlarga bo'linadi. Ekvogen jarayonlar yer po'stining eng yuqori qismida va yer yuzasida yerning tashqi qobiqlarining (atmosfera, gidrosfera va biosfera) yer po'sti bilan o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Ularga nurashning, shamolning, yer osti va yer ustisi suvlarining, muzlik, dengiz, ko'l va botqoqning qeologik ishi kiradi.

Endogen jarayonlarga magmatizm, zilzilalar, tektonik harakatlar va metamorfizm kiradi. Yerning ichki energiyasi va og'irlik kuchi endogen jarayonlarni paydo qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Endogen va ekzogen jarayonlar natijasida yer po'stida va yer yuzasida turli xil foydali qazilma konlari hosil bo'ladi. Ekzogen jarayonlarda ko'proq ko'mir, neft, gaz, tuzlar va noma'dan foydali qazilma konlari hosil bo'lsa, endogen jarayonlarda asosan metall foydali qazilma konlari paydo bo'ladi.

Ekzogen geologik jarayonlar

Ekzogen geologik jarayonlar deb turli xil tabiiy omillar, ya'ni suv, shamol, muz va organizmlarning tog' jinslariga ta'siri va buning natijasida turli cho'kindilarning hosil bo'lishiqa aytildi.

Ekzogen geologik jarayonlarning faoliyatida asosan uchta bosqich ajratiladi: tog' jinslarini yemirish va kimyoiy parchalash, hosil bo'lgan mahsulotni bir joydan ikkinchi joyga eltish va ularni to'plash.

11 S. Nurash

Tog' jinslarining quyosh harorati, suv, havo va organizmlar ta'sirida emirilib, kimyoiy parchalanishiqa *nurash* deb atalaadi.

Nurash asosan ikki xil: fizik va kimyoviy nurash bo'ladi


Fizik nurash. Bunday nurash tog' jinslarining quyosh harorati ta'sirida isib, uni tashkil etuvchi zarrachalarning kengayishi va siqilishi natijasida ro'y beradi. Minerallarning issiqdan kengayish xususiyati bir xil bo'limgani sababli ular turli darajada kengayib bir-birini siqadi va buning natijasida tog' jinslarida darzliklar paydo bo'ladi. Darzliklarga suv kirib qishda muzlab, ularni kengaytiradi va tog' jinslarining bo'laklarga bo'linishiqa sabab bo'ladi.

Fizik nurash jarayoni quruq va issiq iqlimli hududlarda, ayniqsa cho'l va sahrolarda kuchli kechadi. Bunday joylarda harorat kunduzi $50-60^{\circ}\text{S}$ ga ko'tarilib, kechasi $3-5^{\circ}\text{S}$, hatto 0° ga tushib ketadi. Haroratning bunday keskin o'zgarishi tog' jinslarining kimyoiyi tarkibini o'zgartirmay bo'laklarga bo'linishiga olib keladi. Natijada yer yuzasida turli kattalikdagi qirrali bo'laklardan iborat toshli sahrolar yujudga keladi.

Kimyoviy nurash. Bu xil nurash tog' jinslarining havo, suv va unda erigan gaz va tuzlar ta'sirida o'zgarib, kimyoviy parchalanishi natijasida ro'y beradi. Kimyoviy nurashda erish, oksidlanish, qidrotatsiya va qidroliz jarayonlari ro'y beradi.

Eriish deb diffuziya jarayonida bir modda molekulalarining boshqa moddada tarqalishiga aytildi. Tabiatda eng keng tarqalgan erituvchisuv hisoblanadi. Unda doimiy ravishda turli moddalar va kimyoiy elementlar erigan holda uchraydi. Shulardan kislorod va karbonat angidridining suvda mavjudligi suvning tog' jinslari va mineraliarga bo'lgan ta'sirini kuchaytiradi. Tabiiy birikmalarning barchasi ma'lum darajada eriydi. Ayniqsa, cho'kindi jinslardan tuzlar, gips va ohaktoshlar kuchli eriganidan ularda ulkan q'orlar yujudga keladi.

Gidroliz deb minerallarning kimyoviy parchalanib, tarkibidagi ayrim elementlarning ajralib ketishiga yoki boshqa elementlar bilan o'rin almashishiga aytildi. Misol qilib, dala shpatining suv va karbonat angoidridi ta'sirida kaolinitga avlanishini keltirish mumkin.



Kaolinit mineralining to'planishidan kaolin tog' jinsi paydo bo'ladi. Toza kaolin chinni sanoati uchun muhim hom-ashyo hisoblanadi.

Nam va issiq iqlimli hududlarda kimyoviy nurash, ayniqsa gidroliz jarayoni kuchli kechadi. Minerallar elementlarning oksid va gidrooksidlari ko'rinishiga qadar parchalanadi. Ana shunday yo'l bilan alyuminiyning asosiy ma'dani bo'lgan boksit jinsi hosil bo'ladi.

O'simlik dunyosi va mikroorganizmlar fizik va kimyoviy nurash jarayonini tezlashtiruvchi omil hisoblanadi. O'simliklarning ildiz tizimi tog' jinslarining darzlilari bo'ylab bo'laklarga bo'linishini tezlashtiradi va kislotalar ajratadi. Kislotalar tog' jinslarini parchalab, ayrim erigan moddalarni o'zlashtirib oladi. Shu tariqa jonli va jonsiz tabiat o'tasida biologik modda almashinuvi ro'y beradi. Bu jarayon tuproq qatlarni hosil bo'lishi bilan yakunlanadi.

Yer yuzasining kimyoviy nurash jarayoni mahsulotlari bilan qoplangan qismi "nurash po'sti" deyiladi. Ana shu nurash po'stining organik moddalalar bilan boyigan yuqori qismi tuproq qatlarni tashkil etadi.

Tuproq-qalinligi bir metr va undan biroz ko'proq bo'lgan mineral moddalari, suv, havo, mikroorganizmlar va gumusdan iborat qatlamdir. Mineral moddalari nurashga uchragan tagzamin jinslar hisobiga to'planadi. Gumus-tuproqning eng qimmatli qismi hisoblanadi va uning tarkibi murakkab tuzilgan organik birikmalardan (organik kislotalar, uglevodlar, oqsillar va boshqalardan) iborat. Ular organizmlarning parchalanishi jarayonida hosil bo'ladi.

Nurash jarayoni mahsulotlarining o'z o'rnda qolgan qismi "elyuvial yotqizik" yoki "elyuviy" deb, vaqtincha oqar suvlar ta'sirida va o'z og'irligi bilan tog' yon bag'irilari bo'ylab pastga ko'chib to'plangan qismi esa "delyuvial yotqiziqlar" yoki "delyuviy" deb ataladi. Elyuviy-lotincha "elyuvio" so'zidan olingan bo'lib, "yuvis"; delyuviy esa "delyuvio"- "yuvib ketmoq" ma'nolarini anglatadi.

Deflyatsiya so'zi lotincha bo'lib, "uchirish" demakdir. Shamol faqat tekis erlardagi jinslarni uchirib qolmasdan, o'nqir cho'nqirlarga, qoyatoshlarning yoriqlariga kirib borib emirilgan mayda tog' jinsi bo'laklarini ham uchirib ketadi. Bu hodisa **deflyatsiya** deyiladi.

Yer yuzasiga yaqin joylardagi bo'sh jinslarni shamol uchirishi natijasida, ular o'rnda hovuzsimon relef shakllari paydo bo'ladi.

Bunday joylar "eol (shamol) qozoni" deb ataladi. Bunday chuqurliklarda yomg'ir suvlarining to'planishidan vaqtli ko'lchalar yoki botqoqliklar hosil bo'lishi mumkin. Ko'pincha cho'llarda bunday joylarda loyqa to'planib, yozda qurib qolib, yorilib ketadi va bu yerlar t a q i r deb ataladi.

12-§. Shamolning geologik ishi


Shamolning geologik ishini barcha joyda kuzatish mumkin. Ayniqsa, o'simlik yoki daraxtzor yo'q joylarda-suv havzalari qirg'oqlarida, cho'l va sahrolarda uning faoliyati kuchli bo'ladi va ko'zga yaqqol tashlanadi.

Shamolning geologik ishi tog' jinslarini parchalash, boshqa joyga eltilish va bu mahsulotni to'plashdan iborat bo'lib, u to'plagan yotqiziq eol yotqiziq deb ataladi. Eol-qadimgi grek afsonasida shamol xudosining nomi.

Shamolning ishi uning tezligiga bog'liq bo'lib, 20m/s tezlikda esganda mayda va yirik qum zarralarini uchirishi, daraxtlarni qo'porishi mumkin. Shamolning tezligi 50-80m/s ga etganda havoga katta miqdorda chang-to'zon ko'taradi. Qum bo'ronlari paytida qum zarralari 2 m va undan balandgacha ko'tarilishi mumkin; undan yuqorida faqat chang-to'zon uchadi.

Shamolning tog' jinslarini parchalab emirilish faoliyati "korraziya" (lotincha "korrazius"-charxlash) deyiladi. Bunda o'zi bilan uchirayotgan qum zarralarini shamol ochilib yotgan qoyatoshlarga olib borib uradi. Zarrachalar tog' jinslari sirtiga urilib, ularni tirmaydi, parchalaydi, o'yadi va silliqlaydi, o'ziga hos relef shakllarini hosil qiladi.


Shamol korraziyasi natijasida qoyatoshlarda turli-tuman mo'jizali mikroreleif shakllari paydo bo'ladi. Qum zarralari zarbidan tog' jinslarining bo'shroq joylari mustahkamroq qismiga nisbatan tezroq parchalanib, yemiriladi. Shamolning o'rama harakati qum zarralarini aylanma harakat qilishga majbur qiladi va to'g'ri zarbga qo'shimcha "burg'ilash" zarbi ham qo'shiladi. Natijada tog' jinslari yuzasi tsilindr ko'rinishidagi chuqurchalar bilan qoplanadi. Bulardan tashqari minorasimon, ustunsimon, qo'ziqorinsimon, stolsimon, sharsimon, kallasimon shakllar ham hosil bo'ladi (11-14 rasmlar).



11-rasm. Kaspiy dengizi bo'yidagi Mang'ishloq cho'lida qumtosh qatlamlarida hosil bo'lgan sharsimon shakllar (V.I.Serpuxov bo'yicha).



12-rasm. Pomirdagi Vanj daryosi yonbarrida shamolning geologik ishi natijasida xosil bo'lgan odam kallasi shakli (A.A.Filippov bo'yicha).



13-rasm. Shamolning geologik ishi natijasida hosil bo'lgan ustunlar (V.I.Serpuxov bo'yicha).




14-rasm. Shamolning geologik ishi natijasida hosil bo'lgan stol (V.I.Serpuxov bo'yicha).



15-rasm. Markaziy Qizilqumdag'i eol qumlardan hosil bo'lgan barxanlar (V.Yu.Abramov bo'yicha).

Eol yotqiziqlar. Bunday yotqiziqlarga asosan lyoss va qum kiradi. Ularning mineral tarkibi ko'proq kvarts, dala shpati, kaolinit, kalsit va boshqa mineral bo'laklaridan iborat bo'lib, ular orasida o'simlik spora va changlari, bakteriyalar va ba'zi bir organik qoldiqlar uchraydi.



16-rasm. Qoraqum sahrosidagi qum barxani (A.M.Gorbachev bo'yicha).

Lyoss - sarg'ish, och sariq rangli, mayda, donador, bo'shoq, g'ovaklich Ho'kindi tog' jinsidir. Lyoss "soz tuproq" deb ham ataladi. Lyoss jinslar Xitoyda, O'rta Osiyoda, Shimoliy Kavkazda, Ukrainada keng tarqalgan bo'lib, uning qalinligi bir necha metrغا etishi mumkin.

"Lyoss cho'llardan uchib kelgan changlarning quruq dashtlarda to'planishidan hosil bo'ladi" deb hisoblanadi. Lyossda quruqlikda yashovchi mollyuskalarning chig'anoqlari, xatto yirik sut emizuvchi hayvonlar suyaklarining uchrashi, uning suvda emas, quruqlikda paydo bo'lganligidan darak beradi.

Eol qumlari sahrolarda hamda dengiz va daryolarning qirg'oqlari bo'ylab keng tarqalgan. Ular cho'l va sahrolarda shamol kuchi ta'sirida qum to'plamlari-barxanlarni hosil qiladi. Barxanlar

qum zarralarining biror bir to'siqqa-o'simlik yoki tosh bo'lagiga urilib to'planishidan hosil bo'ladi. Barxanlar tepadan qaraganda yarim oy shaklida bo'lib, shamol esuvchi tomoni yotiq, shamolga teskari tomoni tik va ikki yoni qanotsimon bo'ladi (15, 16-rasmlar). Balandligi 2 dan 30 m gacha, ba'zan 50-100m gacha etishi mumkin. Barxanlar bir yilda 2-10m, ba'zi hollarda 100-150m gacha ko'chadi.




17-rasm. Dyunalar (A.M.Gorbachev bo'yicha).

Dyunalar - dengiz yoki daryo bo'yidagi uzunasiga cho'zilgan qum tepaliklaridir (17-rasm). Ularning balandligi dengiz qirg'oqlarida 20-30m, ba'zan 100m gacha boradi. Daryo bo'ylarida esa 5-10m ni tashkil etadi. Dyunalar xam barxanlar singari ko'chadi. Tezligi bir yilda 1-20m ni tashkil etadi. Dyuna va barxanlarningko'chishi natijasida ekin maydonlari, aholi punktlari va o'rmonlar qum ostida qolib ketishi mumkin. Ularga qarshi kurashda ular yo'lida ixota daraxtzorlari barpo etiladi.

13-§. Oqar suvlarning geologik ishi
Quyosh issiqligi ta'sirida tabiatda suvning to'xtovsiz aylanishi


ro'y beradi (18-rasm). Suv havzalari va yer yuzasidan doimiy ravishda bug'lanish ro'y beradi va suv bug'lari atmosferaning quyi – troposfera qatlamida to'planib bulutlarni hosil qiladi. U yerda suv bug'lari zinchashib tomchilarga aylanadi; so'ngra yomg'ir yoki qor ko'rinishida yerga yog'adi. Quruqlikdagi suvning bir qismi daryo va jarliklar bo'ylab dengiz va okeanlarga qaytadi, bir qismi esa tog' jinslari yoriqlari va darzliklardan yer ostiga singib kirib, u yerda yer osti suvlarini tashkil qiladi.



18-rasm. Tabiatda suvning aylanma harakati.

Shunday qilib, atmosfera yog'in-sochin suvlar oqar suvlar uchun, bug'lanishga va yer osti suvlarini ta'minlashga sarf bo'ladi. Yer yuzasiga tushgan yomg'ir tomchilaridan yoki qorning erishidan hosil bo'lgan suv biror bir pastlik tomon harakat qila boshlaydi va o'z yo'lida tog' jinsi mayda bo'laklarini yuvib ketadi. Bu jarayon yuza b o' y l a b y u v i sh deyiladi. Uning natijasida tog' yonbag'irlari etagida e l l y u v i y deb ataluvchi bo'laklı tog' jinslarining to'plami hosil bo'ladi (19-rasm).

Agar suv uzunasiga cho'zilgan pastliklar bo'ylab harakatlansa, o'z og'irligi bilan pastga oqayotgan suv oqimiga aylanadi. Bunday suv oqimining kuchi uning miqdori va tog' yonbag'iring qiyaligiga bog'liq bo'ladi.



19-rasm. Oqsoqota daryosi yonbag'ridagi ellyuvial yotqiziqlar (H.Chinikulov bo'yicha).

Kuchli yomg'ir, ayniqsa, sel paytida suv oqimi tog'lardagi nurash natijasida hosil bo'lgan bo'shoq jinslarni katta miqdorda yuvib olib ketadi. Oqar suvlarning tog' jinslarini yuvib olib ketishi geologiyada chiziqli yuvi sh yoki eroziya deyiladi.

Oqar suvlarni ikkiga bo'lish mumkin:

- 1) vaqtincha oqar suvlar;
- 2) doimiy oqar suvlar.

V a q t i n c h a o q a r s u v l a r deb qor, yomg'ir suvlar tushuniladi, d o i m i y o q a r s u v l a r deganda esa asosan daryo suvlarini nazarda tutiladi.

Vaqtincha oqar suvlar o'z yo'lida dastlab mayda yoriqlarni hosil qiladi va keyinchalik ular jarlarga aylanadi, ya'ni yuza bo'ylab yuvilish jarayoni chiziqli yuvish jarayonini boshlab beradi. chiziqli yuvish o'z navbatida chuqurlama eroziyaning boshlanishiga sababchi bo'ladi.

Suv oqimi o'zining emirish, parchalash kuchini

yo'qotadigan joy erozija bazisi deb ataladi. Jarlar uchun eroziya bazisi bo'lib, jarning daryo vodiysiga qo'shilgan joyi hisoblanadi. Irmoqlar uchun ular quyiladigan daryo yuzasi, daryolar uchun esa ular quyiladigan dengiz yuzasi eroziya bazisi bo'lib hisoblanadi. Eroziya bazisida suv oqimi gorizontal holatda bo'ladi va oqim kuchi nolga teng bo'ladi.

Eroziya bazisida to'plangan yotqiziqlar kesik konus ko'rinishida bo'ladi va u ch i q a r i sh k o n u s i deb ataladi. Chiqarish konuslarini vaqtincha oqar suvlar, soylar, jarlar, daryolar va ularning irmoqlari ham hosil qiladi.

Vaqtincha oqar suvlar to'plagan yotqiziq "prolyuvial yotqiziq" yoki "prolyuviy" deyiladi.

Doimiy oqar suvlar, ya'nii daryolar doimiy harakatdagi yirik suv oqimlaridir. Ularni yer yuzasiga buлоqlar ko'rinishida chiqqan yer osti suvlari va abadiy muzlik suvlari hosil qiladi.

14-§. Daryoning geologik ishi va yotqiziqlari

Daryolar o'zining rivojlanishi jarayonida o'ziga v o d i y, ya'nii, uzunasiga cho'zilgan, nisbatan tor chuqurlik hosil qiladi (20-rasm). Vodiyning quyidagi qismlari ajratiladi:



20-rasm. Jizzax tumanidagi Zominsuv daryosining vodiysi
(A.M.Gorbachev bo'yicha).

1. O'zan – daryo vodiysining suv bilan doim to'lib turadigan eng chuqr qismi.

2. Qayir – o'zandan yuqorida joylashgan, suv toshqini paytida suv ostida qoluvchi supa.

3. Terrasalar-daryo ikki yonbag'rida joylashgan zinapoyasimon supalar.

4. Yonbag'irlar–daryo vodiysining qayirdan yuqori qismi.

Terrasalar daryolarning qadimgi qayirlari hisoblanadi. Ular hozirgi qayirdan yuqoriga qarab sanaladi. Eng yuqoridagi terrasa qari, eng pastdag'i, ya'nii hozirgi qayirdan keyingisi esa eng yosh hisoblanadi. Terrasalar besh va undan ko'p bo'lishi mumkin. Ularning hosil bo'lishi yer po'stidagi harakatlar, ya'nii quruqlikning davriy ravishda ko'tarilishi va cho'kishi bilan bog'liqdir (21-rasm).

Terrasalarning ba'zilari daryo oqizib kelgan yotqiziqlar (oqiziq) bilan qoplangan bo'ladi, ba'zilari esa tagzamin jinslardan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra terrasalar:

1. akkumulyativ (oqiziq jinslardan tuzilgan);

2. erozion (tog'zamin jinslardan tashkil topgan) terrasa turlarga bo'linadi.

Oqar suvlar o'zining dengiz tomon yo'llida katta hajmda uch xil ko'rinishda geologik ish bajaradi:

1) quruqlikn yemiradi va relefini o'zgartiradi;


2) yemirish mahsulotini eltadi;

3) to'plab yotqizadi.

Yer yuzasida harakat qilayotgan har qanday suv oqimi tog' jinslarini parchalab yemirish, oqizish va qayta to'plash kabi ishlarni bajaradi.

Daryo suvining oqishi o'ramali va to'g'ri oqimli bo'lishi mumkin. O'ramali oqim daryoning tekislik qismi uchun hos bo'lib, bunda yonlama eroziya kuchli kechadi. Buning natijasida daryo o'zani ilon izi ko'rinishiga ega bo'ladi. Bunday ko'rinishi "meandr" (Gretsiyadagi Meandr daryosi nomidan olingan) deb ataladi (Qarang 27-rasm).

Daryolar o'z vodiysini ham eroziya, ham to'plash faoliyatini natijasida shakllantiradi.



Daryo terrasalarining xillari va ularni ko'ndalang kesimining sxemasi: A-tsokol, B-akkumulyativ, V-akkumulyativ ustiga uyligan, G- akkumulyativ ko'milgan, D-o'zan, n-qayr, kn-tub jins, Hn-terrasalar.


Daryolarning eroziya faoliyati ikki xil ko'rinishda kechadi. 1. chuqurlama eroziya. 2. yonlama eroziya.

Chuqurlama eroziya asosan daryolarning yuqori oqimi qismida ro'y beradi. Bunda daryo baland joylardan pastga tomon katta kuch bilan oqadi va asosan o'zan tubini o'yadi, yemiradi.

Yonlama eroziya esa daryoning o'rta oqimida rivojlanadi. Daryo suvi o'zan tubini o'ymay, balki ikki yon sohilini o'yadi.

Daryoning oqizib kelgan yotqizig'ini toplash ishi "akkumulyatsiya" (lot. "akkumulyatsiya" – to'kaman, to'playman) deyiladi.

Daryo vodiysining rivojlanishi bir necha bosqichda kechadi va bu bosqichlar ketma-ket bir-birini almashadi. Birinchi, yoshlik bosqichida daryo vodiysida chuqurlama eroziya kuchli rivojlanadi. Daryo vodiysining ko'ndalang kesimi lotincha V harfi shaklidagi kan'on ko'rinishini oladi. Agar daryo vodiysining ayrim joylarida o'zani ostida yuvilishga chidamli tog' jinslari chiqib qolsa, ostonalar va sharsharalar hosil bo'ladi (22-rasm).



22-rasm. Chuqurlatish eroziyasida sharsharaning paydo bo'lishi.


Ostonalar daryo o'zanida chiqib turadigan, ancha silliqlangan qoyatoshlar bo'lib, kemalar qatnovi uchun katta qiyinchilik tug'diradi.

Ostonalar uchraydigan qismida daryo shovullab, tez girdoblar hosil qilib, ko'piklanib oqadi.

Agar ostonalar qalinligi anchagina bo'lib (10 – 50, ba'zan 300 – 500 m), tik tushuvchi devor hosil qilsa, sharsharalar yuzaga keladi. Sharsharalar asosan daryolarning tog'li qismida ko'proq uchraydi. Dunyoga mashhur sharsharalardan Shimoliy Amerikadagi Niagara (balandligi 50 m), Janubiy Afrikaning Zambezi daryosidagi Viktoriya (balandligi 400 m) va AQShning Yellowston milliy parkidagi sharshara (balandligi 800 m) shular jumlasidandir (23-rasm).


Keyingi, ya'ni etuklik davrida daryo o'zanida yonlanma eroziya avj oladi. Daryo vodiysi buning natijasida lotincha U harfi yoki yashiksimon shaklini oladi. O'zan esa ilon izi ko'rinishiga keladi. Oxirgi qarilik bosqichida eroziya sustlashadi, cho'kindi to'planishi kuchayadi, daryo o'rtasida orolchalar, qirg'oqlarida esa plyajlar paydo bo'ladi.

Daryo yotqiziqlari. Daryolarning geologik faoliyati natijasida katta miqdorda tog' jinslari bo'laklaridan iborat bo'shoq material to'planadi. Uning bir qismi daryo o'zanida, bir qismi esa daryo quyiladigan suv havzasiga olib borib yotqiziladi.



23-rasm. Amerikadagi Niagara sharsharasi (A.M.Gorbachev bo'yicha).

Daryo to'plagan yotqiziq a l l y u v i y yoki a l l y u v i a l yotqiziq deyiladi. "Alyuvio" lotin tilidan "oqiziq" ma'nosini anglatadi (24-26-rasmlar).



24-rasm. Oqsoqota daryosining allyuvial g'o'la toshlari (H.Chinikulov bo'yicha).




25-rasm. Oqsoqota daryosi allyuvial yotqiziqlari (H.Chinikulov bo'yicha).



26-rasm. Nurotadagi Oqchop daryosining allyuvial yotqiziqlari (V.Yu.Abramov bo'yicha).

Daryoning keyingi rivojlanishi davri, ya'ni qarilik davrida meandralar, ya'ni daryoning qayirilgan joyi ajralib qoladi, daryo o'zani to'g'rilanadi va meandr o'rnda qo'litiq yoki s t a r i t s a (rus. "staroreche" – eski o'zan, daryo) paydo bo'ladi.

- Meandr va staritsalar O'zbekistondagi Sirdaryo ya Amudaryoning tekislikdagi qismida juda keng tarqalgan bo'lib, mahalliy xalq tilida "qolgan daryo" yoki "qolgan sir" deb ataladi (27-rasm).



27-rasm. Meandrning staritsaga aylanishi (Ya.M.Levites bo'yicha).

Daryoning tekislik qismida to'plagan yotqizig'i o'ziga hos qiya qatlamlanish bilan ajralib turadi va asosan kvarts minerali zarralaridan tashkil topadi. Bu yotqiziqlar katta amaliy ahamiyatga ega. Ular qurilish materiallari sifatida, shisha ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari bu yotqiziqlarda oltin, platina, qimmatbaho toshlar, titan, kamyob elementlarning sochma konlari ham uchraydi.

Daryo yotqiziqlarining asosiy qismi dengizlarga chiqarib tashlanadi va daryoning quylish qismida delta hosil qiladi. Delta daryolarning ulkan chiqarish konusi bo'lib, odatda grekcha Δ (delta) harfi shaklini eslatadi.

Daryolarning quylish qismida to'lqin kuchi hamda dengiz suvining ko'tarilishi va pasayishi kuchli bo'sa, delta paydo bo'lmaydi. Bunday joylarda dengiz daryoning quylish qismini voronka ko'rinishida kengaytiradi va estuarialar (qo'rfaz, qo'litiq) keng rivojlanadi.

15- §. Yer osti suvlarining geologik ishi

Yer yuzasidan pastda joylashgan suvlarga "yer osti suvlar" deyiladi. Atmosfera yog'in-sochin suvlar yoriqlar va bo'shliqlar

orgali yer po'sti ichkarisiga o'tib yer osti suvlarini hosil qiladi. Yer osti suvlarining bir qismi magmadan ajraladigan suv bug'larining quyuqlashib suvga aylanishidan paydo bo'ladi. Shunday qilib, yer osti suvleri paydo bo'lishi, ya'ni genezisi bo'yicha ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Vadoz (lot. "vado"-kezaman) suvlar, ya'ni atmosfera yog'in-sochin suvlaridan paydo bo'lgan suvlar.
2. Yuvenil (lot. "yuvenilis"-yosh) suvlar, ya'ni yer po'sti qa'ridan ko'tarilayotgan suv bug'laridan hosil bo'lgan suvlar.
3. Relikt, ya'ni qoldiq suvlar. Ular qadimgi geologik davrlardagi dengiz suvlarining qalin qatlamlar orasida qolib ketishidan vujudga keladi.

Atmosfera yog'inlarining er qa'riga sizilib o'tishi "infiltratsiya" deyiladi.

Tog' jinslari suv o'tkazish xususiyatiga ko'ra suv o'tkazuvchi ya suv o'tkazmaydigan turlarga ajratiladi. Suv o'tkazuvchi jinslarga ko'mir, shag'al va yoriqli jinslar kiradi. Suv o'tkazmaydigan jinslar qumtoshlar, gillar, ohaktoshlar, magmatik va metamorfik jinslar hisoblanadi.

Yer osti suvlar tog' jinslarida quyidagi holatlarda uchraydi:

1. Gravitsion suvlar. Ular yoriq va g'ovaklarda erkin harakat qiladi va suv ta'minoti uchun asosiy manba hisoblanadi.
2. Gigroskopik suv-tog' jinsi zarrachalarini bir molekulali plenka bilan qoplab oladi va faqat isitish yoki bosish orqali ajratib olish mumkin.
3. Plyonkali suv-zarrachalarni ko'p molekulali plyonka bilan kuchsiz o'rab oladi.
4. Kapillyar suv-jinslardagi mayda yoriq va g'ovaklarda sirop tarangligi kuchi bilan ushlanib turuvchi suv.
5. Kristallahgan suv. Minerallarning kristall panjarasida bir nechta molekula sifatida ishtirot etadi. Bunday suvlar jinsni 250-300°C darajada qizdirganda ajraladi.

Yer osti suvlar bosimli va bosimsiz bo'ladi. Joylashish sharoiti va to'planishiga ko'ra yer osti suvlar quyidagi taraflarda ajratiladi:

1. Yuza yoki sizot suvlar. Bunday suvlar yer yuzasidan pastda

suv o'tkazmaydigan birinchi kichik-kichik linsasimon qatlamlar ustida vujudga keladi. Odatda sizot suvlari yozda kamayib, qishda ko'payadi. Suv ta'minoti uchun ahamiyati katta emas.

2. Grunt suvlari. Ular yer yuzasidan pastda suv o'tkazmaydigan birinchi yirik qatlamlar yuzasida paydo bo'ladi va ularning aholini chuchuk suv bilan ta'minlashda ahamiyati katta: grunt suvlari bosimsiz bo'ladi va atmosferadagi barcha o'zgarishlarga aloqador bo'ladi. Atmosfera yog'lnari ko'paysa, ularning ham sathi ko'tariladi va h.k. Grunt suvlari foydalanish uchun juda qulay chuqurlikda yotadi. Qishloq joylarda ular quduqlar yordamida kundalik ehtiyojlar uchun keng qo'llaniladi.

3. Artezian suvlari. "Artezian" atamasi Frantsiyaning qadim Arteziya viloyati nomidan kelib chiqqan bo'lib, 1126 yilda bu viloyatda kavlangan quduqdan katta bosimli suv otilib chiqqan. Shundan buyon, otilib chiquvchi suv olish uchun kovlanadigan quduqlar "artezian quduqlari" deb atala boshlangan. Artezian suvlari grunt suvlardan pastda, suv o'tkazmaydigan hamda botiq yoki bir yoqlama qiya joyalashgan ikki qatlam orasida to'planadi. Bu suvlarning to'yinish joyi suv bosim bilan otilib chiqqan joydan o'nlab, yuzlab kilometr uzoqda bo'ladi. Artezian suvlari to'yinadigan, yig'iladigan va oqib chiqadigan joylari birgalikda artezian suvlari havzasini deb ataladi. O'zbekiston hududida bunday havzalar ko'p tarqalgan va ularidan eng asosiyları Toshkent bo'yи, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Dehqonobod havzalari sanaladi. Artezian suvlari bosimi, harorati, sutkalik yoki mavsumli o'zgarishlari amalda kuzatilmaydi.

4. Darzlik suvlari. Bu turdag'i suvlari tog' jinslarida hosil bo'lgan turli darzliklar bo'ylab harakatlanuvchi suvlardir. Shu sabab ko'pincha yonma-yon burg'ilangan quduqlar goh suvli, goh suvsiz bo'ladi. Yer osti suvlarning darzliklardagi harakati va tarqalishi darzliklarning o'lchamlari va kelib chiqishiga bog'liq bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'ssatadiki, darzlik suvlari ko'proq tektonik siniqlar, kontaktlar va nurash zonasida ko'p uchraydi.

Yer osti suvlarning kimyoviy tarkibi. Yoriqlar va bo'shliqlar bo'ylab harakatlanayotgan yer osti suvlari o'z yo'lida tog' jinslarini eritib, turli elementlar va birikmalar bilan to'yinadi. Ularning kimyoviy

tarkibi tog' jinslari tarkibiga bog'liq bo'ladi va asosan quyidagilardan iborat: Na, Ca, Mg, SO₄, HCO₃, CO₂. Bularidan tashqari oz miqdorda kremlniy va temir oksidlari, karbonat angidridi, vodorod sulfidi, metan ham uchraydi. Tarkibidagi tuz miqdoriga qarab yer osti suvlari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Chuchuk suvlari. Tuz miqdori 1g/l dan oshmaydi.
2. Sho'rroq suvlari. Tuz miqdori 1-10 g/l.
3. Sho'r suvlari. Tuz miqdori 10-50 g/l
4. Namakob suvlari - tuz miqdori 50 g/l dan yuqori bo'lgan suvlardir. Harorati bo'yicha esa: sovuq (20°Sdan past), iliq (+20+42°S) va issiq (+42°S dan yuqori) suvlarga bo'linadi.


Yer osti suvlarning geologik ishi yemirish va eritish, eltish va cho'kma hosil qilish hisoblanadi. O'zining harorati davomida yer osti suvlari tog' jinsi hamda minerallarni eritadi va erigan moddalarini boshqa joyga ko'chiradi.

Qulay geokimyoviy sharoitda moddalar eritmadan ajralib, cho'kmaga o'tadi va bo'shoq jinslarni tsementlab qotiradi.


Yer osti suvlarning erituvchanlik faoliyati natijasida oson eriydigan jinslarda (ohaktosh, dolomit, gips, osh tuzi) bo'shliq va g'orlar paydo bo'ladi. Tog' jinsi zarrachalarini yer osti suvlarning eritib yuvib olib ketishiga "suffoziya" (lotincha "suffozno"-o'pirish) deyliladi. Karst hodisasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

"Karst" atamasi Adriatika dengizi qirg'og'iga yaqin joyalashgan ohaktoshli Karst platosi nomidan olingan bo'lib, bu platoda ohaktoshlar muttasil atmosfera yog'ini ta'sirida kuchli erib, yuvilib, yer yuzasida o'ziga hos karst relefini va yer ostida voronkalar, bo'shliqlar, yer osti g'orlarini paydo qiladi. Bu jarayon karst hodisasi deb atafadi (28-rasm).

Karst hodisasining yer osti ko'rinishlaridan eng asosiysi - karst g'orlaridir. Ular yer osti bo'shliqlari bo'lib, ular ostida jilg'alar oqadi va kichik ko'llar hamda sharsharalar paydo bo'ladi. Bunday g'orlarning shipidan kuchli kontsentratsiyagi ega bo'lgan (500 mg/l) eritmalar chakillab tomib, sumalaklarni hosil qiladi. Ular stalaktitlar deb, agar sumalaklar g'or tubidan ko'tarilib hosil bo'lsa stalagmitlar deb ataladi (29-rasm).



28-rasm. Karst jarayoni: 1-karlar; 2-ponorlar; 3-karst voronkasi;
4-karst bo'shlig'i; 5-karst g'ori.




29-rasm. Rossiyaning Qora dengiz qismidagi Noviy Afon g'orida hosil bo'lgan stalagtit va stalagmitlar. (A.G.Milyutin bo'yicha).

Yer osti suvlaringin yer yuzasiga chiqqan joyi buloq deb ataladi. Ba'zan buloq suvlar o'ta kuchli minerallashgan bo'ladi va buloq atrofida kaltsiy karbonat (CaSO_4) birikmasi cho'kib, och kulrang, sarg'imir-kulrang, g'ovak tog' jinslarini paydo qiladi. Bu tog' jinsi travertin deb ataladi.

Ko'chkilar. Yer osti suvlarning geologik ishi natijasida tabiatda ko'chki hodisasi tez-tez bo'lib turadi. "Ko'chki" deb jarlarning yonbag'rida, daryo, ko'l va dehiz qirg'oqlarida tog' jinslari katta qismining surilishiga aytildi (30-rasm). Ko'chkining paydo bo'lishiga sabab quyidagilardir:

1. tog' jinslari orasida suv o'tkazmaydigan gil qatlaming bo'lishi va bu qatlaming qiya yotishi;

2. tog' jinslarining qor va yomg'ir suvlariga o'ta to'ynishi yoki gil qatlami ustida suvli gorizontning bo'lishi.



30-rasm. Ko'chkining hosil bo'lishi: a-suv o'tkazuvchi qatlam;
b-suv o'tkazmaydigan qatlam. (A.M.Gorbachev bo'yicha).

Ko'chki hodisasi ayniqsa bahor oylarida ko'p ro'y beradi. Qor va yomg'ir suvlariga o'ta to'yingan bo'shoq jinslar o'z og'irligi ostida qiya joylashgan gil qatlami yuzasi bo'ylab pastga bir necha yuz, hatto kilometrlab ko'chishi mumkin (31, 32-rasmlar).

Ko'chki hodisasiga qarshi samarali tadbirlardan drenaj quduqlari kavlash, ko'chki yo'liga suyanchiq devor qurish va ko'chish ehtimoli mavjud maydonda o'rmon barpo etish kerak.



31-rasm. Oqsoqota daryosining o'ng yonbag'rida hosil bo'lgan ko'chki (H.Chinikulov bo'yicha).



32-rasm. Surenota tog'ining shimoliy yonbag'rida rivojlangan ko'chki (H.Chinikulov bo'yicha).

16-§. Dengizning geologik ishi

Ma'lumki, Yer yuzasining suv qismini qadim sharqlik olimlar "ummon" deb ataganlar. XV asrda yashagan turkiyalik dengiz

sayyohi Piriy Rais o'zining "Kitobul-Bahriya" asarida shunday yozadi: "Bahri mag'rib (Atlantika okeani) Septa bo'g'ozidan g'arbga tomon 4000 mil kenglikdagi ulkan ummon bo'lib, bu ummonning bir uchida Antiliya (hozirgi Amerika) qit'asi joylashgan".

XVIII asrning oxirida Frantsiyalik gidrograf Klare de Floriya dengiz va okeanlarning suvini D u n y o o k e a n i deb atagan. "Okean" atamasi grekcha "okeanos" so'zidan olingan bo'lib, "cheksiz dengiz" ma'nosini beradi.

D e n g i z deb dunyo okeanining quruqlik bilan tutashgan va o'ziga xos hidrologik rejimi, fauna va yotqizig'iga ega bo'lgan qismiga aytildi.

Dengiz va okeanlarning geologik ishi ham parchalash, yemirish, eltish va yotqizib toplashdan iborat bo'lib, ekzogen jarayonlar orasida eng muhim va ahamiyatli hisoblanadi. Bunda suv massasining harakati va unda yashovchi organizmlar asosiy ornii hisoblanadi.

Dengiz va okeanlar tubining relifi tuzilishiga ko'ra quyidagi elementlarga ajratiladi:

1. Shelf (ing. "shelf"- "sayozlik"). Quruqlik, ya'ni qit'alarning suv ostidagi davomi hisoblanadi. Uning kengligi turlicha bo'lib, 10-20 km dan 1000 km gacha boradi. Tashqi chuqurligi BMT maxsus komissiyasi qarori bilan 600 m deb qabul qilingan. O'rtacha qiyaligi 0-1°.

2. Kontinental qiyalik. 2000-2500 m chuqurlikgacha boradi. O'rtacha qiyaligi 5-10°. Yuzasi notejis bo'lib, shelf tomonga yo'nalgan chuqur suv osti dara va kanonlar hamda vodiyları uchraydi.

3. Okean lojesi (tubi). 2500m dan okeanlarning eng chuqur botig'iga qadar joyni o'z ichiga oladi. Okean lojesida quyidagi relief elementlari ajratiladi: okean tubi tog' tizmalari, botiqlar va tekisliklar.

Dengiz va okeanlarda chuqurlik bo'yicha quyidagi bionomik ("bio"-hayot, "nomos"-qonun") zonalar ajratiladi:

1. Litoral ("litoralis"- qirg'oq, sohil) 0-20 m chuqurlikni o'z ichiga oladi.

2. Nerit (shu zonada yashovchi Nerita mollyuskasi nomidan) 20-200 m.

- Batial ("batos"-chuqurlik) 200-2500 m.
- Abissal ("abissos"-tubsiz chuqur) 2500 m.dan okean lojesigacha.

- Pelagiya. Dengiz va okeanlarning yuza qismi.

Dengiz va okeanlarda yashovchi barcha organizmlar yashash tarzi bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

- Bentos. Dengiz tubiga yopishib yoki o'ralib yashovchi organizmlar (mollyuskalar, chuvalchanglar, dengiz kirpsi) kiradi.

- Plankton. To'lqin va oqim ta'sirida sust harakat qiluvchi organizmlardir. Foraminiferalar va radiolyaritlar shular jumlasidandir.

- Nekton. Faol suzib yuruvchi organizmlar. Ularga baliqlar, delfinlar va kitlar kiradi.

Dengiz va okeanlarda yashovchi organizmlarning turli-tumanligi va kam yoki ko'pligi suvning fizik-kimyoviy xususiyatlari va chuqurlikka chambarchas bog'liqdir.

Organizmlarning yashashi va rivojlanishi uchun muhim hisoblangan omillardan biri - okean suvi sho'rligidir. Organizmlarning eng ko'p qismi asosan normal sho'rlikdagi dengizlarda keng tarqalgan. Sho'rlik kam yoki ko'p bo'lgan joylarda ko'pchilik organizmlar rivojlanmaydi.

Денгиз сувидаги тузлар миқдори

Тузларнинг номи	1000 г сувда тузлар (г/л жиссауда)	Туз миқдори (% жиссауда)
Натрий хлориди (NaCl)	27,2	78,32
Магний хлориди (MgCl_2)	3,8	9,44
Магний сульфати (MgSO_4)	1,7	4,7
Кальций сульфати (CaSO_4)	1,2	3,6
Калий сульфати (K_2SO_4)	0,9	2,5
Кальций карбонати (Ca CO_3)	0,1	0,3
Магний бромиди (MgBr_2)	0,1	0,2

Suvning harorati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Haroratning o'zgarishi asosan qirg'oq bo'yи va dengiz yuzasi qismida ro'y beradi. Chuqurlikda harorat yil bo'yи bir me'yorda turadi.


Dengiz va okeanlarda organizmlarning taqsimlanishiga chuqurlik kuchli ta'sir etadi va muhitning holatini, haroratini va boshqa xususiyatlarini belgilab beradi. Organizmlarning har bir alohida guruhi faqat o'ziga xos ma'lum chuqurlikda yashaydi. O'simliklar dengizda quyosh nurlari etib boradigan chuqurlikgacha, ya'ni 200 metrgacha uchraydi. Undan chuqurlikda fotosintez jarayoni ro'y bermaydi va o'simliklar yashamaydi.

Dengiz va okeanlarda hayvonot olaming barcha tiplari vakillari yashaydi. O'simlik dunyosi faqat suv o'tlari bilan ishtirot etadi.

O'zining yashash faoliyati davrida suv o'tlari dengiz suvidan kalsiy karbonati (CaSO_3) va kremnezem (SiO_2) birikmalarini ajratib oladi va o'lgandan so'ng ular hisobiga ohakli va kremniyli cho'kindilar hosil bo'ladi.

O'simliklar asosan dengizning litoral, nerit va pelagiya zonalarida rivojlanadi. O'simliklardan farqli ravishda hayvonlar barcha bionomik zonalarda yashaydi va chuqurlashib borgan sari kamayib boradi.

Litoral va ayniqsa nerit zona hayvonot olami uchun eng qulay muhit hisoblanadi. Bu zonalarda mollyuskalar, dengiz kirpsi, marjonlar, gubkalar hamda umurtqalilardan baliqlar keng tarqalgan. Umurtqasiz organizmlar o'z skelet chig'anoqlarini kal'tsiy karbonati va kremnezyomdan quradilar va keyinchalik ularning to'planishidan



33-rasm. Marjonlar skeletlari hisobiga orol paydo bo'lishi iaravoni (Ya.M.I.Levites bo'vicha).


karbonatlari va kremniyli jinslarning qalin qatlamlari hosil bo'ladi. Organizmlardan ayniqsa marjonlar tropik mintaqalardagi dengizlarda ohakli riflar quradilar. Riflar-asosan marjonlar skeletlari hisobiga paydo bo'ladigan sayozlik yoki orollar ko'rinishidagi ohakli qurilmalardir (33-rasm).

Pelagik zona asosan bir hujayrali mikroskopik organizmlar-ya'ni planktondan va ular bilan oziqlanuvchi baliq va kitlardan iborat.

Dengizning geologik ishi – ikkiga:

emirish va bunyod qilishga bo'linadi. Dengiz (okean) suvlarining emirish faoliyati asosan qirg'oqda namoyon bo'ladi.

Qirg'oqlarning dengiz suvi ta'sirida yemirilishi "abraqiya" (lot. "abrazio"-qirib olish) deb nomlanadi. Qirg'oqning emirilishi uning morfologiyasi, tog' jinslarining tarkibi va to'lqin kuchiga bog'liq. Qirg'oqqa urilib, ag'darilib, pastga tushish vaqtida to'lqin ancha kuch hosil qiladi. To'lqinning qirg'oq oldida ag'darilishi "priboy" deb ataladi. Priboyning bosim kuchi bir kvadrat santimetrga 3000 dan 30000 kg gacha to'g'ri keladi. Kuchli bo'ron paytida to'lqin 100 tonnalik harsang toshlarni o'rnidan qo'zg'atadi hatto ularni g'ovlardan to'p kabi oshirib tashlaydi. Priboy to'lqini yuz-ikki yuz tonnalik kemalarni qirg'oqqa uloqtirib yuborishi mumkin. Bu to'lqinning balandligi 60-80 m ga ko'tarilib tushishi mumkin.



34-rasm. To'lqinning qirg'oqqa urilib yuvishidan hosil bo'lgan to'lqin bo'g'ozi (A.M.Gorbachev bo'yicha).

To'lqin tik qirg'oqqa urilib, uni asta-sekin emiradi. Suvning yuzasi balandligida to'lqinning urilib yuvishidan "to'lqin bo'g'ozi" deb ataluvchi gorizontal o'yiqlar hosil bo'ladi (34-rasm). Bu o'yiqlar borgan sari chuqurlashib, oxiri qirg'oq usti qulab tushadi va shu tarzda qirg'oq orqali chekinadi. Oyning tortish kuchi natijasida vujudga keladigan bir sutkada ikki marta ko'tarilib, ikki marta qaytishi hisobiga ham qirg'oq yuviladi va emiriladi.

Qirg'oqning emirilishi natijasida uning etagida dengiz tomonga biroz qiya bo'lgan tekis supa-terraza vujudga keladi. Undagi tog' jinsi bo'laklari (xarsang tosh, shag'al) uzoq vaqtlar davomida to'lqin ta'sirida bir-biriga urilib maydalananadi, ishqalanib dumaloqlashadi, silliqlanadi va saralanib qayta yotqiziladi.

Qirg'oqning emirilishi ming yillab davom etadi va to'lqin kuchi etmaydigan masofaga chekinib to'xtaydi.

Dengizning yemiruvchi faoliyati natijasida quruqlikka kirib borishi natijasida "qo'lliq", "buxta", "liman" deb ataluvchi dengizning o'ziga xos qismlari paydo bo'ladi.

Aksincha, quruqlikning dengizga kirib ketgan qismlari "burun" va "yarim orollar" deb ataladi.

Dengizning bunyodkorlik ishi. Agar dengizning yemiruvchanlik faoliyati natijasida erozion relief shakllari paydo bo'lsa, uning bunyodkorlik faoliyati oqibatida ko'proq akkumulyativ relief shakllari vujudga keladi. **Qirg'oq vallari**, **plyaj**, **burun** kabilar shular jumlasidandir. Qirg'oq bo'ylab cho'zilib yotadigan tog' jinslari uyumlari "qirg'oq vali" deyiladi. Qirg'oqning sayoz qumli joyi "plyaj" deb deb ataladi.

17-§. Dengiz yotqiziqlari va foydali qazilmalari

Dengiz yotqiziqlari genezisi (lot. "genus" -avlod), ya'ni, hosil bo'lishiga qarab uchga bo'linadi : terrigen, xemogen, organogen yotqiziqlar.

Terrigen yotqiziqlar (lot. "terra"-er, quruqlik) - quruqlikdan dengizga olib kelingan jinslar bo'laklaridir. Ular asosan shelf va qirg'oq bo'yи zonasida to'planadi.

Xemogen yotqiziqlar dengiz suvidan kimyoviy yoki biokimyoviy

jarayonda elementlarning birikib cho'kishidan paydo bo'ladi.

Organogen yotqiziqlar dengiz tubining barcha qismida tarqalgan. Bundan tashqari dengiz tubida vulkan mahsulotlari, aysberglar olib kelgan muzlik yotqiziqlari va kosmik chang cho'kib, yotqiziqqa aylanadi.

Litoral zona cho'kindilari. Bu zona yotqiziqlari asosan terrigen cho'kindidan iborat bo'ladi. Ular silliqlangan xarsang toshlardan tortib shag'al, qum va gildan tashkil topadi. Ba'zi chuqurroq joylarda il, mollyuska va mshankalar chig'anoqlari to'planadi.

Shelf cho'kindilari (nerit zonasasi). Shelf cho'kindilari asosan terrigen va organogen yotqiziqlardan iborat bo'lib, xemogen yotqiziqlar kam uchraydi.

Terrigen yotqiziqlar asosan shag'al, qum, alevrit, gilli ildan iborat bo'ladi.

Organogen cho'kindilar mollyuskalar, foraminiferalar, mshankalar, marjonlarning chig'anoqlaridan vujudga keladi.

Xemogen cho'kindilar shelfning daryolar quyilish joylarida rivojlanadi. Daryo suvi bilan kelgan tuzlar koagulyatsiyaga uchrab, cho'kmaga tushadi. Natijada dengiz ostida temir, alyuminiy va marganetsning oksidi va gidrooksidlardan tashkil topgan to'plamlar vujudga keladi.

SUVI iliq dengizlarda kaltsiy karbonati (CaCO_3) ko'plab cho'kadi va karbonatli yotqiziqlar to'planishiga sabab bo'ladi. Ular asosan kaltsit, aragonit va dolomit minerallardan tuzilgan bo'ladi.

Kontinental qiyalik cho'kindilari (batial zona). Kontinental qiyalik yuzasi terrigen va organogen yotqiziqlar bilan qoplangan bo'ladi. Terrigen yotqiziqlar asosan shelfning tashqi chekkasidan okean osti oqimlari kuchi bilan yuvib keltiriladi va turli xil ranglarga bo'yagan illardan, alevrit, qum, kam miqdorda mayda shag'al va organik moddalardan tashkil topgan bo'ladi.

Okean lojesi cho'kindilari (abissal zona). Okean lojesi qirg'oqdan uzoqda va katta chuqurlikda (6000-8000m) bo'lganligi uchun bu yerda asosan organik illar to'planadi. Ularning tarkibi ko'proq ohakli va kremniyli bo'ladi. Terrigen yotqiziqlar juda ham kam miqdorda uchraydi.

Organik illar asosan okeanning pelagik zonasida yashovchi plankton organizmlarning qoldiqlaridan vujudga keladi va organizmlarning nomi bilan ataladi: globigerinli il, diatomli il, radiolyariyli il, foraminiferali il, pteropodali il va boshqalar.

Terrigen cho'kindi ko'rinishida biroz qizil "gil" deb ataluvchi jinslar uchraydi. Ularning to'planishi ming yilda 2mg/sm^2 .ni tashkil qiladi. Tarkibida temir, marganets, biroz ohak va kremniy uchraydi. Yumshoq, qo'lga yog'dek yuqadi.

Kimyoiy cho'kindilardan marganets konkretsiyalari ko'plab uchraydi. Konkretsiyalar o'lchami 25 sm. dan oshmaydi.

Laguna Cho'kindilari. Laguna italyancha "lagus"-ko'l ma'nosini beradi. Fanda dengizdan qirg'oq vali bilan ajratilgan, lekin doimiy aloqasi mavjud bo'lgan dengizning chekka qismiga aytildi. Markaziy Osiyoda Kaspiy ko'li g'arbida joylashgan Qorabo'g'oz ko'li shunday lagunalarning eng yirigi hisoblanadi. Uning yuzasi 10 ming km^2 , chuqurligi o'ttasida 3,5 m. Suvning harorati qishda $+1^\circ\text{S}$, yozda $+30^\circ\text{S}$. Uzunligi 12 km, kengligi 150 m. Iqlimning issiqligi (yozda 69°S) va yog'inning juda kamligi (55mm/yil), bug'lanishning yuqoriligi laguna suvining namakobga aylanishiga sabab bo'ladi.

Tuzlarning kontsentratsiyasi dengiz sho'rligidan 50-55 barobar ortiq. Bunday suv o'ta og'ir, harakatsiz bo'lib qoladi va yuqorli haroratda undan turli tuzlar: gips $\text{CaSO}_4 \cdot 2 \text{H}_2\text{O}$, galit (NaCl), mirabilit ($\text{NaSO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$) va boshqalar cho'ka boshlaydi. Tuzlar sanoat miqyosida qazib olinadi.

Dunyo okeani foydali qazilmalari. Dunyo okeani nafaqat baliq va boshqa ozuqa mahsulotlariga boy, balki, inson uchun eng zarur bo'lgan foydali qazilmalarning behisob zahirasiga ega.

Bir litr okean suvida 19 g xlor, 11 g natriy, 1,5 g magniy, kamroq temir, oltin, mis, nikel, kobalt bor. Eramizdan 2 ming yil avval qadimgi Xitoy, Ispaniya va Italiyada okean suvidan tuz ajratib olingan. Kaliy, yod, brom ajratib olish yo'lga qo'yilgan.

Hisob-kitoblarga qaraganda, okean suvining bir tonnasida 0,04-0,02 mg. oltin bor; jami dunyo okeanida esa 30 mln. t oltin jamlangan. Ammo, oltin dunyo okeanining turli qismida turlicha

miqdorda uchraydi. Masalan, Karib dengizida 16-18 mg, AQSH qirg'oqlarida 16 mg, Avstraliya qirg'oqlarida 65 mg.gacha borligi aniqlangan.

Oltin dunyo okeaniga asosan quruqlik daryolari bilan oqib keladi. Masalan, Rossiyadagi Amur daryosi har yili okeanga 8 t. oltin oqizib kelishi hisoblangan. Bu ko'satkich dunyoning ayrim davlatlarining bir yillik qazib olgan oltinidan ko'p.

Oltinning bir qismi dunyo okeaniga meteoritlar bilan tushadi. Bir yilda yer atmosferasida o'ttacha 3500 t meteorit chang holida parchalanadi. Shundan 18 kg oltin hisobiga to'g'ri keladi. Oxirgi million yilda yer atmosferasiga 18 ming t oltin sochilgan. Demak, shundan uchdan ikki qismi dunyo okeaniga cho'kadi.

Fransiya olimlari hisob-kitoblariga qaraganda, Sitsiliya orolidagi mashhur Etna vulkanı 1 sutkada atmosferaga 2,5 kg oltin zarrachalarini sochadi. Dunyo okeani ulkan va bitmas tiganmas chuchuk suv manbai hisoblanadi. Uni faqat chuchuklashtirish lozim. Hozir dunyoda 200 ga yaqin dengiz suvini chuchuklashtiruvchi qurilmalar ishlamoqda.

Plyaj qumlaridan olmos, qalay, titan, tsirkoniyl, toriy, vanadiyl va qahraboy ajratib olinmoqda.

Okean tubida otingugurt, fosforit, neft va gazning ulkan konlari mavjud. Hozirda dunyodagi neftning 15% okean ostidan olinmoqda.

Okean boyliklarini qazib olish ishlari kelajakda keng rivojlanadi.

18-§. Ko'l va botqoqning geologik ishi

Ko'llar. Quruqlikdagi suv bilan to'lgan pastlik, chuqurliklar "ko'l" deb, yer yuzasidagi ayrim yirik ko'llar "dengiz" deb ataladi. Masalan: Kaspiy, Orol, O'lik dengizlari.

Dunyodagi yirik ko'llar

Nomi	Maydoni, km ²	Eng chuqur qismi, m	Mutlaq balandligi, m.
Kaspiy	394	980	-28
Yugori	82	308	183
Orol	66	68	53
Tangan'ika	33	1435	773
Baykal	31	1741	453

Ladoga	18	225	4
Balkash	19	26	340
Onega	10	110	33
Issiqko'l	6	702	1609

Ko'llar genezisi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi: tektonik, vulkanik, muzlik, qayir, delta, dengiz bo'y, karst, ko'chki va eol ko'llari.

Inson faoliyati natijasida paydo bo'lgan sun'iy ko'llar ham mavjud bo'lib, ular bugungi kunda ko'pchilikni tashkil qiladi. Faqat O'zbekistonning o'zida ulardan bir necha o'ntasi bунyod etilgan: Chorvoq, Toshkent, Kattaqo'r'gon, Hisorak, To'palang va h.k.

Ko'llar suvining tarkibiga ko'ra sho'r va chuchuk suvli turlarga ajratiladi. sho'r ko'llarga Markaziy Osiyoda Kaspiy, Orol, Balkash, Bos-qunchoq, Elton kabilarni ko'rsatish mumkin.

Chuchuk ko'llarga Rossiyadagi Baykal, Kavkazdagagi Sevan, Ritsa, (35-rasm), Qirg'izistonidagi Issiqko'l, Tojikistonidagi Sarez ko'llari kiradi. Ko'llarning umri dengizlarnikidan ancha qisqa bo'lib, bir necha o'n yildan ko'p ming yilgacha boradi.



35-rasm. Gruziyadagi Ritsa ko'lli (V.I.Serpuhov bo'yicha).

Ko'llarga daryolar bilan katta miqdorda temir gidrooksidi larining oqib kelishi oqibatida bakteriyalar ishtirokida temirning sanoat to'plamlari hosil bo'lishi mumkin.

Sho'r ko'lllar cho'kindisi. Ko'llardagi tuzlar kontsentratsiyasining yuqori bo'l shiga sabab - quruq iqlim, mineral eritmalar ning oqib kelishi va chuchuk suvning ko'lg'a kelmasligi hisoblanadi. Ko'llardagi tuzlar kontsentratsiyasi yuqori darajaga etganda suv kuchli namakobga aylanadi. Bunday suv r a p a deb ataladi. Rapaning issiqlik ta'sirida kuchli bug'lanishi natijasida tuzlarning cho'kishi boshlanadi. Bu tuzlar: soda, gips, galit, mirabilit, glauberit bo'lishi mumkin. Sho'r ko'llarda bo'lakli va organogen cho'kindilar juda kam miqdorda uchraydi. Tuzlar bilan boshqa yotqiziqlarning qatlamlanishi ko'llarning rivojlanishi bosqichlarida ta'minlanish tartibining o'zgaganidan darak beradi.


Ular quriydi, ya'ni halok boladi. Ularning qoldiqlari to'planib, qisman kimyoiy parchalanib, qo'ng'ir rangli torf deb ataluvchi massaga aylanadi. Torf bilan birga ba'zi botqoqliklarda temir va marqanets ma'danlari to'planadi.

Ko'l va botqoqliklarning foydali qazilmalari. Dengiz, laguna, ko'l va botqoqliklarning geologik faoliyatini chuqur o'rganish ko'pincha foydali qazilmalarning hosil bo'lish sharoitini aniqlashga yordam beradi. Olib borilgan kuzatishlar va izlanishlar tuzlar, ayniqsa yonuvchi foydali qazilmalarning paydo bo'lishi ko'l va botqoqliklar bilan chambarchas boq'liq ekanini ko'satdi.

Botqoqlik o'simliklarining birinchi bosqichdagi parchalanib o'zgarishidan torf hosil bo'lsa, keyingi bosqichda torf qo'ng'ir ko'mirga aylanadi. Agar torf hosil bo'lishi uchun o'nlab-yuzlab yil kerak bo'lsa, torfning qo'ng'ir ko'mirga aylanishi uchun yuz minglab yil talab etiladi va bu jarayon boshqa jinslarning qalın qatlami ostida ro'y beradi (36-rasm).

Qo'ng'ir ko'mirning toshko'mirga aylanishi yuqori harorat va bosim ostida kechadi.

Yirik ko'mir qatlamlari odatda tropik va subtropik iqlimli dengiz bo'yidagi yirik botqoqliklarda vujudga keladi. Ko'mir qatlamlari orasida dengiz yotqiziqlarining uchrashi botqoqlik yuzasining ko'tarilib, cho'kib turqanliqidan dalolat beradi.



36-rasm. Ko'l tagida cho'kindi to'planish chizmasi: I-o'simlik o'smaydigan zona, II-III-IV-o'simlik o'sadigan zonalar, Y-botqoqlik; 1-qum; 2-sapropel; 3-torfli sapropel; 4-qamishli torf; 5-6-o'tli torf (Ya.M.Levites bo'yicha).

O'simliklar tanasi asosan uglerod, vodorod, kislorod va azotdan tuzilgan bo'ladi. Torfning ko'mirga aylanishida uglerod miqdori oshib boradi va kislorod, vodorod hamda azot miqdori kamayib boradi.

Yonuvchi gazlar va neft umumiyligi nom bilan b i t u m l a r deb ataladi va ular gaz va suyuq xoldagi uglevodorodli birikmalarini tashkil qiladi.

Rus olimi, akademik I.M.Gubkin ta'liloti bo'yicha bitumlar organizmlar hisobiga hosil bo'ladigan organik birikmalardan vujudga keladi. Organik birikmalarning neft va boshqa bitumlarga aylanishi yer yuzasidan 2-4 km chuqurlikda, yuqori harorat ostida kechadigan jarayon hisoblanadi. Yirik neft va gaz konlari ularning g'ovak jinslarda to'planishidan hosil bo'ladi. Shuning uchun neft paydo qiluvchi va neft saqlayochi qatlamlar ajratiladi.

Neft paydo qiluvchi qatlamlar laguna, dengizning sayoz qismi va quruqlik ichkarisidagi suv havzalarida organik dunyo keng rivojlangan va ilk cho'kindi to'planadigan sharoitda shakllanadi. Kuchli bosim va harorat ostida ular neft saqlovchi qatlamlarda (kollektordarda) yiq'iladi.

19-§. Muzlikning geologik ishi

Muzliklar ulkan yemirish, eltish va bunyodkorlik ishlarini bajaradi.

Hozirgi muzliklar yer yuzasining 11% ini qoplab yetibdi va ular yuzasi $16\text{mln}.\text{km}^2$ ni tashkil etadi. Shundan 99% qutblardagi muzliklarga, 0,5% esa tog' muzliklari hissasiga to'g'ri keladi. Olib borilayotgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, muzliklar maydoni yil sayin qisqarib bormoqda.

Kavkaz, Tyan-Shan, Pomir va Oloy muzliklari oxirgi 100 yilda 10 % ga qisqargan. Pomirdagi eng yirik Fedchenko muzligi tili oxirgi 50 yilda $2,5 \text{ km}$ ga qisqargan. Muzliklar o'zida $27 \text{ mln}.\text{km}^3$ hajmdagi chuchuk suvni yig'ib olgan. Agar ana shu hajmdagi muzlik eritisla, Dunyo okeani yuzasi 66 m ga ko'tarilishi mumkin. Faqat Antarktida muzligining o'zi eritisla, uning suvi yer sharidagi barcha daryolarni 830 yil ta'minlashga etadi.

Yerning rivojlanish tarixida muzliklarning egallagan maydoni hozirgidan bir necha barobar katta bo'lgan davrlar bo'lgan. Dastlabki muz bosish proterozoy erasida Shimoliy Amerikani, yuqori karbon davrida Afikaning janubini, Janubiy Amerika va Avstraliyani qoplagan.

Keyingi muz bosishlar perm, trias va eng oxirgisi neogen oxirida-antropogen boshlarida ro'y bergan. Oxirgi muz bosish "buyuk to'rtlamchi muzlanish" deb ham ataladi. Uning dastlabki yuzasi 50 mln. km^2 , hajmi esa 100 mln. km^3 ni tashkil etgan. Uning bir qismi erib, (19 ming yil avval) dunyo okeani sathi 180 m ko'tarilgan. Hozirgi shimoliy va Boltiq dengizlari o'rni o'sha davrda Dunyo okeani kirg'og'i bo'lgan.

Muzlikning hosil bo'lishi. Muzliklar asosan qorning katta hajmda to'planishidan vujudga keladi. Uning to'planishi yillik o'rtacha harorat 0°S dan ko'tarilmaydigan joylarda ro'y beradi.

To'plangan qorning yozda ham erib ulgurmaydigan shartli chizig'i q o r ch i z i g' i yoki q o r ch e g a r a s i deb nomlanadi

Muzlik oddiy suvning tabiatda kristall holatga o'tishi natijasida hosil bo'ladi. Qor o'zining to'planishi jarayonida asta-sekin zichlashadi, kristallar donador bo'llib shakllanadi va bu qor yetib "firm", ya'ni "donador qor" deb ataladi. Keyingi davom etadigan zichlashishda qor donalari orasidagi havo siqib chiqariladi va firm o'ta zich, shaffof, ko'k rangda tovlanuvchi, donador strukturali g l e t c h e r m u z i g a aylanadi. Gletcher muzi no'hotdan tovuq tuxumigacha keladigan yirik donalardan

iborat bo'ladi. 1 m^3 gletcher muzi $900-960 \text{ kg}$ keladi. Oddiy qorning 11m^3 hajmidan 1m^3 gletcher muzini Antarktida sharoitida olish mumkin. Qalinligi 50 m li qorning gletcher muziga aylanishi uchun kamida 200 yil talab etiladi. Tog'li muzliklar uchun esa $50-60 \text{ yil}$ kerak bo'ladi.

O'rta Osiyo tog'laridagi hozirgi muzliklar maydoni 11 ming. km^2 yuzani tashkil etadi. Bular Pomirda Fedchenko (uzunligi 98km), Tyan-Shanda Chirchiq (80km), Zarafshon (24km), Mushketov kabi muzliklardir. Qor chizig'i shimoliy Tyan-Shanda (Jung'oriya Olatovida) $3000-3800\text{m}$ dan, Markaziy Tyan-Shanda 4200 m dan, Pomirda esa 5200 m va bundan ham balanddan o'tadi. Antarktida muzligini kuzatayotgan olimlarning mal'lumoti bo'yicha uning yuzasi bir yilda 4 sm ga ko'tarilib bormoqda.

Muzliklar bir qancha sabablarga ko'ra turlicha tezlikda harakatlanadi. Qalin muzliklar tezroq, yupqa muzliklar esa sekin harakatlanadi. Tik yon bag'irlarda muzliklar juda tez harakat qiladi. Kechasiga qaraganda kunduzi, qishga qaraganda yozda tezroq harakatlanadi. Muzliklar harakatining tezligi uncha katta bo'lmaydi: sutkasiga bir necha 10 mm . dan bir necha 10 sm gacha, kam hollarda $3-7\text{m}$ ni (Pomir va Himolayda) tashkil etadi. Grenlandiyadagi muzliklar sutkasiga $5-25 \text{ m}$ ga surilishi kuzatilgan.

Muzlik turlari. Muzliklarning ikki katta guruhi ajratiladi:

1) materik yoki qoplama muzliklar; 2..tog' muzliklari.

Q o p l a m a m u z l i k l a r asosan qutblarda (Arktika, Antarktida) va Grenlandiyada joylashgan. Bunday muzliklar yuzasi odatda qabariq ko'rinishda bo'ladi va markazdan har tarafga qarab oqadi. Dengiz qirg'og'iga etib, uning sayoz qismini egallaydi. Dengiz ichkarisiga kirib borgan sayin uning chekka qismlari bo'laklarga bo'linib sinadi va suzib yuruvchi tog'lar, ya'ni a y s b e r g l a r vujudga keladi. Aysberglarning asosiy qismi suv ostida bo'ladi va faqat oltidan bir qismi suv yuzasida ko'rinhil turadi. Suv osti qismining qalinligi 500 m gacha, suv yuzasidagi qalinligi $800-100 \text{ m}$, uzunligi esa $100-150 \text{ km}$ gacha boradi.

Artarktida muzligining o'rtacha qalinligi 2000 m , maksimal qalinligi esa 4335 m .

Grenlandiya muzligining qalinligi markazida 3408 m ni tashkil etadi. Bu muzliklarning yoshi $1500-3000 \text{ yil}$ hisoblanadi.

Tog'muzliklari asosan tog'larga xos bo'lib, ularning bir necha turi ajratiladi: vodiy, yulduz shaklidagi, osma, shar shaklidagi, krater muzliklari va h.k. Bulardan vodiy muzliklari asosi o'rinni egallaydi va Alp, Kavkaz, Pomir, Himolay, Tyan-Shan tog'laridagi asosiy muzliklarni o'z ichiga oladi. Jumladan, Tyan-Shandagi Chirchiq, Pomirdagi Fedchenko (qalinligi 1 km, kengligi 4 km, uzunligi 74 km) muzliklari shular jumlasidandir.



37-rasm. Pomirdagi Fedchenko muzligi (A.M.Gorbachev bo'yicha).

Muzlikning yemirish ishi. Muzliklar o'z harakati davomida ulkan yemirish ishlarini bajaradi. Uncha qalin bo'lmagan (100 m) muzlik osti yuzasi (1 m^2)ga 100 t kuch bilan bosadi. U huddi ulkan dazmol singari o'z yo'lida rel'efni tekislaydi yoki ulkan plug kabi yerni haydagandek tubini o'yib ketadi; tog' jinslarini tegirmondekkun qilib yanchadi. Muzlikning tog' jinslarini yemirishi, o'yishi va silliqlashi geologiyada "ekzaratsiya" (lotincha "ekzaratsio"-yer haydash, kavlash) deb ataladi.

Muzlik ishlov bergan vodiylar ko'ndalang kesimi tog'ora

ko'rinishida bo'ladi va trog deb ataladi.

Muzlik ko'proq o'z yo'lida uchraydigan qoyatoshlarning ko'rinishini o'zgartiradi. Uning bergen ishlovidan so'ng qoyatoshlar tekislanib silliqlangan gumbazsimon tepaliklarga aylanadi. Bunday dumaloqlangan qoyalar "qo'y peshona" deb ataladi.

Muzlikning eltish va toplash ishi. Muzlik to'plagan yoki yotqizgan bo'shoq bo'lakli material morena va tashgan bo'lakli jinslar va muzlik harakati davomida o'z tubini yemirib, ishlov berishidan hosil bo'ladi. Morenalar asosan to'rt xil: yon, ustki, ichki va ostki morenalar bo'ladi. Ustki morenalar asosan muzlikka atrofdagi yonbag'irlardan sinib va uvalanib tushgan jins bo'laklaridir. Ichki morenalar - muzlik tanasida joylashgan morenalardir. Ular muzlik yoriqlaridan ustki morenalarining ichkariga kirishi natijasida paydo bo'ladi (38-rasm). Ostki morenalar muzlikning harakati vaqtida ostidagi tog' jinsi bo'laklarini o'z tanasiga botirib olishidan vujudga keladi. Proterozoy erasi morenalari metamorflashgan, paleozoy morenalari tsementlashgan, kaynozoy morenalari esa bo'shoq yoki biroz zichlashgan bo'ladi.


Kaynozoygacha bo'lgan morenalar "tillitlar" deb ataladi.

Muzlik yotqiziqlarining ikkinchi turi "muzlik suvi" yoki flyuvius (lot "flyuvius"-oqim, glyatsios"-muz). ularning asosiy qismini qum va shag'allar tashkil qiladi. Muzlik o'rnda va uning old qismida muzlik suvi yotqiziqlari turli relief shakllarini vujudga keltiradi. Ulardan eng muhimlari ozlar, kamlar va zandralar hisoblanadi.

Ozlar-muzlik yo'nalishi bo'yicha uzunasiga cho'zilgan qum egatlari. Ular uzunligi 100-500 m ga va xatto o'lab km ga boradi.

Kamlar-balандлиги 10-12 m lik qum tepaliklaridir.

Zandralar-oxirgi morenalardan so'ng qumdan hosil bo'lgan katta maydonlardir.



38-rasm. Vodiy muzligining ko'ndalang kesmasi: L-yon morenalar; M-o'rta morenalar; R-ichki morenalar; T-ostki (tag) morenalar
(Sh.Shorahmedov bo'yicha).

Qadimgi muzliklar

Muzlik yotqiziqlari, ular hosil qilgan rel'ef shakllari va boshqalar muzliklarning rivojlanish tarixini o'rganishga katta yordam beradi. Olib borilgan izlanishlar yerning rivojlanishi tarixida beshta muzlik davrlari, ya'ni yer yuzasining katta qismini muzlik qoplаб olgan davrlar bo'lganligini ko'rsatdi. Ulardan eng qadimgisi proterozoyda, keyingilari perm, trias va eng so'nggisi oxirgi neogen-antropogen boshlarida ro'y bergan. Qadimgi muzliklar yotqiziqlari chuqur metamorfik o'zgarishlarga uchragani sababli, ularni o'rganish ancha qiyinchilik tug'diradi. Antropogen muzliklari ancha keng o'rganilgan va ular ko'p joylarda hozirgi yer yuzasi rel'efini tashkil etadi.

Antropogen davri muzliklari yer yuzasining 26% qismini egallab olgan va bu 39 mln.km²ni tashkil yetadi. O'sha davrda Yevropa, Osiyo

va shimoliy Amerikaning shimoliy qismlari muz bilan qoplangan. Kavkaz, Tyan-shan va Pomir tog'larida qor chizig'i juda pastga, ya'ni, dengiz yuzasidan 600-800m balandlikka tushib qolgan.

Muzliklar vaqtı-vaqtı bilan bostirib va chekinib turgan. Bunday davrlarni ba'zi olimlar to'rt marta, ayrimlari uch marta deb hisoblaydi. Muzliklar o'zi bilan shimol tomonlardan katta miqdorda janub uchun xos bo'lмаган bo'lakli jinslarni olib kelib yotqizgan, o'ziga xos muzlik rel'eflarini hosil qilgan. Quruqlikdagi muzliklar hajmining nixoyatda katta bo'lishi dunyo okeani suvi sathining 160 m ga pasayishiga sabab bo'lgan.

Antropogen davri muzliklarining bu qadar katta ko'lamda tarqalishining sabablari to'g'risida turli fikr va gipotezalar paydo bo'ldi. Muzliklarning paydo bo'lishini kosmik ta'sir, yerning o'z xolatini o'zgartirishi va sayyoramiz yuzasida rivojlangan turli hodisa va jarayonlar bilan bog'laydilar.

Kosmik gipotezalar muzliklarning paydo bo'lishini Quyoshning oq bosqichdan sariq bosqichga o'tish davri bilan, uning tumanlik orasidan o'tishi, radiatsiyasining o'zgarishi, yer o'qi va orbitasining o'zgarishi kabilar bilan tushuntiradi.

Boshqa gipotezalar vulkanizm natijasida yer atmosferasi issiqlik rejimining o'zgarishi bilan tushuntiradi.

Muzliklarning er po'stidagi tog' hosil bo'lishi jarayonlari bilan bog'lovchi gipoteza ko'pchilik tomonidan tan olingen gipoteza hisoblanadi. Bu gipotezaga asosan yerning rivojlanishi tarixida turli joylarda tog' hosil bo'lishi jarayonlari keng rivojlangan. Bu quruqlikda balandliklar maydonining ko'payishiga va iqlimining o'zgarishiga, ya'ni sovushiga olib kelgan. Lekin bu gipoteza ham nima uchun mezozoyda va kaynozoy boshlarida tog' hosil bo'lishi jarayonlari ro'y bergen bo'lsa ham, muzliklar paydo bo'lмаганни asoslab bera olmaydi.

Bu masalaga yerda iqlimning o'zgarishiga sabab bo'igan barcha ichki va tashqi omillarni hisobga olgan gipotezagina oydinlik kiritishi mumkin.

20-§. Cho'kindilar diagenezi

Dengiz, ko'l, botqoqlik va boshqa ekzogen omillarning geologik

ishi natijasida turli fizik-kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar ta'sirida cho'kindilar bir necha yuz ming yillar davomida o'z qiyofasi va tarkibini o'zgartirib cho'kindi tog' jinslariga aylanadi.

Cho'kindilarning cho'kindi tog' jinsiga aylanishi jarayoni d i a g e n e z deb ataladi (grek. "diagenezis"-qayta tug'ilish, paydo bo'lish).

Diagenez jarayoni quyidagi oladi: 1) namlikning kamayishi, 2) zichlashish, 3) tsementlashish, 4) qayta kristallahish, 5) erish va yangi minerallarning vujudga kelishi, cho'kindining tog' jinsiga aylanishi tezligi, darajasi cho'kindining tarkibi, zarralar o'lchamlari va bir xil tarkibligiga bog'liq. Bir xil cho'kindilar (qum, shag'al) kam o'zgaradi va faqat tsemenlashadi, boshqalari esa juda chuqr o'zgarishlarga duch keladi.

Diagenez jarayonida bakteriyalar ham faol ishtirok etadi. Ular cho'kmadagi organik moddalarni parchalaydi yoki qayta paydo qiladi. (masalan, torf va neft kabi).

Tog' jinslari keyinchalik yana o'zgarishi mumkin. Masalan, bo'shoq tog' jinslari ularning bo'shilqlarida yer osti suvlaridan tuzlarning ajralib cho'kishi natijasida zich jinslarga aylanishi mumkin. Huddi shu sababli bo'shoq va zich tog' jinslari bo'shilq va g'ovaklarida turli konkretsiyalar hosil bo'lishi mumkin.

Cho'kindining tog' jinsiga aylanishi juda uzoq kechadigan jarayon bo'lib, ming va hatto million yil davom etishi mumkin.

Endogen geologik jarayonlar

Endogen geologik jarayonlar ekzogen jarayonlardan sharoiti, ko'lami va fizik-kimyoviy muhiti bilan tubdan farq qiladi. Endogen geologik jarayonlar katta chuqurlikda yuqori harorat va bosim ostida kechadi. U yerdagi mineral va ma'dan hosil qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir:

1. qizigan gazlar;
2. gidrotermal (gidro – suv, termal - issiq) eritmalar;
3. mantiyada vujudga keluvchi olovsimon suyuq magmatik qotishma.

Mana shularning fizik-kimyoviy o'zgarishlari natijasida hosil bo'luychi ulkan quvvat chuqurlikda moddalarni taqsimlaydi va yer

po'stida turli harakatlarni keltirib chiqaradi. Natijada yer po'stida tog' jinslari burmalarga bukiladi, yoriladi.

Yer qa'rida kechadigan endogen geologik jarayonlarni to'g'ridan-to'g'ri kuzatish va o'rganish mushkul ish. Shuning uchun ular chuqr o'rganilmagan.

Endogen geologik jarayonlarni har tomonlama o'rganish ularni quyidagi turlarga: magmatizm, vulkanizm, metamorfizm va tektonik harakatlarga ajratish imkonini beradi.

21-§. Magmatizm

Magmatik jarayonlar yerdagi hayotning va yer po'stining rivojlanishida ulkan ahamiyatga ega. "Magmatizm" deganda yerning chuqr qa'rida paydo bo'lib, yer yuzasiga intiluvchi olovsimon suyuq qorishma – magma bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar tushuniladi.

Magmaning yer po'sti ichkarisida kristallahib qotishi yoki yer yuzasiga otilib chiqib qotishiga qarab magmatizm ikki turga ajratiladi:

1. intruziv magmatizm;
2. effuziv magmatizm.

Ikkinchi, ya'ni effuziv magmatizm "vulkanizm" deb ham ataladi. Vulkanizm – keng ma'nodagi magmatizm jarayonining bir ko'rinishidir.

Magma – murakkab silikat tarkibli olovsimon suyuq massadir. Uning asosiy qismi kremlniy oksidi (SiO_2)dan iborat bo'lib, uning miqdori 40 dan 70% gacha boradi. Qolgani alyuminiy, temir, magniy, kaltsiy, natriy va boshqa elementlar oksidlariga to'g'ri keladi. Magmaning bir qismi gazlar va metallarning birikmalaridan iborat bo'lib, uning birlamchi o'choqlarini paydo qiluvchi modda mantianing yuqori va yer po'stining quiy qismida yuqori bosim va harorat ostida qattiq holda bo'ladi.

Yer po'stida paydo bo'luychi o'ta chuqr siniqlar ta'sirida bosim kamayishi natijasida bu modda suyuqlikka aylanadi va dastlabki magma o'choqlari vujudga kelib, undan magma yer po'sti yuqori qismiga kirib boradi. Keyinroq bu magmaning qayta bo'linishi va boshqa jarayonlar natijasida ikkilamchi magma va turli magmatik jinslar hosil bo'ladi.

Birlamchi magma mantiya qobig'ining moddasidan ajralib chiqqan qorishma bo'lib, tarkibi bo'yicha asosli va o'ta asosli jinslarga yaqin bo'ladi. Undan ikkilamchi (nordon, o'rta va h.k.) magmalar hosil bo'ladi.

Magmadan paydo bo'lувчи tog' jinslarining xilma-xilligi magmaning bo'linishi, ya'ni differentsiatsiyalanishi natijasidir. Differentsiatsiyalanish juda murakkab fizik-kimyoviy jarayon bo'lib magma hali qaynoqlik paytida sodir bo'ladi. Magmaning differentsiatsiyalanishi ikki xil bo'ladi:

1. magmatik yoki likvatsion (lot "likvatsio"-suyulish) differentsiatsiyalanish;

2. kristalli differentsiatsiyalanish.

Magmatik differentsiatsiyalanishda ancha og'ir bo'lgan birikmalar magma tubiga cho'kib, qavatlanishni paydo qiladi.

Kristalli differentsiatsiyalanish jarayonida esa avval erish harorati yuqori bo'lgan minerallar, so'ng ancha past haroratlari minerallar paydo bo'ladi.

Oxirgi yakunlovchi kristallahish fazasida esa magma gazlar va suv bug'lari bilan ancha boyib, erkin harakatlanuvchi va yoriqlarga oson kirib boruvchi suyuqlikka aylanadi.

Magmaning ana shu fazasi bilan pegmatit, pnevmatolit va gidrotermal jarayonlar bog'liq (grek. "pnevmo"-havo).

Pegmatit jarayon yirik kristalli tomir, linza va uya shaklidagi tanalarni (pegmatitlarni) paydo qiladi.

Pnevmatolit jarayon magma bilan yondosh jinslar chegarasida, ya'ni kontaktida sodir bo'ladi.

Gidrotermal jarayon esa gidroterma, ya'ni issiq suvli eritmalarining tog' jinslari yoriqlari bo'ylab harakatlanib, gidrotermal tomirlar hosil bo'lischidir.

Magmatik tana shakllari. Magma yerning chuqur qa'rida sovib shakli, c'ichamlari va sharoiti bo'yicha turli tanalarni hosil qiladi. Tanalar ikkiga bo'linadi: 1) o'ta chuqurlikdagi, 2) yuzadagi tanalar.

O'ta chuqurlikdagi magmatik tanalarga batolit va shtoklar kirdi.


B a t o l i t l a r (grek. "batos" - chuqurlik) – ildizi yer po'stining o'ta chuqur qismiga kirib boruvchi noto'g'ri shaklidagi juda katta

magmatik tanalardir. Ularning maydoni 200 km² dan oshiq bo'lib, uzunligi ba'zan 500 km ga boradi. O'zbekistondagi Nurota va Qoratepa batolitlari ana shunday tanalardan hisoblanadi.

S h t o k l a r ham noto'g'ri shaklidagi tanalar bo'lib, maydoni 200 km² dan kam bo'ladi va ko'pincha batolitlar bilan bog'langan yoki uning bir qismi hisoblanadi.

Yuzadagi magmatik tanalar nisbatan kam chuqurlikda vujudga keladi. Ularga quyidagilar kirdi:

L a k k o l i t – yassi, do'mboq, gumbazimon yoki qo'ziqorin shaklidagi tana bo'lib, diametri yuzlab metrgacha, ba'zan kilometrgacha bo'lishi mumkin (39-rasm).



39-rasm. Lakkolit(a va b) va lopolit (v) (V.I.Serpuhov bo'yicha).


L o p o l i t – grek tilida "tovoq", "hovuz" ma'nosini beradi. Lakkolitga o'xshash shakl hosil qiladi, faqat osti lagan kabi botiq bo'ladi (40-rasm).

S i l l i – Cho'kindi jinslar qatlamlari orasida ularga mos holda joylashgan magmatik tanalar bo'lib, yagona oqib chiquvchi kanal orqali bir-biri bilan birlashgan bo'ladi (40-rasm).

N e k k – tsilindrsimon magmatik tana. "Vulkan bo'yin" deb ham ataladi. Yuqorida qaraganda ko'proq dumaloq yoki oval shaklda bo'ladi.

D a y k a – tik paxsa devor ko'rinishidagi tana bo'lib, qaliniigi bir necha sm. dan 1000-1500 m. gacha, uzunligi esa bir necha metr dan yuzlab km. ga yetadi.

T o m i r l a r – daykaga o'xshash bo'lib, ulardan kichikligi bilan farq qiladi. Shakli noto'g'ri, to'lqinsimon tomirlar ko'rinishida bo'ladi. Tog' jinslaridagi yoriqlarda vujudga keladi.




40-rasm. Cho'kindi jinslar orasidagi sill (qora rangda)
(V.I.Serpuhov bo'yicha).

22-§. Vulkanizm

Magmaning yer yuzasiga otilib chiqishi "vulkanizm" deb ataladi. Tashqariga chiqqan magmaga "I a v a" deyiladi. Lavaning tarkibi magmanikidan sezilarli darajada farq qiladi, ya'ni lavada uchuvchi moddalar yo'q bo'ladi.


"Vulkan" so'zi qadimgi rimliklarda "olov xudosi"ni ifodalagan. Geologiyada esa "vulkan" atamasi magmaning yer yuzasiga chiqadigan dumaloq yoki darzlik ko'rinishidagi yoriqni bildiradi. Vulkanning tuzilishida bo'g'iz, krater va konus kabi qismlar ajratiladi (41, 42-rasm).




41-rasm. Italiyaning Apennin yarim orolidagi Santorin vulkanining hosil bo'lishi jarayoni
(V.A.Aprodov bo'yicha).



Bo'g'iz (jerlo) – vulkan mahsuloti yer yuzasiga ko'tariladigan kanal. "Krater" deb vulkan og'zidagi kosa shaklidagi chuqurlikka aytildi. Otilib chiqqan vulkan mahsulotlari krater atrofida kesik konus shaklida tog' paydo qiladi. Vulkanlar kanali tuzilishiga ko'ra ikki katta guruhga ajratiladi: 1) yoriq vulkanlari va 2)



markaziy (halqasimon kanalli) vulkanlar. Yer yuzasida joylashuviga ko'ra: 1) yer usti va 2) suv osti vulkanlari mavjud.



42-rasm. Rossianing Kamchatka orolidagi Ploskiy harakatdagい vulkani (V.A.Aprodov bo'yicha).

Faolligi bo'yicha vulkanlar ikki xil bo'ladi: 1) harakatdagи va 2) so'nggan vulkanlar.

Vulkan mahsulotlari uchga bo'linadi: gaz, qattiq va suyuq mahsulotlar.


G a z s i m o n m a h s u l o t l a r. Bularga suv bug'lari, karbonat angidridi (CO_2), vodorod (H_2), ammiak (NH_3), vodorod sulfidi (H_2S), xlor (Cl_2), vodorod xloridi (HCl), metan (CH_4), azot (N_2), oltingugurt oksidi (SO_2) va boshqalar kiradi.

Q a t t i q m a h s u l o t l a r. Vulkanning qattiq mahsulotlari "piroklastik" (grek. "pir" – olov, "klastikos" - maydalangan) material yoki "yotqiziq" deb ham ataladi. Ularga vulkan kuli va qumi, lapillalar va vulkan bombasi kiradi. Ular to'planib, tsementlashib, "vulkan tuflari" deb ataluvchi tog' jinslarini hosil qiladi.

V u l k a n k o' l i o'lchami 1 mm lava_tomchilarining xavoda sovishidan paydo bo'ladi va chang ko'rinishida yuqoriga ko'tariladi. Shamol yordamida minglab km. masofalarga tarqaladi va oppoq qor ko'rinishida yerga yog'ib, shahar va qishloqlarni ko'mib yuborishi mumkin. Eramiz boshlarida (79-yil) qadimgi rim shaharlari Pompey, Stabiya va Gerkulapum Vezuviy vulkani kuli ostida qolib ketgani tarixdan ma'lum.

L a p i l l a r (ital. - toshchalar) kattaligi no'hotdek, yong'oqdek bo'lgan lavaning qotgan bo'laklaridir.

V u l k a n b o m b a l a r i n i lavaning qotgan yirik bo'laklari (yong'oqdan katta bo'lib, bir necha tonnagacha) tashkil etadi (43-rasm).



43-rasm. Vulkan bombalari.

S u y u q m a h s u l o t l a r. Ularga lava, ya'ni er yuzasiga otlib chiqqan magma kiradi. Tarkibidagi SiO₂ ning miqdoriga qarab, lava suyuq va quyuq bo'lishi mumkin. Quyuq lavaning qotishidan engil, g'ovakli jins – p e m z a hosil bo'ladi.

V u l k a n q u m i kulga nisbatan yirikroq bo'lgan o'lchamlarni 1-2 mm ni tashkil qiladi.

Lava yer yuzasida qotib, qoplama va uzunligi 100 km. gacha boradigan oqimlarni paydo qiladi.

Vulkanlar otlish xususiyatiga ko'ra uch toifaga bo'linadi: lavali,

aralash va gazli-portlovchi vulkanlar. Bundan tashqari o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ham vulkanlar yoriqli, Gavay, Stromboli, Vulkan, Etno-Vezuvian, Mon-Pele, Katmay, Krakatau, Bandaysan kabi tiplarga ajratiladi.

P o s t v u l k a n i k j a r a y o n l a r. "Post" rus tilidan "so'ng", "keyin" degan ma'nolarni anglatadi.


Markaziy vulkanlar o'z faoliyatini ko'p marta qayta tiklashi mumkin. Oraliq vaqt qisqa yoki uzoq bo'lishi mumkin. Vulkanlar faoliyati davrini uch fazaga bo'lish mumkin: boshlang'ich, asosiy va yakunlovchi (postvulkanik) fazalar. Yakunlovchi – postvulkanik fazada vulkan juda kuchsizlanadi. Bu fazada faqat suv bug'lari va gazlar otlib chiqadi. Vulkan krateri yoki yonbag'irlaridan gazlarning chiqishi f u m a r o l a l a r deb ataladi. Fumarolalar harakati 500°S atrofida bo'ladi. Agar harorati 200°-100°S bo'lsa , s o l ' f a t a r l a r, 100°S dan past haroratlisi - m o f e t l a r deb ataladi.

Yer yuzasiga kuchli bosim ostida davriy ravishda qaynoq suv va suv bug'larini otib turuvchi buloqlar "geyzerlar" ("geyzer" – Islandiyaning Geyzer viloyatida birinchi marta shunday buloqlar o'rganilgan) deb ataladi (44, 45rasm). Geyzerlar suvi odatda kuchsiz mineral-lashgan bo'ladi. Ular tarkibida har 1 m hisobida 1,5 – 2 g natriy, kaltsiy, magniy va suvli kremnezem bo'ladi.



44-rasm. AQSHdagi Yellowston milliy parkidagi geyzer (V.A.Aprodov bo'yicha).

Suv soviganda kremnezem Cho'kmaga cho'kib, g'ovakli kremniyli jins—geyzeritni hosil qiladi. Harakatdagi vulkanlar hududida termal (issiq) suvlari ham keng tarqalgan bo'ladi (46-rasm).



45-rasm. Geyzerning hosil bo'lishi jarayoni.

Balchili vulkanlar postvulkanik jarayonlarning bir ko'rinishi hisoblanadi. Ular qaynoq gazlar va suv bug'larining qumgilli qatlamlar orasidan o'tishi natijasida hosil bo'ladi. Qaynoq bug'gillarni suyultirib, yer yuziga chiqarib tashlaydi.

Suyuq balchiq crater og'zini to'ldirib, baqir—baqir qaynab turadi. Bunday vulkanlar Rossiyaning Kamchatka viloyatida, Italiyaning Sitsiliya orolida, Indoneziyaning Yava orollarida keng tarqalgan.

Vulkanizm faqat quruqlikda yuz bermaydi, suv ostida ham keng tarqalgan. Suv ostida vulkanlari chiqarib tashlagan mahsulotdan okean ostida sayozliklar va yangi orollar paydo bo'ladi. Ular suv yuzasidan 5–10 km kenglikdagi vulkan konuslarini hosil qiladi. Keyinchalik to'lqin kuchi ta'sirida yemirilib, dengiz va okean osti yotqiziqlari bilan qo'shilib ketadi.



46-rasm. AQSHdagi Yellowstone milliy parkidagi geyzer atrofida geyzerit jinslarning paydo bo'lishi (V.A.Aprodov bo'yicha).

Vulkanlarning tarqalishi. Hozirda yer yuzida 550 ga yaqin harakatdagi vulkanlar mavjud bo'lib, shulardan 70 ga yaqini suv osti vulkanlaridir. So'nggan va qayta harakatlanmagan, ammo, o'z tuzilishi va shaklini yo'qotmagan vulkanlar soni harakatdagi vulkanlardan 5–6 barobar ko'p hisoblanadi.

Vulkanlar yer yuzida bir tekis tarqalmagan. Ular asosan tektonik harakatlar kuchli bo'lgan mintaqalarda keng rivojlangan. Bunday mintaqalarda tektonik jarayonlar natijasida chuqr siniqlar, o'pirilishlar, ko'tarilish va cho'kishlar ro'y beradi va burmalanishlar, zilzilalar hamda vulkan harakatlari kuzatiladi. Yer yuzida bunday tektonik harakatlarning asosiy mintaqalari Tinch okeani, O'rta yer dengizi, Atlantika va Hindiston zonalari hisoblanadi va hozirgi vulkanlarning asosiy qismi shu zonalarga to'g'ri keladi.

Tektonik harakatlar

Yer sharning ichki qismida juda murakkab harakatlar sodir bo'ladi. Bularni biz tog'larning paydo bo'lishi, zilzilalar, yer yuzasining tebranma harakatlari, tog' jinslarining birlamchi yotish shakllarini o'zgartirishi va boshqa biegelardan bilamiz.

Yer po'stidagi barcha tabiiy harakatlar tektontika (grech. "tektonos"-yaratuvchi, quruvchi) harakatlari deb ataladi. Ular umumiylar qilish yo'nalishiga ko'ra vertikal va gorizontal, tezligi bo'yicha bir maromda va keskin, vaqt bo'yicha ohista va tez, davomiyligi bo'yicha esa doimiy va davriy kabi turlarga bo'linadi.

Tektonik harakatning asosiy sabablari bo'lib:

1. Yer qa'rida kechadigan radioaktiv parchalanish energiyasi
2. Yerning gravitatsiya energiyasi
3. Quyoshning va Oyning tortish kuchi
4. Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishi hisoblanadi.

Tektonik harakatlar to'g'risidagi fikrlar eramizdan avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan va keyinchalik, geologiya fanining rivojlanishi bilan eng muhim tushunchaga aylandi.

Tektonik harakatlarni tasniflash bilan juda ko'p olimlar shug'ullanganlar. Taklif etilgan tasniflarning barchasi bir-biriga yaqin bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi, yoki qisman farq qiladi.

Umumiy qilib olganda tektonik harakatlar ikki katta guruhga ajratiladi: 1) vertikal va 2) gorizontal tektonik harakatlar. Vertikal tektonik harakatlar o'z navbatida ikkiga ajratiladi: 1) ohista vertikal harakatlar va 2) zilzilalar.

Gorizontal tektonik harakatlar ham ikkiga:

1. Burma hosil qiluvchi
2. Uzilma hosil qiluvchi tektonik harakatlar kabi guruhlarga bo'linadi.

Tabiatda esa, tektonik harakatlar odatda juda murakkab tarzda, oxirigacha tushunib etish ancha mushkul bo'lgan hotatlarda ro'y beradi.

Vertikal tektonik harakatlar

23-§. Ohista vertikal harakatlar

Yer po'stidagi ohista vertikal harakatlarni quruqlikning katta qismalarining juda sekinlik bilan ohista ko'tarilishida yoki cho'kishida, ko'rish mumkin. Bunda bu joylardagi tog' jinslarining birlamchi yotish holati buzilmaydi. Bunday harakatlar yiliga bir necha mm. tezlik bilan ro'y beradi. Shuning uchun ham bu harakatlar asriy deb ataladi. Chunki, ularning namoyon bo'lganligini faqat yuzlab, minglab yil o'tib sezish mumkin.

Ba'zi olimlar bu harakatlarni tebranma, ayrimlar esa epeye ro'ge
¹ harakatlar deb ham atashadi. Chunki bu harakatlar natijasida quruqlik paydo bo'ladi, yoki aksincha, cho'kish oqibatida dengiz vujudga keladi. Ohista vertikal harakatlar natijasida dengizning quruqlikka bo'stirib kelishi tra n s gressiya, aksincha chekinishi-^{egressiya} deb nomlanadi.

Hozirgi vaqtida Rossianing Moskva va Sank-Peterburg shaharlari oralig'i, Qora dengiz qirg'og'ining ayrim qismi cho'kmoqda. Gollandiyada o'ta havfli vaziyat vujudga kelgan. Uning maydoni ohirgi 700 yil davomida cho'kib kelmoqda. Bu davlat hududining beshdan ikki qismi dengiz suvi ko'tarilishi chizig'idan pastda joylashgan. Suv bosishining oldini olish maqsadida 1600 km. uzunlikda to'g'on qurilgan.

Vertikal harakatlarni o'rganish usullari. Hozirgi kungacha mavjud bo'lgan vertikal tektonik harakatlarni o'rganuvchi usullar qadimgi va hozirgi harakatlarning yo'nalishi va tezligini belgilashga imkon beradi. Bu maqsadda hozirda tarixiy, geodezik, geomorfologik, geologik va boshqa usullar qo'llaniladi. Bu usullarning ayrimlari tektonik harakatlarni sifat jihatidan baholasa, ba'zilari son jihatidan o'rganadi.

Tarixiy usul. Arxeologik topilmalarni, tarixiy yodgorliklarni o'rganishga, eski va yangi geografik haritalarni taqqoslashga asoslangan.

Geodezik usul. Joyni qayta nivellirlashga asoslangan. Har 7-8 yilda nivellirlash takrorlanib turiladi. Olingan ma'lumotlar dastlabkisi

¹ "Epeyrogenet" so'zi grekcha bo'lib, o'zbek tilida "qureqlik paydo qituvchi" ma'nusini beradi.

bilan taqqoslanadi. Bu usul juda sekin kechayotgan tektonik harakatlarning ham tezligini son jihatidan aniqlashga imkon beruvchi usul hisoblanadi.

Geomorfologik usulga yangi tektonik harakatlarni o'rganish asos qilib olingan. Bunda, davriy ko'tarilish va cho'kishlarning o'zida izini qoldirgan relief shakllari o'rganiladi. Ular dengiz va daryo terrasalari, daryoning quylish qismi, qirg'oq vallari va boshqa geomorfologik elementlardir.

Geologik usullar qadimgi va yangi tektonik harakatlarni o'rganish uchun qo'llaniladi. Bularda stratigrafik va qalinliklarni taqqoslash usullari keng tarqagan.

Stratigrafik usul uchun fatsiyalarni² taqqoslash asos qilib olingan. Masalan, dengiz yotqiziqlarining quruqlik yotqiziqlari bilan almashinishi hududning ko'tarilganiga ishonchli dalildir.

Tektonik harakatlarni namoyon bo'lgan vaqtga qarab hozirgi, yangi va qadimgi tektonik harakatlarga bo'linadi.

Hozirgi tektonik harakatlarni oxirgi 6-8 ming yillikni o'z ichiga oladi.

Yangi tektonik harakatlarga neogen va antropogen davriaridagi harakatlarni kiradi.

Qadimgi tektonik harakatlarni neogen davriga qadar bo'lib o'tgan harakatlardir.

Qadimgi tektonik harakatlarni g e o t e k t o n i k a fani o'rganadi. Yangi va hozirgi tektonik harakatlarni esa n e o t e k t o n i k a fani shug'ullanadi. Shu sabab yangi va hozirgi tektonik harakatlarni e o t e k t o -n i k h a r a k a t l a r deb ham ataladi.

24-§. Zilzilalar

Yer po'sti ayrim qismlarining to'satdan silkinishi "zilzila" deb ataladi. Zilzilalar "seysmik"³ hodisa deb ham ataladi. Keltirib chiqargan omillarga qarab zilzilalarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) ekzogen (yer osti o'pirilishi, meteoritning yer yuzasiga kelib


² Lotinchcha "fatsies"-qiyofa. Fanda ushu atama ikki xil tushuniladi. Birinchi yo'naliish bo'yicha fatsiya-cho'kindi to'planadigan sharoit. Ikkinci yo'naliish bo'yicha fatsiya-hosil bo'lgan sharoitiga o'z qiyofasi bilan ishora qiluvchi cho'kindi.

³ Lot. "seysmik"-silkinish.

tushishi va h.k.) 2) endogen zilzilalar.

Endogen zilzilalar asosan tektonik harakatlar va vulkanizm bilan bog'liqidir.

Zilzilalarni o'rganuvchan s e y s m o l o g i ya deb ataladi. Kuchli zilzilalar vayronagarchik keltiradi, yer po'stida yoriqlar paydo qiladi, buloqlar yo'qoladi yoki yangisi paydo bo'ladi; yer ko'chkilar, o'pirilishlar, quruqlikning ayrim qismlarining ko'tarilishi yoki cho'kishi ro'y beradi (47, 48-rasm). Odamlarning halok bo'lishi hamda shahar va qishloqlarning bo'shab qolishiga sababchi bo'ladi.



47-rasm. Zilzila natijasida relslarning qiyshayishi (A.M.Gorbachev bo'yicha).

Zilzilalar natijasida yer po'stingi quyi qismida va mantianing yuqori qismida to'plangan ichki kuchlarga bardosh berolmagan tog' jinslari yoriladi va yer po'stida katta va kichik darzliklar vujudga keladi. Yorilish vaqtida yuzaga kelgan zarb kuchidan yon atrofga seysmik egiluvchan to'lqin taraladi va u asta-sekin so'nadi.

Yoriq, ya'ni birinchi zarb vujudga kelgan nuqta zilzilalarning g i p o -ts e n t r i (yoki o'chog'i, fokus) deyiladi. Yerning radiusi bo'yicha gipotsentr ustida joylashgan er yuzasi z i l z i l a e p i ts e n t r i deb ataladi.



48-rasm. Ispaniyadagi 1755 yilgi zilzila manzarasi (A.M.Gorbachev bo'yicha).

Zilzilalar ichida eng dahshatlisi kuchli va vayronalik keltiruvchi tektonik zilzilalardir.

Olib borilgan taddiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori seysmik faoliyka ega bo'lgan mintaqalar albatta kuchli tektonik harakatlar rivojlangan zonalarga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra zilzilalar vertikal tektonik harakatlarning keskin va tez namoyon bo'lувчи bir turi deb qaraladi.

Epitsentrda uzoqroq joylarda seysmik to'lqinlar yer yuzasiga ma'lum bir burchak ostida chiqadi va bu yerlarda yer yuzasi to'lqinsimon tebranadi. Epitsentrda esa yer yuzasi ko'tarilib tushadi. Zilzila vaqtida vujudga kelgan seysmik to'lqinlar katta tezlikda turli tomonga tarqaladi. Eng kuchli to'lqinlar 20 min so'ng Yer sharining qarama-qarshi tomoniga etishi mumkin.

Tektonik zilzilalarning paydo bo'lishi o'chog'i yer yuzasidan 800 km chuqurlikkacha boradi. Oddiy zilzilalar o'chog'i 75-80 km chuqurlikda, oraliq zilzilalarniki-80-300km chuqurlikda, fokusli zilzilalar o'chog'i esa 300-800 km chuqurlikda vujudga keladi. Vayronalik

keltiruvchi ko'pchilik zilzilalarning chuqurligi asosan 50 km gacha. Chuqurligi 100 km.gacha bo'lgan zilzilalar kamroq sodir bo'ladi.

Yer sharida o'rtacha bir yilda quyidagicha zilzilalar ro'y beradi (dona):

Halokatli 1

Kuchli vayron qiluvchi 10

Vayron qiluvchi 100

Inshootlarni buzuvchi 1000

Zilzilarni sezish, qayd etish va o'rganish uchun maxsus asboblar-s e y s- m o g r a f l a r ishlataladi. Ularning asosiy qismi bo'lib mayatnik hisoblanadi.

Seysmik to'lqinlar seysmograf o'rnataligan joyga etganda, undagi mayatnikni tebranishga majbur qiladi. Mayatnikning tebranish amplitudasi seysmik to'lqinning tezligi va kuchiga bog'liq bo'ladi. Mayatnikning tebranishi yorug'lik nuri yordamida fotoqog'ozga tushiriladi. U s e y s m o g r a m m a deb ataladi.

Seysmostantsiyalarda eng kamida uchta seysmograflar o'rnataladi. Ularning seysmogrammalari taqqoslanib zilzila o'chog'i va epitsentri hamda kuchi haqida ma'lumotlar olinadi.

Zilzilalarning kuchini aniqlash uchun turli shkalalar ishlataladi. Ular zilzilalarni sifat yoki son jihatdan baholaydi. Sifat shkalalari ballarda ifodalanadi va inshootlarning buzilish darajasi, odamlarning hayajoni kabi ko'satkichlarni shartli baholash asosida tuziladi. Amaliyotda zilzilalarning 12 balli sifat shkalasi keng tarqalgan.

Zilzilalarning son shkalasi namunasi sifatida amerikalik olim Ch.Rixter tomonidan yaratilgan shkala qo'llaniladi. Unda zilzila kuchi magnitudalarda o'chanadi. Magnituda qiymatlari 0 dan 9,8 gacha bo'lib, uning 12 balli sifat shkalasi orasidagi farqi quyidagicha:

Ballar	Magnitudalar	Ballar	Magnitudalar
4-5	3.0-3.9	9-11	7.0-7.9
6-7	5.0-5.9	11-12	8.0-9.8
7-9	6.0-6.9		

Tabiatda yer silkinishi bilan bir qatorda dengiz chayqalishi hodisalari ham tez-tez ro'y beradi. Dengiz chayqalishi asosan zilzila

epitsentri dengiz va okeanlar ostida joylashgan hollarda vujudga keladi.

Dengizning chayqalishi natijasida okean yoki dengiz suvi yuzasida alohida to'lqinlar vujudga keladi. Ular tsunami (yapon.- "dengiz vali") deb ataladi. Sunami to'lqinlari okean bo'ylab katta tezlikda (1000km/soatgacha) tarqalishi mumkin. Bunday to'lqinlar balandligi 20-25 m ni tashkil etadi. Qirg'oqqa etib kelib ular quruqlik ichkarisiga yuzlab, minglab metrga kirib borib katta vayronalik keltiradi. Orqaga qaytish vaqtida esa o'zi bilan odamlarni, jonivorlarni olib ketadi, imoratlarni buzib ketadi. Sunami ayniqsa Tinch okeani uchun hos bo'lib, uning qirg'oqlarida joylashgan Indoneziya, Yaponiya, Kuril orollari va Kamchatkaning aholi punktlari katta zarar ko'radi.

Gorizontal tektonik harakatlar

25-§. Burma hosil qiluvchi tektonik buzilmalar

Burma hosil qiluvchi tektonik harakatlar "o r o g e n ("tog' hosil qiluvchi") harakatlar" deb ham ataladi.

Burma hosil qiluvchi va umuman gorizontal tektonik harakatlar yer po'stida hosil bo'lgan tog' jinsiarining birlamchi yotish holatini o'zgartiruvchi harakatlardir. Ular qatlamlarni egib-bukib tashlaydi, yoriqlar va darzliklar paydo qiladi. Egiluvchan va bukiluvchan bo'lgan tog' jinslari burmalar shakliga kiradi. Yoriqlar esa ichki kuchlar tog' jinsiarining mustahkamlik chegarasini buzgan joylarda hosil bo'ladi.

Qatlamlarning egilib-bukilishi, yaxlitligining buzilishi hamda uzilib ajrashi natijasida hosil bo'lgan shakllar (strukturalar) tektonik buzilmalar deb nomlanadi.

Tektonik buzilmalar ikki katta guruhga ajratiladi: 1) burmali (plifikativ)⁴ va 2) uzilmali (diz'yunktiv)⁵ buzilmalar.

Burmali buzilmalar. Bunday buzilmalarning asosiy ko'rinishlaridan biri burmadir.

"Burma" deb qatlamlarning to'lqinsimon bukilishiga aytiladi. Qabariq burmalar antiklinal, botig'i esa sinklinal deb

⁴ Lot. "plifikatus"-burma.


⁵ Lot. "diz'yunktivio"-uzish, ajratish.

ataladi. Barcha burmalarning quyidagi elementlari mavjud: q a n o t l a r i, qulfi va yadrosi (49-rasm).



49-rasm. Burmaning tuzilishi va elementlari.

Burmaning yon tomonlari uning qanotlari, qanotlarining tutashgan qismi uning q u l f i , qulfi bilan qanotlari orasidagi joy b u r m a y a d r o s i deb ataladi. Antiklinal burma yadrosi odatda qadimgi tog' jinslari, qanotlari esa yosh tog' jinslari qatlamlaridan tashkil topgan bo'ladi (50-rasm).




50-rasm. Antiklinal (I) va sinklinal (II) burmaning kesimda ko'rinishi
S-silur; D-devon; S-karbon; R-perm; T-trias.

Sinklinal burmalarda esa, aksincha, yadro qanotlarga nisbatan yosh jinslardan iborat bo'ladi.

Burmadan tashqari bu guruhga yana monoklinal va fleksura kabi burmalar ham kiradi.

Tog' jinsi qatlamlarining bir tomonlama qiya yotishi "monoklinal"⁶ deb ataladi.

"Fleksura" deb qatlamlarning tizza yoki zinapoya ko'rinishida bukilishiga aytildi. Uning bukilgan joyidan ikki tomondagi qismi qanotlari hisoblanadi. (51-rasm)




51-rasm. Mos (a) va nomos fleksuralar. Strelkalar bilan fleksura qanotlarining bukilish yo'nalishi ko'rsatilgan.

Burmaning qanotlarini xayolari davom ettirganda, kesishgan nuqtasida hosil bo'lgan burchak b u r m a b u r c h a g i eyiladi. Ana shu burchakni teng ikkiga bo'lувchi xayoliy tekislik "burmaning o'q teklisi" deb ataladi.


Burma o'q tekisligening gorizontga nisbatan holatiga ko'ra quyidagi burma turlari ajratiladi: 1) to'g'ri, 2) qiya, 3) ag'darilgan, 4) yotgan burmalar.

Burma qanotlari va qulfiga qarab, uning shakli ham turlicha bo'ladi: 1) o'tkir, 2) izoklinal ("izo"-teng, "klino"-burchak), 3) yelpig'ichsimon, 4) sandiqsimon (52, 53-rasmlar).

⁶ Lot "monos"-bir, "klino"-qiya.



52-rasm. Burma qanotlarining o'zaro joylashuviga ko'ra turlari: I-oddiy, normal; II-izoklinal; III-yelpig'ichsimon.



53-rasm. Burma qulfining shakliga ko'ra turlari; I- yassi; II-tojisimon; III-ponasimon; IV-sandiqsimon.

Uzilmali buzilmalar yoriqli buzilmalar qatlamlarning yaxlitligini buzib, ularni uzib, ajratib tashlaydi. Shu sababli bunday buzilmalar "uzilmali (diz'yunktiv) buzilmalar" deb ataladi.

Uzilmali buzilmalar yer po'stidagi tektonik harakatlardan natijasida paydo bo'ladi. Yoriq paydo bo'lgandan so'ng uning ikki tomonidagi qismlari q a n o t l a r i yoki b l o k l a r i deb ataladi. Ana shu bloklarning yoriqdan so'ng o'z o'mida qolishi yoki o'zaro siljishiga qarab uzilmali buzilmalar ikki guruhga ajratiladi: 1) surilmasiz va 2) surilmali yoriqlar.

Surilmasiz uzilmalar (darzliliklar). Darzliliklarni barcha joyda, barcha tog' jinslarida uchratish mumkin. Ular o'lchamlari, fazoviy holati va kelib chiqishiga ko'ra ajratiladi. Ularning kengligi bir necha mm.dan bir necha metrgacha, uzunligi bir necha sm.dan o'nlab km gacha boradi va tog' jinsi bo'laklari bilan to'lgan bo'ladi. Keyinchalik ularni yoriqlardan ko'tarilgan hidrotermal eritmalar kaltsiy tuzlari, kremniy, temir oksidlari bilan tsementlab **tektonik brekchiya**⁷ deb ataluvchi tog' jinsiga aylanadiradi.

Darzliliklar kelib chiqishiga ko'ra ekzogen va endogen bo'lishi mumkin. Ekzogen darzliliklar odatda uncha chuqurlab ketmaydi (bir necha sm.dan bir necha o'n m.gacha) va ular fizik nurash, o'pirilish, ko'chki, muzlik harakati, cho'kindilarning qurishi, zichlashishi kabi jarayonlar bilan bog'liqidir.

Endogen darzliliklar esa hosil bo'lish jarayonlarida siqilish yoki cho'zilish natijasida, magmatizm, metamorfizm va zilzilalar vaqtida paydo bo'ladi. Ular odatda juda chuqurga ketadi, hatto yuqori mantiyaga qadar yetib borishi mumkin.

Darzliliklarning turli genetik turlari orasida b o' l i n i s h d a r z l i k l a r i alohida ajralib turadi. Ular tog' jinslarini turli to'g'ri va noto'g'ri shaklli qismlarga bo'lib tashlaydi. Cho'kindi tog' jinslarida parallelopipedli bo'linish, magmatik jinslarda esa sharsimon, qatlamsimon, matrassimon, ustunsimon kabi bo'linishlar keng tarqalgan.


Surilmali uzilmalar. Uzilmalarning bloklari surilishi bilan hosil bo'ladi. Tektonik buzilmalar asosan endogen kuchlarning ta'sirida paydo bo'ladi.

Surilmali uzilmalar tuzilishida quyidagi elementlar ajratiladi: surilish yuzasi, bloklar yoki qanotlar va ularning surilish amplitudasi.

Bloklar bir-biriga nisbatan tutgan o'miga ko'ra ko'tarilgan (yoki osilgan) va tushgan (yoki yotgan) bo'lishi mumkin.

Uzilma bloklarining surilish yo'nalishi va surilish yuzasining qiyalik burchagiga, qarab uzilmalarning quyidagi turlari ajratiladi: 1) tushirma, 2) ko'tarma, 3) bostirma, 4) siljima, 5) kengayma, 6) qoplama, 7) gorst, 8) graben.

T u s h i r m a l a r - surilish yuzasi tushgan blok yoki qanot tomon qiya yoki vertikal holda bo'lgan yoriqli buzilmalardir (54-rasm, I).



54-rasm. Tushirma va ko'tarmalar: I-tushirmaning tuzilishi; 2-kesimda; I'-tushirmaning kesimdag'i elementlari; A-ko'tarilgan blok; B-osilgan blok;

II-ko'tarmaning tuzilishi; 2-kesimda; II'-ko'tarmaning kesimdag'i elementlari.

A-ko'tarilgan blok; B-osilgan blok, GG-ko'tarmaning siljish yuzasi, α-ko'tarmaning yotish burchagi.

"Tushirmalar er po'stidagi cho'zuvchi kuchlar ta'sirida paydo bo'ladi" deb hisoblanadi.

K o' f a r m a l a r - surilish yuzasi ko'tarilgan blok (yoki qanot) tomon qiya holda bo'lgan yoriqli buzilmalardir. Bunday buzilmalar yer po'stidagi siquvchi kuchlar ta'sirida yuzaga keladi (54-rasm, II).

B o s t i r m a l a r - ko'tarilgan blokning surilish yuzasi bo'ylab surilib, tushgan blok ustida joylashishidan hosil bo'lgan buzilmalardir. Bunda surilish yuzasi qiyaligi 45° dan kichik bo'ladi va surilish amplitudasi yuzlab metrga, ba'zan bir necha km.ga boradi.

⁷ Ital. "brekchia"-bo'lak


S i l j i m a l a r - bloklari qarama-qarshi tomongan gorizontal holda surilgan buzilmalardir.

K e n g a y m a l a r - bloklarning surilishi yuzasiga perpendikulyar holda surilgan buzilmalardir. Bunda bloklar orasida kengayib, ochilib qoladi va tog' jinslari bo'laklari bilan to'ladi.

Q o p l a m a l a r - yirik bostirmalar bo'lib, surilish amplitudasi o'nlab, hatto yuzlab kilometrga etadi.

Tabiatda tushirma va ko'tarilmalar ko'pincha o'zaro parallel holda joylashgan qator tizimlardan tashkil topadi va "gorst", "graben" deb ataluvchi buzilmalarni paydo qiladi.

G o r s t l a r - o'rtasi ko'tarilgan, graben esa o'rtasi tushgan ko'tarılma va tushirmali buzilmalar tizimidir (55-rasm).



55-rasm. Graben va gorstlarning kesimdagagi tuzilishi. T-trias; J-yura; K-bo'r

26-§. Tog' kompasi

Odatda dala sharoitida tektonik buzilmalarni o'rganish vaqtida ularning fazoviy holati, ya'ni yotish (yoki joylashuv) elementlari aniqlab olinadi. Bu ma'lumotlar foydali qazilma konlarining asosiy xususiyatlarini bilishda, ularni razvedka qilib qazib olishda muhim hisoblanadi.


Qatlamlarning yotish elementlariga quyidagilar kiradi: 1) yo'nalish azimuti⁸, 2) yotish azimuti, 3) yotish burchagi.

Yo'nalish azimuti-geografik meridian bilan qatlamning cho'zilgan yo'nalishi orasidagi burchakdir.

Yotish azimuti-geografik meridian bilan qatlam yotgan tomon orasidagi gorizontal burchakdir.

Qatlamning yotish azimuti va yo'nalish azimuti o'zaro perpendikulyardir.

Yotish elementlari tog' kompasi yordamida o'lchanadi (56-rasm).



56-rasm. Tog' kompasi: 1-magnit strelnka; 2-limb; 3-yarim limb; 4-klinometr.


soat strelkasi harakatiga teskari yo'nalishda bo'lingan va sharq va g'arb belgilari ham o'rin almashtagan. Bu holat qatlamning yotish elementlarini to'g'ridan-to'g'ri haritaga tushirishga qulaylik yaratadi.

Plastinkaning sharqiy tomonida yarim limb o'rnatilgan bo'lib, u 0° nuqtadan ikki tomonga 90° gacha bo'lingan.

Magnit strelnka ignasiga klinometr joylashgan bo'lib, kompas uzun tomoni bilan qatlam ustiga qo'yilganda qiyalikning qiymatini graduslarda ko'rsatadi.

⁸ Azimut-aniganayotgan yo'nalish va meridian orasidagi burchak.

Tog' kompasi bilan qatlarning yotish elementlarini o'lchash quyidagi tartibda olib boriladi (57-rasm):



57-rasm. Tog' kompasi yordamida yotish azimuti va yotish azimuti burchagini o'lchash.

1. Qatlam tekisligida tekis yuzali joy topiladi. Agar qatlam yuzasi g'adir-budir bo'lsa, uning yuzasiga birorta qaiin daftar yoki kitob parallel holda qo'yiladi va o'lchash ishlari ular yuzasida olib boriladi.

2. Kompasni yonboshi bilan uzun tomonini qatlam yuzasiga qo'yiladi va klinometrdan yotish burchagi qiymati olinadi.

3. Kompasning janubiy tomonini qatlamga tekkizib gorizontal holda ushlanadi va magnit strelkaning shimoliy uchidan hisob olinadi. Bu qatlamning yotish azimuti bo'ladi.

Olingan ma'lumotlar quyidagi ko'rinishda yoziladi: Azimut $310^{\circ} < 45^{\circ}$. Bu "qatlam 310° shimoliy g'arbg'a 45° burchak ostida burilib yotibdi" degan ma'noni bildiradi.

Qatlarning yo'nalish azimuti uning yotish azimutidan doim 90° ga farq qiladi.

Geologik xaritalarda o'lchash natijalari quyidagi ko'rinishda \uparrow^{30} belgi bilan ifodalanadi. Gorizontal to'g'ri chiziq qatlam yo'nalishini, strelka yotish azimutini, raqam esa yotish burchagining qiymatini bildiradi.

27-§. Metamorfizm

Metamorfizm⁹ - tog' jinslarini yuqori harorat va bosim hamda qaynoq eritma va gazlar ta'sirida o'zgartiruvchi jarayondir. Bu jarayonda Yerning ichki issiqligi, yuqori bosim, magmatizm va tektonik harakatlar faol ishtirot etadi.

Yuqoridagi omillar tog' jinslariga ta'sir etib, ularda turli o'zgarishlar keltirib chiqaradi: jinslarning kimyoiy va mineral tarkibini va tuzilishini o'zgartiradi.

Metamorfizmga uchragan jinslarga slanetsli tuzilish va minerallarning yo'l-yo'l joylashuvi xos xususiyatdir.

Metamorfizmda kechadigan o'zgarishlar haroratga, bosimga, gazlarga, eritmalarga, jinslarning yotish chuqurligiga va magma o'chog'iga yaqinligiga bog'liqdir. Ana shu omillarning qaysi biri ko'proq ta'sir etishiga qarab metamorfizmning quyidagi ko'rinishlari ajratiladi: dinamometamorfizm, termometamorfizm, pnevmatolit va gidrotermal metamorfizm, kontakt va regional metamorfizm.

D i n a m o m e t a m o r f i z m - tog' jinsi minerallarining bosim ta'sirida o'zgarishidir. Bunda tog' jinslari teksturasi o'zgaradi; masalan, yersimon gillar teksturasi slanetsli teksturaga aylanadi.

T e r m o m e t a m o r f i z m - tog' jinslari kuchli qiziydigan joylarda ro'y beradi. Issiqlik manbai bo'lib magma, qisman qaynoq gaz va eritmalar hamda yer qa'ridagi yuqori harorat hisoblanadi. Ming yillar davomida uzoq qizigan jinslar qayta kristallanadi va mineral tarkibini o'zgartiradi. Masalan, ohaktoshlardan marmar, qumtoshlardan kvartsit jinslari paydo bo'ladi.

P n e v m a t o l i t v a g i d r o t e r m a l metamorfizm-magmadan ajralib chiqqan gazlar va suv bug'lari ta'sirida tog'

⁹ Grek. "metamorfoo" - o'zgartirish.

jinslarining o'zgarishidir. Qaynoq gaz va suvli eritmalar jinslarning darzliklari va bo'shilqlariga kirib borib, ularning mineral tarkibini o'zgartiradi.

Kontakt metamorfizmi-magmaning yon atrofidagi tog' jinslari bilan chegarasida, ya'ni kontaktida ro'y beradi. Kontaktning kengligi magmaning chuqurligi, o'lchamlari va tarkibiga bog'liq bo'lib, bir necha sm.dan yuzlab metrgacha bo'lishi mumkin.

Magma bilan kontaktdagи jinslar o'zaro modda almashish kimyoviy jarayoni metasomatoza¹⁰ deb ataladi. Bu jarayonda yangi skarn¹¹ deb ataluvchi jinslar paydo bo'ladi. Skarnlar bilan temir, mis, volfram, molibden, qalay, rux, qo'rg'oshinining yirik konlari bog'liq.

Regionall¹² metamorfizm odatda katta hududlarda ro'y beradi va chuqurlikda yuqori harorat (300° – 800° S) ostida kechadi. Tog' jinslari qayta kristallahadi; metasomatizmda slanetslanish ro'y beradi va minerallarning tarkibi hamda strukturasi va teksturasi o'zgaradi.

28-§ Geotektonik gipotezalar

Quyosh va sayyoralarning, umuman olamning paydo bo'lishi haqida yaratilgan gipotezalar bilan bir qatorda geolog olimlar yetarli gipoteza va nazariyalarni ishlab chiqqanlar. Bunday gipotezalar "geotektonik" deb nom olgan. Ularning ba'zilari yetarli darajada ishonchli bo'lmagan sababli fanda o'z ahamiyatini tezda yo'qotadi, ayrimlari esa yangi ilmiy ma'lumotlar to'plangunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Shunday gipotezalardan biri- "litosfera plitalari tektonikasi nazariyasи" deb ataladi. Bu nazariyaning eng birinchi mualliflari - amerikalik olimlar Dj.Morgen, B.Ayzeks va Dj.Oliver hisoblanadi.

Ushbu nazariyaga muvofiq "litosfera faol tektonik zonalar hisobiga astenosfera ustida surilib turuvchi bir qator alohida – alohida plitalarga bo'lingan" deb hisoblanadi. Bu plitalar quyidagicha

nomlanadi: 1) Tinch okean; 2) Shimoliy Amerika; 3) Janubiy Amerika; 4) Evrosiyo; 5) Afrika; 6) Hind-Australiya; 7) Antarktida. Bu plitalarning har biri bitta yoki bir necha qit'alarni o'z ichiga olishi mumkin. Ular bir-biriga nisbatan gorizontal harakatlanadi. Faotektonik zonalarga seysmsik faoliyat va vulkanizm xos bo'lib, dunyo okeani tubiga tashkil etuvchi yirik strukturalar: o'rta okean tizimlari orollar yoyi va chuqur suv novlari hamda quruqlikdagi rift vodiylari kiradi. "Rift" deb uzunligi bir necha yuz km ga cho'zilgan, yon tomoni tik chuqur yoriqsimon strukturaga aytildi. Quruqlik va okean osti riftlari mavjud. Kengligi 5-20 dan 200-400 km gacha boradi. Ana shunday rift zonalarida plitalarning bir-biridan qarama-qarshi tomonga haraktlanishi natijasida okean turidagi er po'sti paydo bo'ladi. Agar plitalar bir-biri bilan to'qnashsa, burmalanish zonalari hosil bo'ladi. Chuqur suv novlariда plitalarning birining ostiga ikkinchisining kirib borishi natijasida esa quruqlik turidagi yer po'sti paydo bo'ladi.

¹⁰ Grek. "mets"-keyin, "somatoz"-tana.

¹¹ skarn –SHvetsiyadagi Skarn tori nomidan;

¹² lot. "regionalis"-mintaqa

VI BOB

Yer po'stining rivojlanish tarixi 29-§. Geologik xronologiya va stratigrafiya

Yer po'stining hozirgi holati, uning tarkibi va tuzilishi Yer sharida uzoq muddat davomida kechgan geologik jarayonlar natijasi hisoblanadi.

Yer po'stining geologik tarixi va Yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish-hozirgi geologiyaning eng muhim muammolaridan birdir. Bu muammolarni yechish nafaqat nazariy, balki, katta amaliy ahamiyatga ega. Chunki ular foydali qazilma konlariga istiqbolli bo'lgan hududlarni aniqlashga yordam beradi.

Yerning geologik tarixini va Yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini **tarixiy geologiya** fani o'rganadi.

Tarixiy geologiya fanining o'rganish ob'ekti - tog' jinslari va ularda saqlanib qolgan organizmlarning qoldiqlaridir. Chunki ularda o'tgan davrlarning barcha voqeja va jarayonlari "yozib" qo'yilgan. Yer po'sti esa sayyoramizning tosh yilnomasi hisoblanadi.

Tarixiy geologiyaning vazifalari quyidagilardir:

1. Tog' jinslarining hosil bo'lishi ketma-ketligini, ya'nı geo xronologiyasini ("xronos"-vaqt) aniqlash. Bu vazifani tarixiy geologiya fanining bir yo'nalishi-stratigrafiya ("stratum"-qatlama, "grafo"-yozaman) hal qiladi.

2. Qadimgi tog' jinslarining hosil bo'lishi sharoitlarini aniqlash. Bu masalani fatsiyalar ("fatsius"-qiyofa) ta'lomi va fatsial tahlil yechadi.

3. Yerning rivojlanishi tarixi davomida kechgan tektonik harakatlar tarixini o'rganish. Bu vazifa bilan geotektonika fani shug'ullanadi.

4. Yer po'stining geologik rivojlanishi qonuniyatlarini aniqlash. Bu masalani echishda regional ("regionalis"-mintaqa) geologiya fani yordam beradi.

5. Yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini ochib berish. Bu vazifani paleontologiya fani ("paleo"-qadimgi, "ontos"-organizm, "logos"-bilim) hal qiladi.

Bulardan tashqari tarixiy geologiyaning vazifalarini yechishda geofizika, petrografiya, mineraloziya kabi fanlar ham katta ahamiyatga ega.

Yer po'stining rivojlanishi tarixini o'rganishdagi eng birinchi qadam-tog' jinslarining yoshini aniqlashdir.

Yer po'sti qalinligi bir necha 10 (50-70) km boradi va uning shakllanishi milliardlab yil davom etgan. Bu vaqt ichida unda turli tog' jinslari paydo bo'ldi. Ularning ko'pchiligi dastlabki holatida qolgan bo'lsa, bir qismi tektonik harakatlar ta'sirida murakkab ko'rinishlarga tushib qolgan. Shuning uchun birinchi navbatda tog' jinslarining hosil bo'lishi ketma-ketligi va nisbiy yoshini, ya'nı geologik xronologiyasini aniqlash lozim bo'ladi.

Tog' jinslarining yosh munosabatlari masalalari bilan stratigrafiya fani shug'ullanadi va uning ikkita usuli keng qo'llaniladi:

1. Tog' jinslarining nisbiy yoshini aniqlash.
2. Tog' jinslarining mutlaq yoshini aniqlash.

Nisbiy yosh aniqlash usullariga quyidagilar kiradi: stratigrafik, petrografik va paleontologik usullar.

Stratigrafik usul. Bu usul cho'kindi qatlamlarning ketma-ket qatlamlanishiga asoslangan, ya'nı pastdag'i qatlam ustidagiga nisbatan qadimgi hisoblanadi. Stratigrafik usuldan qatlamlarning birlamchi yotish hoatlari o'zgarmagan sharoitlarda foydalanish mumkin. Chunki tektonik buzilmalar mayjud bo'lgan joylarda yosh qatlamlar qadimgilari ostiga tushib qolishi mumkin. Shu sabab bu usulning qo'llanishi ko'lami ancha cheklangan.

Petrografik usul turli kesimdag'i tog' jinslarining tarkibini o'rganib taqqoslashga asoslangan. Agar ochilmada, tog' lahimlarida yoki burg'ilash qudug'ida qumtosh (yoki boshqa jins) aniqlangan bo'lsa va u rangi, tarkibi, tuzilishi va boshqa hususiyatlari bilan boshqa kesimdag'i jins bilan o'xshash bo'lsa, taqqoslanayotgan jinslar bir yoshda deb taxmin qilish mumkin. Bu usulni faqat bir-biriga yaqin ochilma va kesimlar uchun qo'llash mumkin. Chunki turli zamondarda bir xil tog' jinsi paydo bo'lishini unutmaslik kerak.

Paleontologik usul qadimgi organizmlar qoldiqlarini (toshqotmalarini) o'rganishga asoslangan. Organik dunyo Yerda

uning rivojanish tarixining dastlabki bosqichlaridan paydo bo'lib, hozirgacha rivojanib, o'zgarib yangi-yangi oly darajada tuzilgan organizmlar paydo bo'ldi. Shu sabab, qadimgi qatlamlarda juda sodda tuzilgan organizmlar uchrasa, yosh qatlamlarda esa tuzilishi bo'yicha ancha murakkab hayvon va o'simliklar qoldiqlari topiladi. Geologiya uchun muhim mana shu hususiyat tog' jinslarining nisbiy yoshini aniqlashda qo'llaniladi. Ammo, qadimgi organizmlarning hammasi ham bu usul uchun yarayvermaydi. chunki ayrim organizmlar uzoq muddat o'zgarishsiz yashagan va ularning qoldiqlari barcha qatlamlarda uchrashi mumkin; ayrimlari esa tez o'zgarib alohida qatlamlar uchun taalluqlidir.

Cheklangan muddatda yashab, alohida qatlamlar uchun xos bo'lgan toshqotmalar "rahbariy yoki yetakchi toshqotmalar" deyiladi.

Ana shunday organizmlarga nisbiy yosh aniqlashda qo'llaniladi.

Paleontologik usul har doim ishlataladi. Agar qatlamlarda toshqotmalar uchramasa, petrografik usul qo'llaniladi. Odatda geologik amaliyatda uchchala usul ham birgalikda va bir vaqtida qo'llaniladi.

Mutlaq yosh aniqlash usuli - tog' jinslarining vaqt birligida ifodalangan yoshini aniqlashdir. Ular quyidagi usullardir: qo'rgoshinli, gelyili, argonli, strontsiyi, radiouglerodli va boshqalar.

Bu usullarning barchasi elementlarning radioaktiv parchalanishiga asoslangan. Radioaktiv elementlar parchalanishi bir xil tezlikda ro'y beradi va u o'zgarmas kattalikdir. Bu jarayonga tabiiy sharoitda hech qanday kuch ta'sir eta olmaydi. Radioaktiv elementlarning parchalanishiga asoslangan "usullar radiometrik usullar" deyiladi. Har bir radioaktiv elementning parchalanish vaqtini hisoblab chiqilgan. Masalan, uran elementi atigi yarmiga 4,56 mlrd. yilda, toriy esa 13,39 mlrd. yilda parchalanadi.

Radioaktiv usulda tog' jinslarining mutlaq yoshini aniqlash uchun radioaktiv moddaning dastlabki miqdorini va parchalanish mahsulotini hisoblash kerak. Tog' jinsi qanchalik qari bo'lsa, parchalanish vaqt shuncha uzoq; demak, uning mahsuloti ham shuncha ko'p bo'ladi.

Magmatik jinslarning nisbiy yoshini aniqlash. Yuqorida ta'rifi keltirilgan usullar asosan cho'kindi jinslarni o'rganishda qo'llaniladi. Magmatik jinslarning nisbiy yoshini aniqlashda ularning o'zaro va cho'kindi jinslar bilan munosabatlari asos qilib olinadi.

Agar magmatik jinslar boshqa jinslarni yorib chiqqan bo'lsa, ulardan yosh, agarda boshqa jinslar magmatik jinslarning yuvilgan yuzasiga to'plagan bo'lsa, ulardan qadimgi hisoblanadi.

Agarda bir nechta magmatik tanalar o'zaro kesishgan bo'lsa, boshqasini kesib o'tgan tana yosh hisoblanadi.

Effuziv jislар cho'kindi jinslar ustida qoplama yoki oqim shaklida joylashadi. Ularning nisbiy yoshi stratigrafik yo'l bilan aniqlanadi, ya'ni ostidagi jinslar ustidagidan qariroq.

30-§. Geoxronologik va stratigrafik jadval

Yer po'stini tashkil qiluvchi qatlamlar tarkibi va organizmlar farqiga qarab ketma-ket yotuvchi bir nechta yirik kompleksga bo'linadi. Har bir kompleks "tog' jinslari guruhi" deb, shu guruhi paydo bo'lismiga ketgan vaqt esa "era" deb nomlangan. Har bir guruhi o'z navbatida tizimlarga, tizimlar bo'limlarga, bo'limlar yaruslarga, yaruslar zonalarga bo'linadi. Bu bo'linmalarga mos ravishda eralar davrga, davrlar zamondarga, zamonlar asrlarga, asrlar vaqtga yoki fazaga bo'linadi. Turli qit'alar geologiyasi bo'yicha yig'ilgan materiallar asosida halqaro jamlama stratigrafik va geoxronologik jadval tuzilgan bo'lib, uning bo'limigacha (zamongacha) bo'lgan bo'linmalari xalqaro birlik sanaladi, qolganlari (yarus, zona, asr, vaqt) mahalliy birlik hisoblanadi.

Shuni yaxshi o'zlashtirib olish kerakki, stratigrafik jadval yer po'sti qatlamlarining ketma-ket to'planishini ifoda qiladi. Ikkala jadval bo'linmalari foydalanish qulay bo'lishi uchun bir xil nomlangan.

Mahalliy stratigrafik jadval. Biror bir hududning stratigrafiyasini o'rganishda har doim ham xalqaro jadvalga mos stratigrafik bo'linmalar ajratilavermaydi. Chunki bu joydagи toshqotmalar o'zgacha bo'lishi yoki umuman bo'imasligi mumkin. Bunday holatlarda yordamchi stratigrafik bo'linmalardan

foydalaniładi va ular asosida mahalliy jadvallar tuzilib, ularga mahalliy nomlar beriladi. Bunday mahalliy bo'linmalar sifatida quyidagilar qabul qilingan: seriya, svita, tagsvita, pachka; masalan; karbonatning burchimullo svitasi.

Mahalliy stratigrafik jadvalning asosiy birligi svita hisoblanadi.

Yangi ma'lumotlar to'planib borgan sari mahalliy stratigrafik bo'linmalar umumiyl xalqaro bo'linmalar bilan bog'lanadi.

Stratigrafik va geoxronologik jadval:

Eonołema (EON)	Burmalanish epokxalari	Guruhi (era)	Tizim (davr)	Bo'llim (zamon)	Davomiyligi, mln.yil	Boshlanishi, mln.yil	Xarita-dagi rangi
Panerozy	Alp	Kavnozoy KZ	Antropogen Q	Golotsen (hozirgi) Pleystotsen	0,01 1,64	0,01 1,65	Nim sariq
			Neogen N	Pliotsen Miotsen	23,0	24,65	Limondek sariq
			Paleogen R	Oligotsen Eotsen Paleotsen	41,0	65,65	Sariq
			Bo'r K	Yugori Quyi	70,0	135,65	Och yashil
			Yura J	Yugori O'rta Quyi	56,0	190,65	Ko'k
			Trias T	Yugori O'rta quyi	40,0	230,65	Gunafsha
			Perm R	Yugori quyi	55,0	285,65	Nim jigarrang
			Karbon S	Yugori O'rta quyi	55,0	340,65	Kulrang-qora
			Devon D	Yugori O'rta quyi	70,0	410,65	Jigar-rang
			Silur S	Yugori quyi	30,0	440,65	Kir yashil
			Ordovik O	Yugori O'rta quyi	60,0	500,65	Jigar-rang yashil
			Kembriy E	Yugori O'rta quyi	70,0	570,65	Ko'k yashil
Kriptozy	Baykal	Proterozoy PR	Vend Vd Rifey R	Yugori O'rta quyi	150,0 880,0	720,65 1600,65	Sariq-pushti

	Saam, Belomor, Kareliya, Satpur	Arxeoz oyAR	Mahalliy mavjud	bo'linmalar	2400,0	4000,65	Pushti
--	---------------------------------	-------------	-----------------	-------------	--------	---------	--------

31-§. Yer po'stiningquruqlikdagi tuzilishi

Yer po'stining hozirgi holatini geologik o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning rivojlanishi tarixida turli qismlari bir-biriga o'xshamagan holda tuzilgan va rivojlangan. Uning ayrim qismlarida joylashgan tog' jinslari burmalangan, metamorflashgan, yoriqlar va magmatizm avj olgan. Bu hududlarda hozirgi tog'larning asosiy qismi jamlangan. Boshqa qismlarida esa asosan gorizontal yoki unga yaqin holda joylashgan cho'kindi va vulkanogen jinslar tarqalgan bo'lib, ular ostida burmalangan metamorfik va magmatik jinslar aniqlangan. Bunday hududlar katta tekisliklarni paydo qilgan.

Bu holat Yer sharining quruqlik qismida tektonik strukturalarning uchta katta guruhini ajratishga imkon beradi:

1. Geosinklinal mintaqalar;
2. orogenlar ("oro"-tog "genезис"-paydo bo'lish);
3. platformalar.

Geosinklinal mintaqalar – yer po'stining uzunasiga bir necha o'n ming (20 ming.) km ga cho'zilgan, chuqur siniqlar bilan chegaralangan va tektonik faol qismlaridir. Bu mintaqalarda tektonik harakatlar, magmatizm, vulkanizm, zilzilar kuchli rivojlangan va cho'kindi qalin to'planadi.

Orogenlar – geosinklinal mintaqalar o'mida paydo bo'lgan burmali tog' tizimlaridir.

Platformalar-er po'stining tinch, tektonik harakatlar kuchsiz kechuvchi qismlaridir. Bu hududlar uchun burmalanish, magmatizm, vulkanizm va zilzilar xos emas; faqat ohista vertikal tebranma harakatlar rivojlanadi.

Geosinklinal mintaqalar va platformalar dastlab proterozoy erasi oxirida shakllangan. Bu davrda paydo bo'lgan platformalar keyingi platformalardan farq qilib, "qadimgi platformalar" deb ataladi. "Yosh platformalar esa geosinklinal mintaqalar va orogenlar o'mida paydo bo'lgan" deb hisoblanadi.

Yer po'stida quyidagi geosinklinal mintaqalar va qadimgi platformalar ajratiladi:

1. geosinklinal mintaqalar – O'rtaerdengizi, Ural-Mug'ul, Atlantika, Arktika, Tinch okean;

2. qadimgi platformalar – Sharqiy Yevropa, Sibir, Xitoy, Hindiston, Avstraliya, Afrika, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Antarktida. Bundan tashqari yana bir nechta kichik platformalar ham ajratiladi.

Geosinklinal mintaqalar o'zining rivojlanishi tarixida bir necha bosqichlarni bosib o'tadi va oxirida burmalangan tog'li o'lkaza, ya'ni orogenga aylanadi.

Boshlang'ich bosqichda geosinklinal hududida asosan cho'zilish va cho'kish jarayonlari ro'y beradi. Ayrim qismlarida esa siqilish va ko'tarilish bo'lishi mumkin. Cho'kkан joylarda dengiz yotqiziqlarining qalin qatlamlari hosil bo'la boshlaydi.

So'nggi bosqichda siqilish jarayoni asosiy o'ren egallaydi, magmatizm kuchli rivojlanadi. Burmali-surilmali jarayonlar boshlanadi. Butun geosinklinal mintaqasi tog' tizimiga aylanadi va orogen bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda mintaqaning turli qismlarida magmatizm va vulkanizm, burmalangan tog'lar o'sadi va kengayadi, kichik-kichik tog'lararo cho'kmalar vujudga keladi.

Orogenlar vaqt o'tishi bilan platformalarga aylanadi.

Platformalarda asosan ohista vertikal tektonik harakatlar rivojlanadi. Uzoq davom etuvchi va takrorlanib turuvchi cho'kishlar natijasida platformalar yuzasida sayoz dengiz yotqiziqlari to'planadi. Chuqur yer yoriqlari bilan vulkanizm bog'liq bo'ladi. Effuziv-cho'kindi yotqiziqlar platforma qoplaması (chexol) paydo qiladi. Natijada platformalar vertikal bo'yicha ikki qavatli tuzilishga ega bo'ladi:

1. Quyi burmali fundament.

2. Yuqori platforma qoplaması (chexol).

Gorizontal holatda esa *qalqon* va *plita* deb ataluvchi ikki qismga ajratiladi:

Qalqon – platformaning ko'tarilgan va fundament jinslari yer yuzasiga chiqib qolgan qismi hisoblanadi.

Plita – platformaning cho'kkан va cho'kindi bilan qoplangan

qismidir. Cho'kindilarning qalinligi bir necha o'n metrdan bir necha kilometrgacha boradi. Ohista vertikal harakat platformaning turli qismida turlicha tezlik va amplituda bilan kechadi. Buning natijasida plita qismida yangi, faqat platformalar uchun xos bo'lgan antikliza va sineklizalar paydo bo'ladi. Ularning shu kabi strukturalardan farqi shundaki, ularning qanotlari nishabi $2\text{--}3^{\circ}$ atrofida bo'ladi. O'lchamli ham katta, shakli esa ko'proq noto'g'ri aylana yoki oval ko'rinishda bo'ladi.

32-§. Burmalanish epoxalari

Yer po'stida tektonik harakatlar doimiy ravishda muttasil bo'lib turadi va oxirida burmalangan tog'li hududlarni barpo qilib pasayadi; so'ng yana qayta jonlanadi va h.k., ya'ni davriy ravishda takrorlanib turadi. Yerning, shu jumladan yer po'stining rivojlanishi tarixida hozirga qadar ana shunday takrorlanish o'ntaga yaqin bo'lgan deb hisoblanadi. Bu takrorlanishlar "burmalanish epoxalari" (epoxazamon) yoki "tektogenez tsikllari" (tsiki-davriy takrorlanish) deb ataladi.

Burmalanish epoxalari o'nlab million yillar bilan o'lchanadigan, uzoq davom etuvchi bosqichdir. Ular yer po'stining turli qismlarida alohida holda va turli davrlarda ro'y berishi mumkin. Bir epoxa tugab, navbatdagi ikkinchisi ro'y berishi yoki orada o'n, hatto, yuz million yillab tanaffus bo'lishi mumkin.

Yer po'stining tektonik rivojlanishi tarixida quyidagi burmalanish epoxalari ajratiladi (eng qadimgisidan boshlab): saam, belomor, kareliya, satpur, baykal, kaledon, gertsin, kimmeriy va al'p.

Dastlabki to'rtta epoxa proterozoy erasi oxirigacha bo'lgan davrda ro'y bergen.

Baykal epoxasi proterozoy o'tasi va kembriy davri boshlarida rivojlangan.

Kaledon epoxasi kembriy-silur, gertsin epoxasi devon-perm, kimmeriy epoxasi mezozoy erasida, alp esa kaynazoy erasida rivojlangan. Alp burmalanish epoxasi hozir ham davom etmoqda.

33-§. Yerning organik dunyosi

Paleontologiya-qadimgi hayvonot va o'simlik dunyosi haqidagi fandir. U organik dunyoning paydo bo'lishi va rivojlanishini organizmlarning qoldiqlarini o'rganish bilan aniqlayadi.

Paleontologiya fanining ma'lumotlari geologiya fanining eng muhim vazifalaridan biri bo'lgan masalani, ya'ni tog' jinslarining nisbiy yoshini aniqlash masalasini yechishga yordam beradi. Yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda uning muhit bilan aloqasi muammolarini o'rganish o'tgan davrlar tabiiy-geografik sharoitlarini tiklashga imkon beradi. Busiz yer qa'rida joylashgan ko'plab foydali qazilmalarning paydo bo'lishi qonuniyattarini aniqlash va tushunish mumkin emas. Shuning uchun paleontologiya tarixiy geologiya, paleogeografiya va boshqa bir qator yer to'g'risidagi fanlarning asosi hisoblanadi.

Barcha organik dunyo hayvonot va o'simlik sultanatiga bo'linadi. O'simliklar ham, hayvonlar ham hujayralardan tuzilgan. Hujayralar esa qobiq, protoplazma va yadrodan tashkil topgan.

Hayvonlar va o'simliklarning bir-biridan eng asosiy farqi-ularning modda almashinuvida deb hisoblanadi. O'simliklar –avtotrof ("avtos"-o'zim, "trofe"-ovqat) organizmlardir. Ular quyosh nurlari va xlorofill yordamida karbonat angidridi (SO_2) va suvdan sintez yo'li bilan organik moddalar bunyod qiladi.

Hayvonlar esa geterotrof ("geteros"-boshqa) organizmlar hisoblanadi. Ular o'zları organik birikmalar yaratma olmaydilar va o'simlik hamda boshqa hayvonlarni yeb hayot kechiradilar. Bundan tashqari yana bir qator xususiyatlari bilan ham farq qiladilar. Mana shular hayvonot va o'simliklarning asosi hujayra ekanligini, Yerning organik dunyosi bir ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtida o'simlik va hayvonlarning 1,5 mln. dan ortiq turi mavjud bo'lib, ular turli-tuman sharoitlarda hayot kechiradi. Ularning yashash sharoitlarini ikki katta muhitga ajratish mumkin:

1. dengiz va okean; 2. quruqlik.

Dengiz va okeandagi hayot tarzi. Dengiz va okeanlarda hayot juda turli-tuman bo'lib, organizmlarga ham boy. Bunday sharoitda yashash tarzining o'ziga xos muhim omillari bor. Ularning

birortasining o'zgarishi organizmlar turining ham o'zgarishiga olib keladi.

Shunday omillarga *sho'rlik, harorat, bosim, yorug'lik* va *okean tubi tabiat mansubdir*.

Sho'rlik. Dengiz va okeanlar suvining o'ttacha sho'rligi 3,5%ni (1 litrga 35 g tuz) tashkil qiladi. Tuzlardan tashqari Dunyo okeani suvi tarkibida karbonatli va kremniyli birikmalar ham mavjud bo'lib, ulardan organizmlar o'z skelet va chig'anoqlarini qurishda foydalananadi.

Harorat. Dunyo okeani suvining harorati uning yuza qismida o'sha yer iqlimi bilan belgilanadi. Eng yuqori o'ttacha yillik harorat ekvator tomonda $+28^{\circ}\text{S}$, qutblarda esa 0° –minus 2°Sni tashkil etadi. Pastga chuqurlashgan sari harorat tushib boradi va okean tubida barcha joyda bir xil -1minus 2°Sda bo'ladi.

Bosim. Chuqurlik bilan bosim ortib boradi (har 100 m da taxminan 10^6Pa miqdorda). O'ta chuqur joylarda yuqori bosim ostida suvning eritish xossasi kuchayadi. Shuning uchun u erda quruqlikdan kelgan mineral va organik qoldiqlar ma'lum darajada erib, yo'q bo'lib ketadi.

Yorug'lik. Suvning tiniqligiga qarab dengiz va okeanlarning 50-80 m chuqurlikgacha bo'lgan qismi yaxshi yoritilgan hisoblanadi. Quyosh nurlari 200m chuqurlikka yetib borishi aniqlangan. Undan chuqurlikda fotosintez hisobiga yashovchi o'simliklar yashamaydi.

Nerit zona organizmlar hayoti uchun eng maqbul hisoblanadi va bu zonada ko'psonli turli suv o'tlari va hayvon tiplari yashaydi.

Batial zona doimiy harorat, to'lqinsiz va yorug'lik yo'q zona bo'lib, hayot ancha siyrak va bir xil. Hayvonot dunyosi yirtqich yoki organik birikmalarga boy bo'lgan il bilan oziqlanadi.

Abissal yoki tubsiz zona Dunyo okeani lojesiga to'g'ri keladi. Bu zona okean tubining 77% ini o'z ichiga oladi (batial 15%, nerit 8%). Bu yerda yorug'lik va suvning tebranishi yo'q. Harorat doimiy, bosim esa juda katta. O'simlik yo'q. Hayvonlari-yirtqich yoki o'laksa bilan oziqlanadi.

Dengiz va okeanlarda yashovchi organizmlar uch katta guruhga bo'linadi:

1. Bentos-dengiz tubiga yopishib yoki sudralib, biroz suzib yuruvchi organizmlardir.

2. Plankton-ochiq dengizda muallaq holda yashovchi, sust harakatlanuvchi mayda organizmiardir.

3. Nekton-ochiq dengiz va okeanda faol harakatlanuvchi organizmlar (akula, baliqlar) yoritilgan bo'ladi.

200 m bo'lgan qismida esa yorug'lik kuchsiz, xira bo'lib, bu erlarda o'simlik juda kam tarqaladi. Undan pastda yorug'lik yo'q bo'lib, o'simlik yo'q. Chunki yorug'lik yo'q joyda fotosintez jarayoni kechmaydi. Bunday joylarda yashovchi hayvonlar qorong'ulikka moslashib, turli mo'yabchalar, antennalar, katta ko'zları yordamida harakatlanadi.

Okean tubi tabiat. Dengizning sayoz, toshli, to'lqinli qismida yopishib, parmalab joylashib oladigan yoki qalin chig'anoqli organizmlar yashaydi. Qumli va illi tubida esa kavlab kirib yashaydigan organizmlar tarqaladi.

Organizmlarning suv muhitida yashash sharoitini qoldiqlar yordamida o'rganish qadimgi suv havzalarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Bionomik ("bio"-hayot, "nomos"-qonun-qoida) zonalar. Dengiz va okean suvlarida chuqurlikka qarab quyidagi bionomik zonalar ajratiladi:

1. Nerit- 0 dan 600 m chuqurlikda;
2. Batial – 600 dan 2500 m;
3. Abissal – 2500 m dan okeanning eng chuqur qismigacha;
4. Pelageya – ochiq dengiz va okean.

Yumshoq tana qazilma holda juda kamdan-kam hollarda saqlanadi. Mamontlar va tukli nosoroglarning shimoliy abadiy muzliklarda, neft mahsulotlari-asfalt va ozokeritda qushlarning, qahraboda gul va hasharotlarning saqlanishi bunga misol bo'lishi mumkin. Qazilma holda saqlanishning ikkinchi sharti - u tezlikda ko'milishi kerak. Organizmlarni ko'mgan cho'kindilar kislorodning kirishini qiyinlashtiradi va yemirilish sekinlashadi.

Ko'milgandan so'ng organik qoldiqlar turli o'zgarishlarga duch keladilar. Ulardan eng keng tarqalgani toshqotish va ko'mirlashishdir.

Toshqotish – tog' jinslari orasida harakatlanuvchi eritmadagi mineral birikmalar (karbonatlar, kremniy oksidi) skelet, bo'shliq va g'ovaklarda cho'kadi yoki skelet to'qimalari bilan o'r'in almashadi. Toshqotish jarayoni ko'proq hayvonlarda ro'y beradi.

Ko'mirlashish – organik moddalarning kislorodsiz muhitda erkin uglerod hosil qilib ohista parchalanishidir. Bu jarayon ko'proq o'simliklarda kuzatiladi.

Yosh tog' jinslarida toshqotmalar kam o'zgargan xolda uchraydi. Eng qadimgi yotqiziqlarda qoldiqlar toshqotish jarayonida ancha o'zgargan yoki chig'anoqlar boshqa mineral moddalar bilan o'r'in almashgan bo'ladi.

Ko'pincha tog' jinslarida chig'anoqlarning tamg'aları uchraydi. Ba'zan chig'anoqlar erib ketadi, ular o'mini cho'kindi egallaydi.

Bundan tashqari tog' jinslarida organizmlarning oyoq tamg'asi, sudralish izlari, ya'ni hayot izlari uchraydi.

34-§. Hayvonot dunyosining qisqacha tarixi

Organizmni guruhlarga bo'lish–tasniflash (klassifikatsiyalash) bilan sistematika fani shug'ullanadi.

Dastlabki tasniflashlar organizmlarning morfologik belgilariiga asoslangan bo'lgan. Bunday tasnif sun'iy bo'lib, organizmlarning avlodlik o'zaro munosabatlarni hisobga olmagan.

Hozirda fanda tabiyi, ya'ni filogenetik ("file"-avlod, qabila, "genезис"-kelib chiqish) tasnif (klassifikatsiya) qabul qilingan. Bunda organizmlar guruhlarga kelib chiqishi birligi va qarindoshlik belgilari darajasiga qarab birlashtiriladi.

Tasnifning eng katta birligi bo'lib tip hisoblanadi. Tipler sinflarga, sinflar otryadlarga, otryadlar oilaga, oila avlodga, avlod turlarga bo'linadi. Har bir birlik lotin tilida ifodalananadi. Tip, sind, otryad, oila, avlod bir so'z bilan, tur nomi esa ikkita so'z bilan yoziladi. Birinchi so'z avlod, ikkinchi so'z tur nomini bildiradi. Tur nomiga shu turni kashf qilgan mualif familiyasi qisqartirib qo'shitadi. Yuqorida aytiganlar tushunarli bo'lishi uchun misol: tip Chordata (xordalilar), sind Mammalia (sut emizuvchilar), otryad Primates (primatlar), oila Hominidal (odam), avlod Homo (odam), tur Homo sapiens L (aqlli odam).

Hayvonot dunyosi quydagi tiplarga ajratiladi:

- 1) sodda xayvonlar; 2) gubkalar; 3) arxeotsiatlar; 4) bo'shqorinlilar; 5) chuvalchanglar; 6) bo'g'imoyoqlilar; 7) mollyuskalar; 8) mshankalar; 9) elkaoyoqlilar; 10) ignatanllilar; 11) yarim-xordalilar; 12) xordalilar.

Yarim xordali va xordalilardan tashqari barcha tiplar "umurtqasizlar" deb ataladi.

O'simlik dunyosi quydagicha bo'linadi:

- 1) bakteriyalar; 2) suv o'tlari; 3) psilofitlar; 4) moxlar; 5) plaunlar
- 6) bo'g'im o'zakllilar; 7) paprotniklar.

Umurtqasizlar

Umurtqasizlarning barcha tiplari, ayniqsa ularning dengizda yashovchi xillari qattiq skeletga ega bo'lib, toshqotma ko'rinishida yaxshi saqlanadi. Shuning uchun ular geologiyada eng muhim vazifa-tog' jinslarining nisbiy yoshini aniqlashda yetakchi toshqotma sifatida ishlataladi.

Qadimgi umurtqasizlar qoldiqlari qadimgi zamонлар табиий-географик шароитларини aniqlashda qimmatli material hisoblanadi.

Sodda hayvonlar tipi. Bu tipga barcha bir xujayrali hayvonlar kiradi. Bular asosan mikroskopik organizmlar bo'lib, bir necha sinflarga birlashgan. Bulardan sarkodalilar sinfining ikkita kichik sinfi: foraminiferalar va radiolyariylar geologik ahamiyatga ega.

Foraminiferalar kichik sinfi. Foraminiferalar dengiz tubi hayvonlari bo'lib, qoldiqlari dengiz gillari va ohaktoshlarida uchraydi. Ular qattiq chig'anoqqa ega bo'ladi. Foraminiferalar tokembriydan boshlab hozirgacha yashab kelmoqda. ularning vakillari sifatida fuzulina, shvabegerin, numulit va globigerinlar muhim geologik ahamiyatga ega hisoblanadi. Ular tog' jinsi hosil qiluvchi va karbon, perm, bo'r, paleogen davrlari uchun yetakchi organizmlar hisoblanadi.

Radiolyariylar kichik sinfi. Radiolyariylar asosan iliq dengizlarda, kamroq o'rta va sovuq dengizlarda plakton sifatida hayot kechiruvchi mikroskopik hayvonlardir. Tanasi kremniyli chig'anoqdan iborat bo'lib, ko'pincha shar shaklida, har tomoniga radial ravishda taralgan ignali ko'rinishda bo'ladi.

Radiolyariylarning geologik ahamiyati katta. Ular eng qadimgi organizmlardir. Ularning qoldiqlari proterozoy erasidan ma'lum. Paleozoy, mezozoy va qaynozoysda yashma, opoka va radiolyarit kabi tog' jinslarini hosil qilishda ishtirok etgan. Hozirgi okean ostida, 4000-8000 m chuqurlikda il sifatida to'planadi. Kremniyli jinslar yoshini aniqlashda foydalaniлади.

Bulutlar (gubkalar) tipi. Asosan dengiz tubida, yakka yoki koloniya bo'lib yashovchi eng sodda ko'p hujayrali hayvonlardir. Shakli bokal, stakan ko'rinishida. Ko'pchiligining o'z tanasida ohakli yoki kremniyli ignalari bo'ladi. Ular qo'shilib o'sib massiv skelet paydo qiladi va toshqotma sifatida yaxshi saqlanadi. Bulutlar (gubkalar) asosan iliq dengizlarda, ba'zan chuchuk suvlarda yashaydi. Ularning toshqotmalari tokembriydan ma'lum bo'lib, hozirda ham yashaydi. Tog' jinsi (bulutli il) hosil qilishda geologik ahamiyatga ega.

Arxeotsiatlar tipi. Arxeotsiatlar bulutlarga o'xshash organizmlardir. Ular iliq dengizlari tubida, il ustida yashaganlar. Dengiz tubiga joylashib, butasimon shaklda koloniya hosil qiladi. Yakka holda ham yashaydi. Skeleti oxakli bo'lib, bokal ko'rinishida; o'lchamlari bir necha mm dan 40 sm gacha bo'yiga va 25 sm eniga ega.

- Arxeotsiatlar juda qadimgi, tokembriyda paydo bo'lgan organizmlardir. Quyi kembriy yotqiziqlari yoshini aniqlashda asosiy yetakchi toshqotma hisoblanadi. O'rta kembriy boshlarida qirilib ketgan.

Bo'g'imoyoqlilar tipi. Hayvonlarning ko'psonli tipi bo'lib, 1 mln dan oshiq turi mavjud. Bo'g'imoyoqlilar (qisqichbaqa, krab, trilobit) dengiz, chuchuk suv, tuproq va havoda, barcha iqlimda yashaydi. Ular tokembriyda paydo bo'lgan. Ularning tanasi bo'laklarga (bo'g'im, segment) bo'lingan bo'lib, muguz qavat bilan qoplangan. Geologik ahamiyatga ega bo'lgan turi -trilobitlar sinfi bo'lib, ular paleozoyning birinchi yarmida yashagan. Trilobitlar juda ko'p yetakchi toshqotmalar hosil qilgan.

Qazilma sifatida qisqichbaqsimon, o'rgimchaksimonlar, kapalak, ninachi kabi turlarining tamg'alari ham uchraydi.

Mollyuskalar tipi. Umurtqasizlar guruhining geologiya uchun ahamiyatlari tipi hisoblanadi. Chunki ularning ohakli chig'anoqlari toshqotma sifatida oson saqlanadi. Mollyuskalarning asosiy qismi dengizda yashaydi. Quruqlikda ham uchraydi. Qorinoyoqlilar, ikki pallalilar va boshoyoqlilar sinflari geologik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qorinoyoqli mollyuskalar sinfi vakillari buralgan spiral, ko'pincha minorasimon chig'anoqli bo'ladi. Chig'anoqlar yuzasi qo'shimcha ravishda oxakli igna, qovurg'a va do'ngliklardan iborat bo'ladi. Qorinoyoqlilar paleozoydan ma'lum bo'lib, kaynozoyda keng rivojlangan. Hozirda ham ko'pchilik turlari mavjud. Kaynozoy yotqiziqlarining nisbiy yoshini aniqlashda yetakchi hisoblanadi.

Ikki pallali mollyuskalar chig'anog'i ikki teng palladan iborat bo'lib, shakkarga boy bo'ladi. Ular paleozoydan ma'lum bo'lib, qorinoyoqlilar kabi kaynozoyda rivojlanishning eng baland nuqtasiga chiqadi.

Boshoyoqlilar. Asosan dengiz hayvonlari. Boshidagi og'zi atrofida mo'yabchalari bo'lib, ular ovqatni ushlash va harakatlanish uchun xizmat qiladi. Shundan ularning nomi kelib chiqadi. Boshoyoqlilar ikki kichik sinfga bo'linadi.:

1. tashqi chig'anoqlar; 2. ichki chig'anoqlar.

Tashqi chig'anoqlar bir tekislikda spiralsimon o'rallgan ohakii, yupqa devorli chig'anoqlarga ega. Ulardan ammoniyar guruhi mezozoy yotqiziqlari uchun asosiy yetakchi organizmlar sanaladi.

Ichki chig'anoqlar teri ostida ohakli chig'anoqlari mavjud bo'lgan organizmlardir. Hozirgi turlari kalmarlar, osminoglar hisoblanadi. Geologik qiziqish uyg'otadigan vakili - belemnitlardir. Ular asosan mezozoy yotqiziqlari uchun yetakchi hayvon hisoblanadi. Ular skeletining asosiy qismi uzun tsilindr ko'rinishidagi ohakli quvurcha shakkida bo'lgan. Geoglarning oddiy so'zlashuvida belenitlar "shayton barmog'i" deb nomlangan.

Yelkaoyoqlilar tipi. Yakka holda yashovchi dengiz hayvonlari hisoblanadi. Chig'anoqlari ikki pallali bo'lib, ohakdan yasalgan. Tashqi tomondan yelkaoyoqlilar chig'anoqlari ikkipallali molyuskalarnikiga o'xshab ketadi. Lekin bir qator o'ziga xos tuzilishi

bilan farq qiladi. Bir pallasi ikkinchisidan katta bo'lib, tepe qismi yelkani eslatadi. Yelkaoyoqlilar paleozoydan ma'lum bo'lib, paleozoy uchun yetakchi organizmlar hisoblanadi.

Mshankalar tipi. Juda mayda bo'lib, dengizda koloniya bo'lib yashovchi hayvonlardir. Ular hosil qilgan koloniya shar yoki mayda buta ko'rinishida bo'ladi. Ba'zan dengiz ostidagi narsalarga pylonka ko'rinishida yopishib, qoplab oladi. Tashqaridan mox yoki lishaynikka o'xshab ketadi. Skeleti ohakli yoki ohak -muguzli. Mshankalar ordovikdan ma'lum. Karbon, perm va neogenda rif qurilmalari paydo qiluvchi organizm hisoblangan.

Ignatanllilar. Faqat dengizda yakka holda yashovchi organizmlardir. Geologiya uchun ahamiyatlisi - dengiz kirpsi va dengiz liliyatari sinflaridir.

Dengiz kirplari teri ostida joylashgan to'nkarilgan kosa shakkida chig'anoqqa ega bo'ladi.

Dengiz liliyalari esa o'z tuzilishi bilan o'simlikni eslatadi. Chunki ular tanasining alohida qismi o'simliklarning ildizi, poyasi va shoxlarini eslatadi.

Toshqotma ignatanllilar paleozoy boshlaridan ma'lum bo'lib, paleozoy va mezozoy yotqiziqlari uchun yetakchi organizmlar hisoblanadi.

Yarimxorda va xordalilar

Umurtqasizlar bilan oliy darajada rivojlangan hayvonlar, ya'ni xordalilar (lot. "xorda" tor (dutorning tori kabi)) o'tasida oraliq o'ren olgan organizmlar "yarimxordalilar" deb ataladi. Xordali hayvonlar skeleti horda deb ataladi. Keyinchalik u umurtqaga aylanadi. Yarimxordalilarda skeletga o'xshash a'zosi bo'ladi. Shuning uchun ular "yarimxordalilar" deb ataladi. Boshqa tomondagi xordalilardan farqi bo'lmaydi. Yarimxordalilardan graptolitlar guruhi geologik ahamiyatga ega. Ular dengizda koloniya bo'lib yashovchi hayvonlar bo'lib, tashqi tomoni mugus qatlamdan iborat. Graptolitlar qoldiqlari yig'ib qo'yilgan mayda shoxchalarini eslatadi. Ular gilli slanetslar qavatlarida yupqa ko'mirlashgan plenka ko'rinishida uchraydi. Graptolitlar silur organizmlari hisoblanadi.

Xordalilar – hayvonot olamining oliy darajada rivojlangan tipidir. Xordalilarning alohida bir guruhi “umurtqalilar” deb ataladi. Ular o’z navbatida bir qator sinflarga bo’linadi: baliqlar, suvda va quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilar.

Umurtqali hayvonlarning hammasi uchun muhim jihatni suyakli skeletning mavjudligi hisoblanadi. Suyaklar toshqotma sifatida yaxshi saqlanmaydi. Shuning uchun umurtqalilar skeletlarining butunligi juda kam uchraydi.

Baliqlar. Eng qadimgi baliqlar silur va devon davrlarida yashagan. Ularning kallasi va tanasining old qismi toshbaqaning kosasi kabi yopilgan bo’lgan. Bulardan tashqari tog’ayli baliqlar ham keng tarqalgan va silurdan perm oxirigacha yashagan. Ulardan faqat akulalar bizgacha etib kelgan. Devon davrida suyakli baliqlar paydo bo’ladi va ular mezozoyda keng rivojlanadi. Bu holat hozir ham davom etmoqda.

Ham suvda, ham quruqlikda yashovchi eng birinchi to’rt oyoqli hayvonlar devon davri oxirida baliqlarning evolyutsiyasi natijasida kelib chiqqan. Ular mezozoy oxirida qirilib ketgan bo’lib, ayrim vakillari (qurbaqalar va boshqalar) kaynozoyda ham yashamoqda.

Sudralib yuruvchilar – umurtqalilarning oliy darajada tuzilgan sinfi hisoblanadi. Ular karbon davrida paydo bo’lgan. Mezozoyning boshlarida ularning evolyutsiyasi natijasida kaltakesaklarning katta guruhi paydo bo’ladi. Kaltakesaklarning katta bir guruhi-dinozavrular yura va bo’t davrlarida ulkan o’lchamlarga ega bo’lganlar (20-30 m uzunlikda). Bu davrda kaltakesaklar ham quruqlikni, ham suvni, ham havoni egallab oladilar (yer usti, suv va uchuvchi kaltakesaklar). Mezozoy oxirida kaltakesaklar qirilib, kaynozoy erasiga sudralib yuruvchilarining oz qismi o’tadi (timsohlar, ilonlar, toshbaqalar va kaltakesaklar).

Qushlar birinchi marta yura davrida paydo bo’lgan. Yura davri qushlarining sudralib yuruvchilar kabi tishlari, dum umurtqalari bo’lgan. Toshqotma qoldiglari topilgan eng birinchi qush “arxeopteriks” deb ataladi. Mezozoy oxiridan qushlar hozirgi ko’rinishga ega bo’lib keng tarqaldilar.

Sut emizuvchilar – faqat o’ziga xos yangi bir qator belgilari bo’lgan, yuqori darajada rivojlangan umurtqalilardir. Ular trias davri oxirlarida paydo bo’lib, qaynozoyda keng taraqqiy etdilar.

Sut emizuvchilarning alohida guruhlari, ayniqsa otsimonlar, xartumililar, primatlar guruhlari evolyutsiyasi ancha mufassal o’rganilgan.

35-§. O’simlik dunyosining qisqacha ta’rifi

O’simlik dunyosi juda ko’psonli va turli-tuman bo’lib, ikki katta guruhga ajratiladi: 1) sodda tuzilgan; 2) murakkab tuzilgan o’simliklar.

Sodda tuzilgan o’simliklar

Sodda o’simliklar bir yoki ko’p hujayrali organizmlar bo’lib, juda oddiy tuzilishga ega, ya’ni hujayralar to’planib to’qima hosil qilmagan darajada rivojlangan. Ularga bakteriyalar va suv o’tlari kiradi.

Bakteriyalar –bo’linish bilan ko’payadigan o’ta sodda tuzilgan bir hujayrali organizmlardir. Ular turli sharoitlarda: muz va hatto qaynoq suvlarda ham yashay oladi. Ba’zilari kislorodsiz muhitda ham yashay oladi (anaerob bakteriyalar).

Bakteriyalarning asosiy qismi tayyor organik birikmalar bilan oziqlanadi. Ayrimlari mineral moddalarning oksidlanishi energiyasidan foydalanib, noorganik moddalardan organik birikmalar paydo qiladi (temir bakteriyalari, tuproq bakteriyalari). Bakteriyalar toshqotma sifatida saqlanmaydi, lekin temir ma’dani to’plamlari (botqoqlik ma’dani), dengiz ostida oxakli illar hosil qilishi mumkin.

Suv o’tlari – asosan dengizda yashovchi o’simlik organizmlarining katta guruxi hisoblanadi.

Suv o’tlari bir va ko’p hujayrali bo’lib, xlorofill yordamida karbonat angidrid gazidan uglerod ajratib oladi. Ko’payish bo’linish bilan yoki bir hujayrali hosila-sporalar orqali amalga oshadi. Ko’pchilik suv o’tlari mikroskopik ko’rinishga ega bo’lib, ayrim ko’p hujayrali turlari uzunligi 200-300 metrlik ipsimon tanalarni, ba’zan shoxsimon shakllarni ham hosil qiladi.

Suv o'tlarining ayrim turlari (diatomli) kremniyli tanalar hosil qilib, dengiz va okeanlar tubida diatomli il yotqiziqlarini paydo qiladi.

Murakkab tuzilgan o'simliklar.

Bu guruhga yuqori darajada tuzilgan ko'p hujayrali o'simlik organizmlari kiradi. Ularning tanasi turli vazifalarni bajaruvchi (o'tkazuvchi, paydo qiluvchi, qoplovchi) to'qimalardan tuzilgan bo'lib, poya, barg va ildiz kabi asosiy qismalarga bo'linadi.

Murakkab tuzilgan o'simliklar quydagi yirik tiplarga ajratiladi:

psilofitlar, moxsimonlar, plaunsimonlar, bo'g'im o'zaklilar, paporotniklar.

Psilofitlar tipi – eng birinchi va eng sodda tuzilgan o'simliklar bo'lib, barglari bo'limgan, ko'rinishi kichik butadek bo'lgan. Silur oxirlarida paydo bo'lib, devonda yo'q bo'lgan.

Moxsimonlar tipi- mayda, sodda tuzilgan o'simliklar. Qazilma holda kam uchraydi. Hozirgi vaqtida torf hosil bo'lishi jarayonida keng ishtirok etadi.

Plaunsimonlar tipi - paleozoy erasining daraxtsimon o'simliklari bo'lib, balandligi 20-30 metrga, diametri 1-2 m ga etgan. Shoxlari bo'limgan. Barglari tanasida qator oralab joylashgan. Daraxtsimon plaunlar paleozoy davrida ko'mir hosil bo'lishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Bo'g'imo'zaklilar tipi -plaunlar kabi paleozoy erasi daraxtsimon o'simliklari hisoblanadi. Hozirgi ularning o'tsimon vakillari botqoqliklarda o'sadi.

Paporotniklar tipi – o'simliklarning eng katta va ko'psonli guruxidir. Evolyutsiya natijasida ketma-ket kelib chiqqan uchta sinfga bo'linadi: 1) paporotniklar; 2) ochiq urug'lilar; 3) yopiq urug'lilar.

Paporotniklarning o'n mingga yaqin hozirgi va qazilma turlari mavjud. Ular turli ko'rinishda bo'lib, moxga o'xshash xilidan tortib, balandligi 15-20 m daraxtsimon turigacha uchraydi. Daraxtsimon turining ayrim vakillari hozirda tropik mintaqalarda o'sadi. Paleozoyda bo'g'imo'zaklilar va plaunlar bilan birqalikda ko'mir hosil qilishda ishtirok etgan.

Ochiq urug'lilar va yopiq urug'lilar - urug' orqali ko'payuvchi

yuqori darajada tuzilgan o'simliklardir. Ochiq urug'lilar paleozoyning oxirida, yopiq urug'lilar esa bo'r davrida paydo bo'lgan. Yopiq urug'lilar qaynozoyda eng yuqori rivojlanish pog'onasiga ko'tarilgan bo'lib, ular hozirgi o'tlar, butalar, yarimbutalar va daraxtiarni o'z ichiga oladi. Daraxtlardan hozirgi vakillari pal'ma, eman, qora qayin, qayin terak sanaladi.

36- §. Yer po'stining togeologik va geologik rivojlanishi Yerning yoshi

Qadim-qadimdan insoniyatni Yerimizning yoshi, uning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hayotning kelib chiqishi juda qiziqtitib kelgan. Bu masalada ko'pdan-ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan, gipotezalar yaratilgan, izlanishlar olib borilgan.

Sayyoramizning yoshini turlicha, 4,5 mlrd. yildan 7-8 mlrd. yilgacha oraliqda hisoblashadi. Ammo ko'pchilik olimlarning fikricha, sayyoramiz yoshi 4,5-5,2 mlrd. yil. Bunday xulosa o'zida sayyoramizning rivojlanishi sirlarini saqlayotgan yer po'sti qatlamlarini chuqur va mufassal tadqiq qilish natijasidagina bildirilgan. Yerning, yer po'stining yoshi radioaktiv elementlarning parchalanishi vaqtini aniqlashga asoslangan radioaktiv usullar yordamida belgilangan. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, Seylon orolida tog' jinslari 540 min. yil, Ukrainada 2 mlrd. yil, Janubiy Afrikada 2 mlrd. 675 mln yil yoshga ega ekan. Yer po'stining eng qadimgi tog' jinslari yoshi 3 mlrd. 500 mln yilni tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yer po'sti yoshi 4 mlrd. yil deb hisoblanadi.

Yerda organik dunyoning rivojlanishi bosqichlari:

Eralar (guruh) nomi	Belgisi	Davrlar (sistema) Nomii	Bellisi	Epoxa (asr) nomi	Belgisi	Organik dunyo	O'tkan vaqt, mln. yil
Kaynayoz	✗	Antropogen (to'rinchi) Davr	Ar (Q)	Hozirgi zamon yugori antropogen O'rta antropogen	Ar ₄ Ar ₃ Ar ₂ Ar ₁	Bu davr boshlarida erda odam paydo bo'ladidi. Hozirgi zamon o'simlik va hayvonot dunyosi	1,5-2

			Quyi antropogen		taraqqiy etadi Sut emizuvchilar, qush, ballq va hasharotlar rivojlanadi	
		Neogen	Pliotsen Miotsen	N ₂ N ₁	O'simliklar yopiq urug'lilar, hozirgi zamondagi yaqin hayvonlar kelib chiqadi va rivojlanadi Odamsimon maymunlar umurtqasizlardan-plastinka jabralilar, qorin-oycqilarning rivojlanishi	10-10,5 14
Kavnazoy	Kz	Paleogen	Oligotsen Eotsen Paleotsen	Pg ₃ Pg ₂ Pg ₁	Sodda sut emizuvchilar rivojlanadi va neogenga yaqinlash-ganda o'ldi Umurtqasizlardan foraminiferalar, nummulitar, plastinka jabralilar, mollyuskalar (peletsipod), qorinoyoqlilar va boshqalar dengizda yaxshi taraqqay etadi	11 23 7
Mazozoy	Mz	Bo'r	Cr	Yuqori bo'r Quyi bo'r	Yopiq urug'lilar paydo bo'ldi Davning ikkinchi yarmida sudraluv-chilaming bir qismi, ammonit va belemenitlarning hammasi o'ldi	70
		Yura	J	Yuqori yura O'rtal yura Qo'yil yura	Bu davrlarda sudralib yuruvchilar, suvda ammonit va belemenitlar rivojlanadi. Ginkolar o'sadi	58
		Trias	T	Yuqori trias O'rtal trias Quyi trias	Sudralib yuruvchilar taraqqiy etadi Suvda va quruqlikda qushlar paydo bo'ldi Sut emizuvchilarning	45

			Perm'	R	Yuqori perm' Quyi perm'	R ₂ R ₁	birinchi namunasi paydo bo'ldi	45				
		Paleozoy	Pz				Toshko'mir	Tez o'suvchi serbagli deraxtisimon o'simliklar, piaunlardan, lepidodendronlar Bo'g'imir kalamitlar, qordaitlar rivojlanadi Suvda, quruqda yashovchilar rivojlanadi. Xasharotlar paydo bo'ldi. Umurtqasizlardan: braxiopodalar, foraminifera, gonnatitlar va ignataniilar rivojlanadi				
							Yuqori toshko'mir O'rtal toshko'mir Quyi toshko'mir	S ₃ S ₂ S ₁				
							Devon	D	Yuqori devon O'rtal devon Quyi devon	D ₃ D ₂ D ₁	Psitofitlar hukmronlik qilgan, Paprotniklarning qadimgi avlod paydo bo'lgan Qalqoni baliqlar yashaydi. Suvda quruqda yashovchi stegotsefal paydo bo'lgan. Umurtqasizlardan: braxmopodalar, marjonillar, boshoyoqlilar, mollyuska-gonnaftilar yashaydi	50-70

Paleozoy	Pz	Silur	S	Yuqori silur Quyi silur	S ₂ S ₁	Psilofitlarning rivojlanishi davom etgan. Umurtqasizlardan yangi guruh boshoyoqlilar, mollyuska, braxiodalar behisob yashagan	30
Paleozoy	Pz	Ordovik	O	Yuqori ordovik O'rta ordovik Quyi ordovik	O ₃ O ₂ O ₁	Qalqonli baliglarning birinchi namunasi paydo bo'lgan.	60
		Kembriy	Cm	Yuqori kembriy O'rta kembriy Quyi kembriy	Cm ₃ Cm ₂ Cm ₁	Suv o'simliklari va bakteriyalar ko'paygan va rivojlangan Quruqlikda o'suvchi eng oddiy o'simliklar- psilofitlar paydo bo'lgan Umurtqasiziardan: trilobitar (bo'g'inoyoqlilar) va arxeotsiatlar yashagan	70
Proterozoy		Faqat mahalliy bo'linishlarga ega		Prt		Sodda suv o'simliklari, bakteriyalarning yomon saqlangan namunalari uchraydi.	600- 800
Arxeozoy		Faqat mahalliy bo'linishlarga ega		Ar		Boshlang'ich organik dunyo shakllarining izi uchraydi	100 dan ko'proq

Yerning evolyutsiyasi.

Yerning paydo bo'lishi to'g'risidagi gipotezalar, geofizik va tarixiy-geologik izlanishlar Yerning rivojlanishi tarixini ikki bosqichga bo'lishiga imkon beradi: 1) togeologik (geologiyaga qadar) va 2) geologik bosqichlar.

Togeologik bosqich. Bu bosqich gaz va changdan iborat tumanlikning paydo bo'lgan vaqtidan hisoblanadi. Gaz-changli bulutning rivojlanishi natijasida quyuqlashish vujudga kelgan. Uning keyingi evolyutsiyasi yakunida asteroid kattaligidagi jinslar

shakllangan. O'zaro tortishish natijasida bu jinslar birlashib bir butun holga kelgan va sayyoramizning shakllanishini boshlab bergan. Yerning aylanishi va og'irlik kuchi natijasida paydo bo'lgan siqilish va zichlashish jarayonlari Yerning ichki qismining qizishiga, moddalarning saralanishiga va qobiqlarga (yadro, mantiya) ajralishiga olib kelgan.

Yuqori mantiya moddasining yengil qismi yuqorida to'planib Yer yuzasigacha otlib chiqqan va shu tariqa bazal't qatlam paydo bo'lgan. Otilishdan avval gazlar va suv bug'lari ko'tarilgan. Suv bug'lari kondensatlanib, Yer yuzasidagi chuqurliklarni to'ldira boshlagan va bo'lajak okean havzalariga asos solgan. Gazlarning bir qismi esa suvda erib dengiz suvlarining turlanishiga olib kelgan. Qolgan qismi esa Yerning havo qobig'ining shakllanishiga sarf bo'lgan. Dastlabki atmosferaning tarkibi suv bug'lari, metan, karbonat angidrid, vodorod, ammiak, uglevodorod va boshqa gazlardan iborat bo'lgan.

Dastlab gidrosfera va atmosferaning shakllanishi bilan Yerning togeologik rivojlanishi bosqichi o'z nihoyasiga etadi.

Geologik bosqich. Bu bosqich Yer po'stining shakllanishi bosqichi hisoblanadi. Geologik bosqich quyoshning Yer yuzasida faol ta'sir qilishi bilan boshlangan. Quyosh energiyasi sifat jihatidan yangi bo'lgan tashqi, ya'ni ekzogen geologik jarayonning boshlanishiga turki bo'ladi. Ekzogen jarayonlar dastlab Yer po'stining kimyoviy va fizik nurashini hamda cho'kindi to'planishini keltirib chiqargan. Cho'kindi qatlamlar esa o'tgan zamondan tabiiy-geografik holatining izarini o'zida jamlab, cho'kindi tog' jinslariga aylanib borgan. Yerning siqilishi natijasida paydo bo'lgan ichki kuchlar va Yer po'sti moddasining notejis taqsimlanishi oqibatida tektonik harakatlarni keltirib chiqargan. Ular o'z navbatida Yer po'stining ayrim qismlarining ko'tarilishiga yoki cho'kishiga hamda tog' jinslari qatlamlarining burmalanishi va yoriqlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu yo'l bilan asta-sekin Yer po'sti shaklana borgan. Yangi azot-kislorodli atmosfera tarkib topdi. Organizmlar paydo bo'lib rivojlanadi. Geologik bosqich hozirgi materiklar va okeanlarning shakllanishi bilan yakunlangan. Yer po'stining rivojlanishi jarayoni hozirgi vaqtida ham davom etmoqda.

37-§. Tokembriyning rivojlanishi tarixi

Tokembriy arxeozoy (grek. "arxeos"-eng qadimgi, "zoe"-hayot) va proterozoy (grek "proteros"-dastlabki, "zoe"-hayot) eralarini o'z ichiga oladi va 3 mlrd yil davom etgan.

Tokembriy yotqiziqlari asosan magmatik va metamorfik tog' jinslaridan-granitlar, gneyslar, slanetslar, kvartsitlar va amfibolitlardan tashkil topgan. cho'kindi tog' jinslaridan konglomeratlar, qumtoshilar, kristallangan ohaktoshilar, dolomitlar tokembriyning yuqori qismida uchraydi. Proterozoyning kuchsiz metamorflashgan ayrim tog' jinslarida ba'zan foraminiferalar, bo'shqorinlilar, suv o'tlari qoldiqlari uchraydi. Bu yerda hayot proterozoy boshlarida yoki arxeozoyda paydo bo'lganidan darak beradi.

Tokembriy yotqiziqlari orasida magmatik tog' jinslarining uchrashi arxeozoy va proterozoyda kuchli magmatizm harakatlari sodir bo'lganligidan darak beradi. Tokembriy jinslari odatda burmalangan va darzlangan bo'ladi. Proterozoyning kam o'zgargan cho'kindi tog' jinslarini o'rganish Yerda tokembriy oxirida tabiiy-geografik muhitni tiklashga imkon beradi.

To'plangan ma'lumotlar shundan darak beradiki, Arxeozoy erasining boshlarida quruqlik bir butun yaxlit superkontinent Pangeydan iborat bo'lgan. Dunyo okeani ham yagona "Tetis okeani" deb nomlangan. Proterozoy erasining oxirlarida Pangea bir qator mayda qit'alarga – Shimoliy Amerika, Grenlandiya, Evropa va Sibirga bo'linib ketgan. Janubiy yarim sharda esa Avstraliya, Hindiston, Afrika va Janubiy Amerikani birlashtirgan Gondvana qit'asi bo'lgan.

Tokembriyning oxirlarida quyidagi platformalar: Sharqiy Yevropa, Sibir, Xitoy, Hindiston, Avstraliya, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika, Antarktida shakllanib bo'lgan edi.

Tokembriy geologlar e'tiborini faqatgina Yerning eng qadimgi tarixi sirlarini saqlagani uchun emas, balki ko'plab turli foydali qazilmalarga boy bo'lgani uchun o'ziga jalb qiladi. Tokembriy yotqiziqlari bilan dunyodagi ulkan temir konlari, apatit, nikel, mis va tarqoq elementlar konlari bog'liq; tog' jinslari-granitlar, labradoritlar, marmarlar qurilish materiallari sifatida ishlataladi.

38-§. Paleozoy erasining rivojlanishi tarixi

Paleozoy (grek. "paleos"-qadimgi, "zoe"-hayot) erasi 310 mln. yil davom etgan bo'lib, oltita davrga bo'linadi: kembriy, ordovik, silur, devon, karbon, perm. paleozoy erasida Yer yuzasida ulkan o'zgarishlar ro'y beradi. Iqlim, relief va organik dunyoda sezilarli o'zgarishlar bo'lgan. Dengizda yashovchi organizmlar rivojlanishi bilan bir qatorda quruqlikda ham hayvonlar: avval ham quruqlikda, ham suvda yashovchi, so'ng sudralib yuruvchilar paydo bo'ladi. O'simlik dunyosi ham beqiyos o'zgaradi. Paleozoyning boshlarida paydo bo'lgan plaunlar, bo'g'imo'zaklilar va paporotniklar yuqori paleozoyda rivojlanish cho'qqisiga ko'tariladi va ko'mir hosil bo'lishi uchun asosiy maxsulot bo'lib xizmat qildi. Rossianing Moskva va Kuzbass, Ukrainianing Donbass, Qozog'istonning Qarag'anda ko'mir havzalari paleozoy ko'mir qatlamlaridan iborat.

Tog' hosil qiluvchi tektonik harakatlar quyi paleozoyda Islandiya, Angliya, Skandinaviya, Qozog'iston va Sayan tog'larini, yuqori paleozoyda esa Ural, Janubiy Tyon-Shon, Oltoy, Sibir, Avstraliya, Kordilera tog'larini vujudga keltirdi. Karbon va perm davrlarida Shimoliy yarim sharda iqlim iliq va nam, quruqlik bir butun yaxlit superkontinent – pangeodan iborat bo'lgan. Dunyo okeani ham yagona "Tetis okeani" deb nomланади. Proterozoy erasining oxirlarida Pangei bir qator mayda qit'alarga-Shimoliy Amerika, Grenlandiya, Yevropa va Sibirga bo'linib ketgan. Janubiy yarim sharda esa Avstraliya, Hindiston, Afrika va Janubiy Amerikani birlashtirgan Gondvana qit'asi bo'lgan.

Tokembriyning oxirlarida quyidagi platformalar: Sharqiy Yevropa, Sibir, Xitoy, Hindiston, Avstraliya, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika, Antarktida shakllanib bo'lgan edi.

Tokembriy geologlar e'tiborini faqatgina Yerning eng qadimgi tarixi sirlarini saqlagani uchun emas, balki ko'plab turli foydali qazilmalarga boy bo'lgani uchun o'ziga jalb qiladi. Tokembriy yotqiziqlari bilan dunyodagi ulkan temir konlari, apatit, nikel, mis va tarqoq elementlar konlari bog'liq; tog' jinslari-granitlar, labradoritlar qurilish materiallari sifatida ishlataladi. Janubiy yarim sharda esa sovuq bo'lgan. Bu erda bir nechta muzliklar vujudga kelgan. Bular

Janubiy Amerika, Janubiy Afrika, Avstraliya va Hindiston hududlarida joylashgan.

Paleozoy erasi yotqiziqlari foydali qazilmalarga juda boy. Sibirning neft' va gaz konlari, Donbass (Ukraina), Rur(Germaniya), Uels (Angliya), Kuzbass (Rossiya), Sileziya (Polsha) ko'mir havzalari, tuzlar, fosforitlar, boksit konlari paleozoy yotqiziqlari bilan bog'liq. Magmatik tog' jinslarida qora, rangli, nodir va tarqoq elementlar konlari to'plangan.

39-§. Mezozoyning geologik tarixi

Mezozooy (grek. "mezos"-o'rta) erasi 173 mln. yil davom etgan bo'lib, organik qoldiqlar asosida uch davrga: trias, yura, bo'rga bo'linadi.

Mezozooy tizimi yotqiziqlarida topilgan toshqotmalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, sayyoramizning organik dunyosi rivojlanish bo'yicha yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan. Eraning boshlarida paleozoyda keng tarqalgan trilobitlar, ignatanlilar, marjonlar tugab, ular o'rniga boshoyoqli va ikki kallali mollyuskalar, kaltakesaklar, qushlar, o'simliklardan – ochiq urug'lilar paydo bo'ladi.

Ignatanlilarning, foraminiferalar va baliqlarning yangi avlodi paydo bo'ladi. Quruqlikda hayot o'z chegarasini kengaytiradi. Bu holat sudralib yuruvchilar va qushlar hisobiga ro'y beradi. Sudralib yuruvchilarning suvda va havoda yashovchi vakillari ko'payadi. Mezozooy o'rmonlari ochiq urug'lilar bilan to'lib, bo'r davrida ularga yopiq urug'lilar ham qo'shiladi.

Organik dunyoning mezozoyda bunchalik keng miqyosda o'zgarishiga iqlim va yer po'stidagi tektonik harakatlardan katta ta'sir ko'rsatgan. Tog' hosil bo'lish jarayonlari Osiyoning sharqiy qismlarida, shimoliy Amerikada, Xitoyda va Hindistonda tog' tizmalarini paydo qildi. Mezozooy boshlarida boshlangan cho'kish jarayoni natijasida Gondvana to'rt bo'lakka: Avstraliya, Hindiston, Afrika va Braziliya qit'alariga bo'linadi. Shimoliy yarim sharda esa Yevrosiyo, Shimoliy Amerika qit'alari ajralib chiqadi. Hind va Atlantika okeanlarining ulkan cho'kma-havzalari vujudga keladi.

Iqlim shimoliy yarim sharda quruq va issiq bo'lgan. Iliq va nam

iqlim Sibirda va Hindi-Xitoy mintaqasida hukm suradi. Iqlimning iliq bo'lishi ko'mir qatlamlarining ko'payishiga sabab bo'lgan. Mezozooy erasi ko'mir xavzalariga Rossiyaning cheremxova, Kama, Lena kabi ko'mir havzalari kiradi. G'arbiy Sibir va Mang'ishloq neft va gaz konlari, yura davriga mansub bo'lgan oltingugurt va fosforit konlari, qurilish materiallari va tsement xom ashyosi kabilar mezozooy yotqiziqlari bilan bog'liqdir. Magmatik jinslar bilan oltin, rux, qo'rg'oshin, qalay metallari bog'liq.

40-§. Kaynozoy erasining rivojlanishi tarixi

Kaynozoy (grek. "kaynos"-yangi) erasi "yangi hayot erasi" deb ataladi va u 67 mln. yildan buyon davom etib kelmoqda. Era paleogen, neogen va antropogen davrlarga bo'linadi.

Bu davrda paydo bo'lgan yotqiziqlar hozirgi dengiz va okeanlar tubida, quruqlikda tarqalgan bo'lib ko'psonli organik qoldiqlarni o'zida saqlaydi. Kaynozoy erasining organik dunyosi hayvon va o'simliklarning yangi avlodlari paydo bo'lishi va turlarining ko'payishi bilan ajralib turadi. Eraning dengiz va okeanlarida ikki pallali va qorinoyoqli mollyuskalar, baliqlar keng tarqalgan. Quruqlikda qirilib ketgan sudralib yuruvchilar o'miga sutevizuvchilar guruhi paydo bo'ladi. Paleogen va neogen davrlarida sutevizuvchilar; xartumlilar, otsimonlar, kemiruvchilar, hasharotlar paydo bo'lib keng tarqalgan. Neogen oxirlarida odamsimon maymunlar yuzaga keladi.

Eng yosh davr – antropogen (grek. "antropos"- odam) odam paydo bo'lgan davr bo'lib hisoblanadi. Davrning boshlanishiga 700 ming. yil bo'ldi.

O'simlik dunyosi yopiq urug'lilar sinfining keng rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ular bilan bir qatorda ochiq urug'lilar, paporotniklar, mox va suv o'tlari ham rivojlanadi.

Kaynozoy erasida Alp, Bolqon, Karpat, Kavkaz, Pomir, Oloy, Himolay, And va Kamchatka tog' tizmalari paydo bo'ladi. Bu tog'larda tog' hosil bo'lishi jarayonlari tugamagan bo'lib, xozirda bo'layotgan zilzilalar, vulkanizm va ko'tarilishlar ularning davom etayotganidan darak beradi. Bu jarayonlar hozirda O'rta er dengizi geosinklinal mintaqasi, Tinch okeani mintaqasida faol davom etmoqda.

Paleogen davrida vertikal tektonik xarakatlar Sharqiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Afrika qit'alarining ko'tarilishiga sabab bo'ldi; neogenda ularning hozirgi qiyofasi paydo bo'lgan. Alp burmalanish epoxasining boshlanishi va u bilan bog'liq, ko'tarilishlar Afrikada siniqlarni keltirib chiqardi. Bu siniqlar Qizil dengiz, Tanganika, Kivu kabi ko'llarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Iqlim kaynozoy boshlarida shimoliy yarim sharda iliq, chekka shimalda o'ttacha bo'lgan. O'rta Osiyo (Turkmaniston), Shimoliy Afrika va Ispaniyada quruq va issiq bo'lgan. Bu hududlarda paleogenda tuzlar va gips qatlamlari paydo bo'ladi.

Neogenda iqlim asta-sekin soviy boshlaydi. Ayniqsa, shimoliy yarim sharda antropogen davrida kuchli sovish boshlanadi. Yevropaning, Osiyo va Shimoliy Amerikaning shimoliy hududlari muzlik bilan qoplanadi. Bu muzliklarning markazi Kanada, Grenadiya, Yangi Yer, Skandinaviya, Shimoliy Ural hisoblanadi. Bu muzliklar o'zidan keyin katta miqdorda bo'lakli jinslar to'plamlarini qoldirgan.

Yuqori antropogen davrida, ya'nı hozirgi zamon (golotsen – grek. "goles"-umuman, butunlay) boshlarida (10 ming. yil avval) boshlangan isish muzliklarning (hisob bo'yicha so'nggi, oltinchi) erishi va hozirgi iqlimni shakllantiradi.

Janubiy yarim sharda esa iqlim sezilarli darajada o'zgaradi. Shu sabab bo'lsa kerak, Afrika, Janubiy Amerika, Hindiston va Avstraliyada qadimgi o'simlik va hayvonlarning ko'pgina turlari saqlanib qolgan.

Kaynozoy erasida to'plangan yotqiziqlar mezozoy erasiniki kabi ko'mir, neft va gazga boy hisoblanadi. Paleogen davri bilan Saxalin, Turkmaniston, Apsheron, Kavkaz va Karpat neft va gaz konlari bog'liq. Ukrainadagi (Nikopol), Kavkazdag'i (Chiaturi) marganetsning konlari, Kerchdag'i – temir, Sibirdagi boksit konlari paleogenning cho'kindi tog' jinslari bilan bog'liq. Qurilish xom ashyosi deyarli barcha joylarda uchraydi. Foydali qazilma konlarining paydo bo'lishi hozirda ham davom etmoqda. Dengiz va okeanlar tubida fosforit, marganets, temir va boshqa ma'danlar to'plami shakllanib bormoqda.

VII BOB

Texnogen jarayonlar va atrof-muhit muhofazasi 41-§. Insonning geologik faoliyati.

Yerda organik dunyo paydo bo'lmasdan avval geologik jarayonlar mavjud bo'lgan. Yerda hayot paydo bo'lgach, yangi geologik omillar yuzaga keladi va arning ustki qobig'i o'zining fizik-kimyoviy xossasini o'zgartira boshlaydi. Jumladan, odam organik dunyoning eng ongli vakili sifatida organik dunyoning boshqa vakillari bilan birga tog' jinslarining emirilishiga, sun'iy jinslar hosil bo'lishiga va niroyat erdag'i elementlarning biologik tarqalishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Odam o'z hayoti faoliyatida arning po'stinigina emas, hatto atmosfera va gidrosfera qatlamlarini o'zgartirmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan-texnikaning jadal rivojlanishi tufayli ishlab chiqarish qurollari keskin qayta yangilandi. Akademik A.E.Fersman (1939)- "Odamni xalq xo'jaligidagi va ishlab chiqarish sohasidagi erga bo'lgan munosabati (ta'sir kuchi) tabiiy jarayonlar bilan tenglashadi"-degan va bu jarayonni "antropogen jarayoni" deb atagan. Hozir bu tushuncha yana ham rivojlandi. Bu jarayonni uch qismga bo'lib ko'rish mumkin.

1. Moddalarning aralashishi, elementlarning tarqalishida isnonning roli;

2. Yer yuzasi va landshaftlarning o'zgarishida texnikaning roli;
3. Geologik jarayonlarga insonning ta'siri.

Moddalarning aralashishi, elementlarning tarqalishida odamning roli. Yer sharidagi odamlar hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida ishlab chiqarish sohasida va xalq xo'jaligining rivojlanishida har kuni va har yili bir necha mln. t yoqilg'i, milliardlab t mineral xom ashyo, rangli metallar qazib chiqaradi va qayta ishlaydi. Ishlab chiqarilgan tayyor qimmatli mahsulotlar (rangli va rangsiz, metall va nometall) mamlakatlar va shaharlarga tarqaladi. Akademik A.E.Fersman aytgandek, "inson borliqni (erni) geokimyoviy qayta taqsimlaydi". Haqiqatdan bir hududdan ikkinchisiga ming, mln tonnalab metall, yonilg'i va boshqa xom ashyo mahsulotlari olib ketiladi. Ishlab

chiqarishdan chiqindilar ham u yoki bu joyga to'planib (sun'iy tola, har hil sun'iy qotishma, birikma) tabiiy parchalanmaydi va o'zgarmaydi, yo'qolmaydi, balki tabiat havosini yoki er tarkibini buzadi.

Yer yuzasi va landshaftlarni o'zgartirishda texnikaning roli. Ijtimoiy tuzumning taraqqiyot etishi ishlab chiqarish qurollarining yangilarini yaratadi. Ular inson uchun hayotiy zarur vazifalarni bajarishda va xom ashyo bazasini yaratishda xizmat qiladi.

Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida chuqurligi 300-500 m keladigan shaxta, quduqlardan, qazib chiqarib tashlangan chiqindilar bir necha 1000 km² maydonni qoplab yotadi. Bunday joylarni Uralda, Kuzbasda, Qarag'andada, Krivoy Rogda, Qozog'istonda (Saboy konida), Olmaliqda, Uchquduqda va Muruntovda ko'rish mumkin.

Erdan foydali qazilma olingandan so'ng hosil bo'lgan bo'shliq chuqurligi 1000-1300 m dan (Donbassda, Kursk magnit anomaliyasida, G'arbiy Yevropada, Afrikada va Hindistonda) 3500 m etdi. Bunday joylardan chiqqan chiqindilar oqar suv, shamo'l va boshqa jarayonlar natijasida oksidlanadi, kimyoviy, fizik nurashga uchraydi. Yer ostidan neft, gaz, suvlarni sun'iy tortib olish natijasida yer yuzida cho'kish hosil bo'ladi (Mexiko, Venetsiya va boshqa). Suv ombori va gidroelektr inshootlar qurilishi, yangi yerlar ochish, katta temir yo'llar qurish va adir – qirlarni tekislash, jarlarni to'ldirish, kanal qazish, sun'iy ko'llar (Simlyansk, Qayroqqum, Kattaqo'rg'on va b.q.) barpo etish yer yuzasi relefini, landshaftini o'zgartiib yuboradi. Buning natijasida hosil bo'lgan relief te x n o g e n r e l e f deb ataladi. Madaniy qurilishlar, shahar, qishloq, sanatoriylar, bog'lar madaniy landshaftga kiritiladi.

Bunday sun'iy qurilmalar tabiiy rel'efning buzilishiga, tabiiy jarayonning yo'nalishiga qarama-qarshi bo'lib chiqmoqda. Masalan, o'monlarning kesilib ketishi, jarlarning ayrim joylarda ko'payishi, chuchuk suvning kamayishi (oqar suvni) yoki yer osti suvi yuzasining ko'tarilishi sho'xroq yerlarning hosil bo'lishiga, yer yuzasining cho'kishiga olib keladi. Shunday qilib, relief yuzasi va uning landshaftini inson o'z qo'lli va texnika vositasi bilan kun sayin o'zgartirmoqda.

Geologik jarayonlarga odamning ta'siri. Yer yuzasi va uning ichki qismida har xil maqsadiarda qilingan ishlar (kon qazish, kanal,

suv ombori barpo etish, tog' muzini eritish va boshqalar) geologik jarayonning sekinlashishiga yoki tezlashishiga olib keladi.

Daryo yo'lini o'zgartirish (to'g'on, suv ombori) eroziya jarayonir sekinlashtiradi. Yer ostidagi chuchuk suvni tinimsiz tortib olish, unda xalq xo'jaligida foydalanish yer osti suvning kamayishiga, geologik jarayonning sekinlashishiga va yer yuzasining cho'kishiga olib keladi. Masalan, dengiz sohilini ihotalash (betonlash yoki daraxt ekish abraziya jarayonini va suv bosimini sekinlashtiradi, suv ombori qurish sel ketishni to'xtatadi. Bunday hodisani cho'llarda yoki dashtiarda han ko'rish mumkin. Dashtga, cho'lga, suv borishi, ihota daraxtlarining ekilishi shamolni, eol jarayonini sekinlashtiradi. Umuman olganda birinchi va ikkinchi qismiarda ko'rsatilgandek, XX asr texnika asri bo'lib yer yuzasini o'zgartirish keyingi 25-30 yil ichida juda tezlashib, o'tgar asrlarda qilingan ishlardan bir necha bor oshib ketdi. Yer yuzini va ichk qismini texnika yordamida o'zgartirish geologik jarayonlarning sekinlashishiga, yangi sun'iy landshaftlarni hosil bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari tabiiy geologik jarayonning sekinlashishi yok tezlashishi. Yer sharida iqlim mintaqalarining qisman bo'lsada o'zgarishiga olib keladi. Jamiyat taraqqiy etgan sari tabiatdan unuml foydalanish uchun kurash davom etaveradi. Lekin fan va texnikaning o'sishi tufayli tabiatning asl holini saqlashga yordam beradigan asbob-uskunalar va qonun-qoidalar yaratilishini hozirgi sharoit taqozo qiladi.

42-§. Atrof muhitni muhofaza qilish

Tabiat va inson. Tabiat muhiti, shart-sharoitlari organik dunyonи, jumladan, inson hayotini rivojlantiradi. Agar shu tabiiy muhit sharoiti buzilsachi, unda organik dunyo hayotiga ta'sir qila boshlaydi. Barcha tirik organik dunyo vakillari ichida inson o'z hayot faoliyatini bilan tabiatning tarkibini, ustki tuzilishini o'zgartirishga qodirdir.

Atrof-muhitni o'rab turgan tabiiy sharoitga organizmlar munosabatini o'rganuvchi fan e k o l o g i ya deyiladi. Tabiatda insionning ta'sirini tekshirish (ekologyaning bir qismi) "inson ekologiyasi" deyiladi. Inson ta'sirida tabiat tuzilishining buzilishi "ekclogiya krizi" deb ataladi. Ba'zan insionning ko'r-ko'rona (stixiyali) tartibsiz, e'tiborsiz harakati tabiatning halokatl buzilishiga ham olib keladi. Yer atmosferasini zaharli

gaz bilan, suv va quruqlikni chiqindilar bilan iflos qilish, hayvonot va o'simlik dunyosini qirish shular jumlasidandir.

Hozirgi vaqtida inson tabiatni yildan-yilga texnika vositalari bilan juda tez o'zgartirmoqda. Bularidan ba'zi bir dalillarga to'xtalib o'tamiz.

Yer sharida insonning ko'payishi keyingi 100 yilda 4 marta ikki barobardan ko'paygan, 2000 yilda Yer shari odamlari 7 mld. etdi.

Insonlarning Yer sharida bunday tez ko'payishi ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy bilan ta'minlashni taqozo qiladi. Ma'lumki, quruqlikning 70% dan qishloq xo'jaligida foydalanilmaydi. Quruqlikning qolgan qismining yarmisigina ekin maydoni bo'lib (15%) qolgani shahar, zavod, suv ombori, temir yo'l, aerodrom va aholi yashaydigan qurilishlar bilan band. Lekin shu ozgina joydan unumli, tartibli foydalanilmaydi, ba'zan tabiiy sharoit buziladi. Masalan, chuchuk suv har bir kishiga faqat ichishga o'rta hisobda kamida bir sutkada 2 l sarf bo'ladi. Hozir katta shaharlarda, sanoat korxonalarida, ishlab chiqarishda, qishloq xo'jaligida va shuningdek xalq xo'jaligining hamma sohasida chuchuk suv ishlataladi. chuchuk suvdan oqilona foydalanish hamma mamlakatda to'g'ri yo'lga qo'yilganligi uchun uni har xil chiqindilar bilan ifoslantirish natijasida toza suvning yetishmasligi hozirgi kunda G'arb mamlakatlarida sezilarlidir. Bundan tashqari zavod, fabrika, konlardan chiqqan ortiqcha chiqindi, zaharli kislota, minerallar, qayta ishlashdan qolgan qoldiqlar chuchuk suv tarkibini buzmoqda. Daryo, dengiz, okean, ko'l suvlariga har xil chiqindilar tashlanishidan organik dunyoning qirilib ketishi xavfi yuzaga kelmoqda.

Suv sun'iy birikmalarni (DDT, sintetika va erituvchi, yuvuvchi eritmalar, kislotalar) eritib yo'q qila olmaydi. Amerika, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlar dengizga tashlagan chiqindilar, radioaktiv moddalar shelf zonasidagi organik dunyoning qirilib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bunday zararli chiqindilarga chek qo'yish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshida tabiatni muhofaza qilish Kengashi tashkil qilingan bo'lib, tegishli qonun va qarorlar ishlab chiqiladi. Bu Kengashga hamma davlat vakillari qatnashadi va ular tegishli joylarda muntazam tekshirishlar o'tkazib turadilar. O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga katta mablag' sarf qilinmoqda.

ILOVA

Umumiyl geologiya fanidan test savollari

1. Geologiya qanday fan?

- A). Yerning rivojlanish tarixini o'rganadi
- B). Yerning kimyoviy tarkibini o'rganadi
- C). Yerning paydo bo'lishi, rivojlanishi tarixi, moddiy tarkibi, undagi geologik jarayonlarni o'rganadi
